Annotatsiya: ushbu maqolada, bugungi kundagi ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo’llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yilgan. Maktabgacha yosh-bu shaxsning poydevori qo‘yilgan, irodasi rivojlangan va ijtimoiy kompetentsiyasi shakllanadigan o‘ziga xos va hal qiluvchi davr.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, ta’lim tarbiya jarayoni, axloqiy, rivojlantirish, mustaqil.

KIRISH.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari oila va jamiyatning bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, milliy hamda mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi. Muassasalar mustaqil ravishda, o‘z tashabbusi bilano‘z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik prinsip-larga mone’lik qilmasa har qanday qaror qabul qilishga haqlidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyaviy-ta’limiy ishlar sifati, bolalar va otaonalar huquqiga jamiyat hamda Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun mas’uldir.

Muassasalarning mehnat jamoasi xalqchillik asosida o‘z-o‘zini boshqarish prinsipiiga muvofiq jamiyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining asosiy tiplari quyidagi-lardan iborat: yaslilar; yasli-bog‘chalar; g) bog‘chalar; maktab-bog‘chalar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlar kimga bo‘ysunishidan qat’iy nazar xalq deputatlari mahalliy kengashi ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Maktabgacha talim muassasasi ro‘yxatdan o‘tkazilgach, unga tartib raqami beriladi va u yuridik shaxs huquqiga ega bo‘ladi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**
Issue 2. February 2024

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta’lim mahoratini, umumiy ta’lim va madaniy darajasini muntazamo’stirib borishga g‘amxo‘rlik qiladi; xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta’lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli vao‘z vaqtidajoydan-joyga ko‘chirib turilishini ta’minkaydi. Bu maqsadlar uchun ma’-muriyat ruhiy-pedagogiko‘qitishning huquqiy va iqtisodiy uyg‘unlanishini ta’minkaydi; xodimlar malakasini oshirishga bevosita mak-tabgacha ta’lim muassasasida shart-sharoit yaratadi, murabbiylik harakatini rivojlantiradi; mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa fanlar erishgan yutuqlar haqida axborot beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlar o‘z dasturi va metodikasini ishlab chiqish hamda amaliy faoliyatida qo‘llash huquqiga ega. Ularning tasdiqlangan tartibio‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan belgilanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash vao‘qitish bo‘yicha qo‘llanmalarni hamda metodikani erkin tanlash huquqiga ega.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil qilish va rivojlantirishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun yangi tipdagi, yo‘nalishdagi maktabgacha ta’lim muassasalarini tuzish respublika xalq la’limini boshqarish va sog‘liqni saqlash organlari tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlar mudirasi xalq ta’limini bosh-qarish bo‘limlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo‘lmanish ish stajiga ega shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda kadrlarni tanlash, joyjoyiga qo‘yish, tarbiyalash bo‘yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta’lim muas-sasasi kengashining faol ishtirokida amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umu-miy ta’lim mahoratini va madaniy darajasini muntazamo’stirib borishiga g‘amxo‘rlik qiladi, xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta’lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli vao‘z vaqtida joydan-joyga ko‘chirib turili-shini ta’minkaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda kadrlar rezervini shakllantirib, ular bilan doimiy ish olib boradi. Mudira bolalar bog‘chasining butun faoliyatiga, bolalar bog‘chasi obodonlashtirish, ko‘kalam-zorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo‘yicha xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, muassasani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash tartibini to‘g‘ri tashkil etish, bog‘chani rejadagi bolalar bilan to‘ldirish,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ta’lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchunjavobgar, yozgi sog‘lomlashtirish ishlari, pedagogik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning mala-kasini oshirish ishlari bo‘yicha bosh rahbardir.

Ma’lumki, maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshrishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim uzlucksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning maqsadi - bolalarni maktabdagagi o‘qishga tayyorlash, bolani sog‘lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘RQning 595-sonli "Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida"gi qonuni. 16.12.2019 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli "Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI" 22.12.2020 yil.
3. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Qayumova, M.N.A’zamova "Maktabgacha pedagogika" T-2019 132-133 b
4. Abdullayev, A. A. (2020). System of information and communication technologies in the education. Science and World, 5(81), 19-21.
5. Abdullayev, A. A. (2020). Cluster method in the development of critical thinking technology in the lessons in primary school. Science and World, 5(81), 16-19.
6. Abdullayev, A. A. (2020). Development of professional skill of teachers in the higher education institutions. TDPU ilmiy axborotlari, 10, 191-194.

**Взаимосвязь тревожности и коммуникативных умений в подростковом
возрасте**

Атаджанова Л. А.

Ургенчский Государственный университет

В условиях инновационной модернизации образовательной среды выраженность коммуникативных умений учащихся имеет огромное значение. Они являются важным компонентом развития личности, поэтому находятся в центре внимания психолого-педагогических исследований.

Коммуникативные умения как условие успешного общения имеют особое значение в подростковом возрасте, поэтому обретают статус ведущей деятельности (Д.Б.Эльконин, Л.И. Божович). Развитие коммуникативной сферы зависит от множества факторов, в том числе психологических свойств личности. Учитывая потребность в межличностном общении, а также особенности эмоциональной сферы в подростковом возрасте (повышенная чувствительность, склонность преувеличивать переживания), Предполагается, что тревожность может стать причиной коммуникативных трудностей, выражающихся в неудовлетворённых потребностях, переживаниях, конфликтах. [1]

А.М.Прихожан определяет тревожность как эмоциональное состояние, устойчивое свойство личности [2]. По мнению А.Г. Самохваловой, тревожность одна из базовых коммуникативных трудностей, вызывающая неуверенность и излишнюю застенчивость[3].

Таким образом, мы исследуем выраженность коммуникативных умений во взаимосвязи с тревожностью. Психодиагностика коммуникативной сферы подростков реализована посредством теста коммуникативных умений Л.Михельсона (перевод и адаптация Ю. З. Гильбуха); уровень тревожности определён с помощью методики «Шкала тревожности» А.М. Прихожан

В данном исследовании принимало участие 118 подростков от 12 до 16 лет. Всего 118 участников, из них и 67 девочек и 51 мальчик.

Получены результаты анализа коэффициентов корреляционных связей показателей коммуникативных умений и тревожности.

Выявлены значимые различия между проявлением коммуникативных умений по отдельным шкалам каждой из методик. Так, например,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

обнаружилась обратная связь между реагированием на несправедливую критику с показателями школьной ($r_s=-0,193$, $p<0,05$) и самооценочной тревожности($r_s=-0,182$, $p<0,05$). Следовательно, подростки с низким уровнем тревожности адекватно реагируют на несправедливую критику со стороны сверстников. Критика не влияет на самооценку личности, на её отношение к школьной среде и не вызывает беспокойства.

Также обнаружена отрицательная корреляционная связь между показателями компетентного поведения и уровнем школьной ($r_s=-0,196$, $p<0,05$) и самооценочной тревожности ($r_s=-0,199$, $p<0,05$). Отсюда мы видим, что подростки с низким уровнем тревожности не способны проявлять компетентное поведение при общении.

Положительная корреляция обнаружилась между показателями зависимого поведения и самооценочной тревожности ($r_s= 0,223$, $p<0,05$).

Другими словами, респонденты, которым свойственно компетентное поведение во взаимодействии с другими людьми, менее тревожны в связи со своим включением в школьную жизнь и со своей самооценкой. Напротив, дети с зависимым от других поведением чаще характеризуются высокими показателями самооценочной тревожности.

В целом, видно, что уровень развития коммуникативных навыков не связан с тревожностью, но очевидна взаимосвязь между компетентным поведением в общении (владение вербальными и невербальными средствами самовыражения, понимание собеседника и адекватное реагирование на всевозможные ситуации) и самооценочной тревожностью. Данный факт необходимо учитывать при составлении коррекционной программы развития коммуникативных умений подростков.

Литература:

1. Лабунская В.А. Психология затруднённого общения М.: Академия, 2001. — 288 с.
2. Прихожан А.М. Тревожность у детей и подростков: психологическая природа и возрастная динамика. — М:Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000—304с
3. Самохвалова А. Г. Социокультурная детерминация коммуникативных трудностей современных детей и подростков // Психологические исследования: электронный научный журнал. - 2017. - № 55. - С. 5-10.

**PEDAGOGIKA PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA “T-SXEMA”
TEXNALOGIYASI**

Umarova Karima

**Jizzax viloyati Zarbdor tumani MMTBGA qarashli 13-maktabda amaliyotchi
psixolog**

Ta’lim –tarbiyaga bo‘lgan zamonaviy talablar hamda ularning sifatini oshirish muammosiga yangicha yondashuv, uni muntazam ravishda takomillashtirishning inavatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni ta’lim tarbiya jarayoniga keng joriy etishlardan iborat

Bu borada bugungi kunda dunyodagi qator mamlakatlar mazkur muammo yechimini topishga harakat qilmoqdalar. Ular Yaponiyada 1984-yilda qabul qilingan “XXI-asruchun ta’lim modeli, ta’lim va jamiyat ravnaqi, izlanishlar” Fransiyada 1985-yilda qabul qilingan “Kelajak ta’limi” Olmoniyada “2000-yilda ta’lim” AQSHda 1985-yilda qabul qilingan “Amarikaliklar uchun XXI asr ta’limi” kabi dasturlar jaxon ta’limi tizimidagi isloxitarni o’tkazishga keng yo‘l ochdi. Bu esa mazkur soxada kengroq ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish lozimligini ta’kidlamoqda.

Bu borada Respublikamizda qator tadbirlar amalgalashmoqda Jumladan “talim to‘g‘risidagi qonun (29.08.1997y) “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “(29.08.1997y)va jaxon ta’limi andozalari talablariga mos keluvchi “Davlat t’alim standartlari”da davr bilan hamnafas, ya’ni “Intelektual asr” ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko‘zda tutilgan. Ayniqsa, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim muassasalarida yangi pedagogik texnalogiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari salmog‘ini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu sababli ham bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogic va axborot texnalogiyalaridan, o‘quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usullaridan foydalana oladigan qilib hamda o‘zidan pedagogic faoliyat maxoratini va ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantish ustidagi faoliyatni ilmiy asosda tashkil qila oladigan, shuningdek, ularni mustaqil ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyatini loyiq qilib tayyorlash milliy dasturning uchinchi bosqichi vazifasini hal qilishning bir variant hamdir. Ushbu variant o‘z navbatida vazifalarni hal qilishni taqazo etadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC

INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Ular

-bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy talablar asosida intelektual salohiyatli qilib tarbiyalashga erishish, ya’ni ilm-fan va texnika-texnologiyalarning zamonaviy yutuqlarinini amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan kasb tayorgarligiga ega qilish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy texnalogiyaridan samarali foydalanilgan pedagogic texnologiyalar va interaktiv ta’lim metodlaridan foydalasnishga o‘rgatish va shu kabilardir.

Yuqoridagi qayd etilgan vazifalarga talablar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishsiz erishib bo‘lmasligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Shu sababli talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda pedagogic va psixalogiya fanlarini o‘qitishda pedagogic texnologiyalaridan foydalansak yuqori natijalarga erishamiz bu borada biz “T-sxema” texnologiyasini qo‘llashni maqsad qilib oldik.

T-sxema texnologiyasi munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (xa yo‘q, tarafda qarshi) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun unversial grafik organayzer hisoblanadi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tushincha yoki mavzu bo‘yicha o‘rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo‘llaniladi.

Bunda ta’lim oluvchi shaxsidagi

- Mustaqil va ijodiy fikrlash;
- Axborotlar tizimini taxlil etish ;
- O‘z pozitsiyasida qa’tiy turish ;
- O‘z o‘zini nazorat qilish va baxolash ;
- Muloqotchanlik va o‘zgalar fikriga xurmat ;
- Jamoada ishslash ko‘nimlalari rivojlanadi

Metodni amalga oshirish tartibi:

- 1.O‘qituvchi talabalarni miqdor jihatdan teng guruhlarga ajratadi.
2. Talabalarni trening o‘tkazishga qo‘yilgan talablar va bajarilishi zarur bo‘lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi.
3. Tarqatmalar talabalar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushinchaga yoki muammoga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi.
4. Bildirilgan fikrlar ijobiylar salbiy yo‘nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

5. Belgilangan vaqt (10-15daqiqa) yakuniga yetgach, barcha guruhlarning fasilitatorlari yordamida prezintatsiyalar tashkil etiladi.
6. Barcha guruhlarning yakuniy xulosalari o‘qib eshittirilganidan so‘ng, trener o‘qituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo‘sishimcha to‘ldirishlarni kiritadi. Kutiladigan natija: Talabalar ma’lum mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, mustahkamlaydi, mavzuning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga ilmiy dunyoqarashi asosida aqliy tarbiya berishni malum bir “T-sxema” texnalogiyasi asosida olib boorish rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya texnalogiyasini amaliyatga og‘ishmay joriy etishni kafolatlaydi. Bu yerda ushbu inavatsion texnalogiyarning afzalligi shundaki, bunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvhilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv rejasi, dasturi DTS va KTMD hamda “ta’lim to‘g‘risida”gi qonun kabi me’yoriy hujjatlar talabalari asosidailmiy dunyoqarashni yuksaltirishga erishadi va bular talabalar aqliy tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi.

Pedagogika psixologiya fanlariga oid ilmiy dunyoqarashi va ular asosidagi aqliy tabiyaga oid tushinchalarni umumiy dastur asosida “T-sxemasi” texnalogiyasini o‘rganish imkoniyatning mavjudligi bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlashi uchun optimal variantlarini qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Research Science and Innovation House

Maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarini ma’naviy salohiyatini oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy – adabiy merosidan foydalanishning o‘ziga xosligi

JDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi

5-kurs talabasi

Abduraimova Gulzoda

JDPU o‘qituvchisi

Sultanova Nilufar

Anotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarini ma’naviy – axloqiy salohiyatini oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy – adabiy merosidan foydalanishning o‘ziga xos tomonlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Hikoya, ruboiy, g‘azal, ertak, sayohat, badiiy kecha, do‘stlik, vafo, mustaqil faoliyat, ota – ona bilan hamkorlik.

Аннотация В данной статье рассматриваются специфические аспекты использования научно-литературного наследия Захириддина Мухаммада Бабура для повышения духовно-нравственного потенциала детей подготовительной группы дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: рассказ, рубай, газель, сказка, путешествие, творческий вечер, дружба, верность, самостоятельная деятельность, сотрудничество с родителями.

Abstract: This article discusses the specific aspects of using the scientific-literary heritage of Zahiriddin Muhammad Babur in increasing the spiritual and moral potential of the children of the preparatory group of the preschool education organization.

Key words: story, rubai, ghazal, fairy tale, travel, artistic evening, friendship, loyalty, independent activity, cooperation with parents.

Bizga ma’lumki o‘zbek xalqi azal – azaldan farzand tarbiyasiga alohida, muhim masala sifatida qaragan. Ulg‘ayib kelayotgan jajji bolajonlar qalbiga ezbilik urug‘ini sochish, soflik, halollik, to‘g‘rilik singari fazilatlarni va kattalarga hurmat, vatanga muhabbat, ona tabiatni asrash ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyot muhim hisoblangan.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy tarbiyasini boyitishda o‘zbek xalq og‘zaki ijodining asrlar davomida saqlanib qolgan durdonalari - maqol, hikoyat, ertak va hikmatli so‘zлari katta ahamiyotga egadir. Masalan : ertak qahramonlarining qilgan qilmishlari orqali jazo yoki mukofot olishlari bolada yaxshi va yomon haqidagi, to‘g‘ri yoki egri xususida ham tasavvurlarini shakllantirib boradi. Jazolangan ertak qahramonlariga o‘xshamaslikka va ularning salbiy odatlarini qilmaslikka harakat qiladi.

Sharq adabiyotida o‘zining badiiy asarlari, ruboilyari, g‘azallari bilan yosh avlodni ma’nан boy, aqlan yetuk hamda zohiran poklikka undaydigan ijodkorlar juda ko‘p bo‘lib, ulardan biri deb Zahiriddin Muhammad Boburni ayta olamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida haqiqiy inson qanday bo‘lishligi haqida ta’kidlanadi.Uning ijodining asl maqsadi insonni ma’naviy komillikka yetkazish bo‘lib, u o‘z g‘azallari, ruboilyari va asarlarida do‘stlik, yaxshilik, vafo haqida bong uradi hamda sog‘inch, ona yurtga muhabbat, yor vafosi kabilarni shu qadar chiroyli ta’riflaydiki, uni o‘qigan kitobxon ta’sirlanmay hech iloji yo‘q.Buni yaxshi anglagan bugungi zamon pedagogi o‘z faoliyatları davomida mashg‘ulotlari, kunning ikkinchi yarmi davomida va ertalabki suhbat jarayonlarida albatta Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga murojaat qilishlari zarur deb hisoblayman. Masalan; nutq o‘sirish mashg‘ulotida tarbiyachi bolalarga “Bobur va kabutar” hikoyasini so‘zlab berishi davomida bolalarda ayniqsa tayyorlov guruhi bolalarida tabiatga muhabbat, qushlarni sevish, ularga g‘amxo‘rlik qilish kabi insoniy xislatlar uyg‘onadi.Bu esa o‘z o‘rnida bolalarni mehr shavqatli bo‘lib o‘sishlarida katta zamin hozirlaydi. Qolaversa, syujetli - rolli va saxnalashtirish rivojlanish markazida bolalar shug‘ullanar ekan Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligi uning do‘sti Husayn Bayqaro bilan samimiyl va sof bolaligini rollarga bo‘lib ijro etar ekan, ularda haqiqiy do‘st qanday bo‘lishi lozimligi haqida tasavvurlari shakllandı.Va bu albatta ularni do‘stlikka vafodorlik tuyg‘usini uyg‘otadi.Bu esa bolajonlarni kelajakda mehribon, vafodor, to‘g‘riso‘z bo‘lib ulg‘ayishlarida ko‘mak beradi.Mana shuni yaxshi tushungan bugungi zamon tarbiyachisi bunday jarayonlarda juda kreativ bo‘lib, bolalarni to‘g‘ri boshqara olishlari va ularga mazmunli tushuncha berishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kunning ikkinchi yarmidagi mustaqil faoliyatlarini samarali tashkil etish ularni vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun ham tarbiyachi bolalarga Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub g‘azallardan, ruboilyardan yod oldirsa, bu ularning nutqining ravon va to‘g‘ri bo‘lishini, qolaversa

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

qiyin so‘zlarni ham qiyalmay ayta olishni hamda so‘z boyligi ko‘payishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fevral oyida tashkil etiladigan “Navoiyxonlik” va “Boburxonlik” kabi badiiy kechalar ham maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy tarbiyasini sayqallaydi. Mazkur tashkil etiladigan badiiy kechalarda bolajonlar videoroliklar va slaydlar orqali allomalarimiz hayoti va ijod yo‘li bilan tanishadilar. Bu ularga yana ham qiziqarli bo‘ladi. Chunki ekran orqali ularni ko‘zlar bilan ko‘rar ekan, tarbiyachilari mashg‘ulotlar davomida ta’riflab bergan allomalarimiz haqidagi tasavvurlari ko‘z oldilarida gavdalanadi, bu esa ularning xotirasini mustaxkamlaydi va uzoq vaqt saqlanib qolishini ta’minlaydi. Badiiy kecha davomida tarbiyachi – pedagoglar va do‘satlari tillaridan aytilgan allomalarimizning ruboiy, g‘azallari hamda badiiy kechaga qadim zamon ruhini beradigan dekaratsiyalar ham bolajonlarga o’sha zamon haqida oz bo‘lsada bilish imkonini beradi. Shunday ekan, demak bu kabi badiiy kechalarning maktabgacha yoshdagi bolalar ma’naviy – axloqiy tarbiyasida ahamiyoti beqiyosdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarini tarixiy muzeylarga sayohatga olib borish, masalan; “Temuriylar tarixi muzeyi” ushbu muzeyga sayohat qilgan har qanday inson o‘z o‘tmishidan, buyuk ota – bobolaridan g‘ururlanish hissini tuyadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda huddi shunday faxrlanish tuyg‘usi 6-7 yoshidan boshlanadi. Muzeyga sayohat qilgan har qanday bolada buyuk sarkarda Amir Temur va uning sulolasi to‘g‘risida bir olam tasavvur bilan qaytadi. Ajdodlarimizga mehr muhabbat, Vatanga sadoqat ham aynan shu sayohatdan boshlanadi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy tarbiyasini boyitishda ota – onalar bilan tarbiyachi o‘rtasidagi o‘zaro mustahkam hamkorlik ham katta ahamiyot kasb etadi. Ota – ona farzandi bilan bo‘s sh vaqtlarida tarbiyaga chorlovchi kitoblarni, jumladan; Zahiriddin Muhammad Boburning ibrat yo‘li atalmish “Boburnoma” kitobini o‘qib bersa nur ustiga a’lo nur bo‘ladi. Sababi buyuk bobomizning ushbu nodir asari shu qadar mahorat bilan yozilganki, unda Zahiriddin Muhammad Bobur hayotining beg‘ubor bolaligi, muhabbat bilan yo‘g‘rilgan yoshlik – yigitlik chog‘lari hamda Vatandan olisda sargardonlikdagi hayoti batafsil yoritilgan. Bu asar bolalarni katta hayotga tarbiyalashda maktab hisoblanadi desam adashmayman.

Xulosa o‘rnida shuni joiz deb topdimki, hayot atalmish katta yo‘lga chiqqan ertangi kunimiz, yorug‘ kelajagimiz egalarini hayot yo‘llarini nurafshon qilmog‘imiz


“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

uchun ham buyuk allomalarimiz xususan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy tarbiyasida katta e’tibor qaratmog‘imiz lozimdir. Chunki uning hayot maktabi katta ibrat, namunadir. Biz buni yaxshi anglagan holda bolalarimizga uning hayotini ibrat qilib kelajaklarini mash’ala kabi yoritmog‘imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”.Toshkent 2008.
- 2.E.Yusupov. “Inson kamolotining ma’naviy asoslari”Universitet-1998.
- 3.F.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent – 2019.



Research Science and Innovation House

**6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini oshirishda
tarbiyachi mahorati.**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor-o‘qituvchisi
Sultanova Nilufar**

Annotatsiya: Mazkur maqolada 6-7 maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga sifatli tayyorlanishida tarbiyachining yangi usullar va shakllardan foydalanishi, ota-onalar bilan hamkorlik yo‘llari hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari bilan hamkorlik qilish usullari haqida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, tayyorlov guruhi, pedagog, kun tartibi, ta’lim-tarbiya, Ilk qadam, davlat talablari.

Аннотация: В данной статье описано использование воспитателями новых методов и форм, способы сотрудничества с родителями, а также методы сотрудничества с педагогами дошкольных образовательных организаций в качественной подготовке детей 6-7 лет к школе.

Ключевые слова: дошкольный возраст, подготовительная группа, педагог, повестка дня, образование, первая ступень, государственные требования.

Abstract: This article describes the use of new methods and forms by educators, ways of cooperation with parents, as well as methods of cooperation with teachers of preschool educational organizations in the qualitative preparation of children 6-7 years old for school.

Keywords: preschool age, preparatory group, teacher, agenda, education, first stage, state requirements.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni, ayniqsa tayyorlov guruhi bolalarini maktabga sifatli tayyorlanishlari ularning bilimlarini monitoringining qanchalik to‘g‘ri olib borilayotganligiga bog‘liq albatta. Shu boisdan, ham O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” PQ- 595-son va 2016-yil 29-dekabrdagi PQ – 2707 – son “2017-2021 - yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

to‘g‘risida” gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim – tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablari» orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyoragarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” ning 2-bobida Davlat talablarining mazmuni atroflicha yoritilgan bo‘lib, davlat talablarining asosiy maqsadi – mamlakatimizda o‘tkazilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarni, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi hamda ilm – fan yutuqlari va zamonaviy informatsion komunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda, maktabgacha ta’lim tizimida har tomonlama mukammal va intellektual rivojlangan, barkamol avlodni tarbiyalash lozimligi belgilab berilgan. Shunday ekan, maktab ta’limiga 6-7 yoshli bolalarni sifatlari tayyorlashda va ularning maktabga tayyoragarlik monitoringini oshirishda davlat talablarining to‘g‘ri amalda qo‘llanilishi natijasida, maktabga tayyorlov guruhi bolalaridan kutilayotgan natija yil yakuniga kelib o‘z samarasini ko‘rsatadi. Sababi, maktabga tayyoragarlik davrida 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalari yoshi va intilishi, hamda qiziqishlari bo‘yicha beshta rivojlanish markazlariga to‘g‘ri yo‘naltirishi, qolaversa mashg‘ulotlarni yangi noan’anaviy usullar bilan tashkil etilishi orqali ta’lim olishini to‘g‘ri tashkil etilishi maqsadga muofiqdir.Qolaversa, bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida kun davomida turli faoliyatlar jarayonida tarbiyachi hamda pedagoglar tomonidan kuzatuvlar, savol – javoblar, o‘yin jarayonlari orqali nazorat qilinishi hamda egallangan bilimlari mustaxkamlanib borilishida bu yetarlicha samara ko‘rsatadi .

Tarbiyachining bolalarni o‘ziga sezdirmagan va unga halaqit qilmagan holda tashkil etgan kuzatishlari natijalari ularning monitoringini ko‘rsatuvchi bolaning rivojlanish xaritasiga belgilab boriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyanuvchilari monitoringini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan kuzatuvlar uch bosqichdan iborat bo‘lib, ular dastlabki,

- yangi o‘quv yili boshida ya’ni, (sentyabr oyida),
- oraliq (dekabr – yanvar oylari davomida),

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

-yakuniy esa (may oyida) o‘tkaziladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari vazifasi sirasiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiyani amalga oshirish, bolalarda ijtimoiy – komunikativ, axloqiy, estetik, jismoniy va intellektual sifat va salohiyatni uyg‘un holda rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyatlilik, mustaqillik, liderlik xislatlarini shakllantirish, bolalarning yosh, psixologik va individual hamda jismoniy xususiyatlari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etish kiritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xususan, maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorgarlik monitoringini oshirishda to‘g‘ri tashkil etilgan kunlik faoliyatlar ularni monitoringini takomillashtirishda ma’lum darajada ahamiyotlidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bola ertalabki yettidan kechki oltiga qadar bo‘lar ekan, u har bir to‘g‘ri tashkil etilgan faoliyatdan o‘zi uchun kerakli bilimni oladi. Shu boisdan ham, buni yaxshi tushungan holda tayyorlov guruhi tarbiyachisi 6-7 yoshli bolalarning kun tartiblarini to‘g‘ri tashkil etish va ularni mashg‘ulotlar, faollik markazlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida bir qancha yangi usullarni, oila, pedagoglarning o‘zaro hamkorliklari va mакtab bilan hamkorlik kabilar bilan, sifat va samaradorlikka erishishi uchun yangi usullarini ishlab chiqilishi va ishlab chiqilgan usullar albatta amaliyot jarayonida qo‘llanilishi lozim. Shuni alohida ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisi zimmasiga ulkan mas’uliyat tushadi. Chunki, 6-7 yoshda bolalarning iste’dodlari va iqtidorlari yaxshigina namoyon bo‘la boshlaydi. Buni esa tarbiyachi o‘z vaqtida payqay olishi va ular bilan badantarbiya, mehnat, o‘yin, mashg‘ulotlar jarayonlarida, markazlarga yo‘naltirgan holda qolaversa, yakka holda shug‘ullanib bolaning iste’dodini va iqtidorini to‘g‘ri yo‘naltirmog‘i darkor. Buni yaxshi anglagan tayyorlov guruhi tarbiyachisi bolalarni iste’dodlari va iqtidorlarini yuzaga chiqarish hamda ularni maktabga tayyorgarliklarini takomillashtirish maqsadida boshqa pedagoglar masalan; musiqa raxbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, xareograf, psixolog, til o‘qituvchilari kabilar bilan pedagogik hamkorlik ishlarini muntazam olib borishi va seminarlar va o‘quv treninglari orqali kasbiy tajribalar almashishi lozim. Bizga ma’lumki, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining kun tartibida 9:00-10:50ga qadar didaktik o‘yinlar, mustaqil faoliyatlarga ajratiladi. Didaktik o‘yinlar, mustaqil faoliyat davomida bola har kuni qaysidir mashg‘ulot yoki faollik markazlarida shug‘ullanadi. 6-7 yoshli maktabga tayyorlov guruhi bolalari shu faoliyatlar davomida o‘zi uchun zarur bilimni egallab boradi. Tarbiyachi esa mashg‘ulot yoki faollik markazida shug‘ullanayotgan vaqt

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

mobaynida bolalarni o‘ziga sezdirmagan holda kuzatib boradi.Va mashg‘ulotlarda shug‘ullanish hamda faollik markazlarida ishlash jarayonlarida orqada qolayotgan, o‘zlashtirishga qiynalayotgan bolalar bilan kunning ikkinchi yarmida yakka holda ish tashkil etadi.Yakka holda bola bola bilan ishlash tarbiyachiga bolaning ichki kechinmalarini yaxshi tushunishga va bolaning o‘zlashtirmagan bilimlarini o‘zlashtirishiga va bolaning ichki dunyosiga kira olib uni yaxshiroq anglashga imkoniyat yaratdi.Tarbiyachi bola bilan kunning ikkinchi yarmida yakka holda shug‘ullanib, uning kunning birinchi yarmida egallay olmagan bilimini egallahida yordam beradi, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash bilan uning mактабга таърихияларлик дарасини ошишига erishadi. Bu esa o‘z o‘rnida bolaning maktabga tayyorgarlik monitoringini o‘sishiga olib keladi.Agar bolada mashg‘ulotga hamda rivojlanish markazlariga nisbatan qiziqish yo‘qligini sezsa, tarbiyachi bolani qiziqtirish va bilim darajasi yuqori bo‘lgan bolalar qatorida bo‘lishligi uchun turli yangi usullarni o‘ylab topadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki,yurtimiz ertasi bo‘lgan farzandlarimizning baxtli kelajagi uchun qayg‘urish, har tomonlama ya’ni, intellektual, jismoniy, estetik, aqliy, sog‘lom avlodni tarbiyalashga intilish har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining ustuvor maqsadi bo‘lsagina ertamiz egalari bo‘lgan bolajonlarimizni buyuk shaxsiyat egalari qilib ulg‘aytira olishimiz mumkinligini tushungan tarbiyachi o‘z oldiga qo‘yan maqsadini tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorgarlik monitoringini oshishida ma’lum darajada hissasini qo‘shish bilan bajara oladi desak adashmaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrdagi 255-son buyrug‘i “Maktabgacha ta’lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari”to‘g‘risida.
 - 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori 2020-yil 22-dekabr.
 3. “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llanma.T-2020 D.Q.Asqarova.
 - 4.Maktabgacha pedagogika – 2019.
- F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova.

Internet saytlari:

- 1.www.pedagog.uz.
- 2.www.Ziyonet.uz.
- 3.www.tdpu.uz.

Pedagogika sohasida qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Mustafoqulova Aziza Urazboy qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika sohasida axborot texnologiyalari va ularning qo‘llanilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Axborot texnologiyalari, multimedia, kompyuter, ta’lim tizimi, an'anaviy ta’lim printer.

Kirish. Hozirgi kunda talim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb-dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. Özbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘ğrisidagi qonunning 26 muddasida hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o‘qitish jarayoniga ilg‘or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng ko‘lamda tadbiq etish barcha turdag‘i ta’lim muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta’kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Pedagog olim A. Xoliqov “Pedagogik mahorat” qo‘llanmasida oquv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari- ni qollash ta’lim metodlaring samaradorligini oshirishga öqituvchilar mehnat faoliyatining özgarishiga, ularning pedagogik mahoratini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy özgarishiga samarali ta’sir etishini aytib otgan Abdullayev Farhod Donaql o‘gli o‘zining” Pedagogik sohada axborot texnologiyasining qo‘llanilishi” maqolasida:” Ta’limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hodisalar va jarayonlarni kompyuterda modellashtirishdir. Kompyuter modellari an'anaviy darsning tarkibiga hamohang bo‘lishi va o‘qituvchiga kompyuter ekranida, ko‘pgina effektlarni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

namoyish etishga, o‘quvchilarning yangi, noan'anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishga yordam beradi” degan fikrlarni ilgari surgan. Multimediali o‘quv kurslarini butun dunyo kompyuter tarmog‘iga joylashtirilishi, ulardan o‘quv jarayoni foydalanishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojoat qilish, o‘quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o‘rganish faoliyatini shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko‘rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko‘rinishida ifodalanilishi o‘quvchilarni darslarda faolroq, diqqatliroq intiluvchan va qiziquvchan bo‘lishga o‘rgatadi, chunki tavsiya qilinadigan har bir axborot ularning ishtiropi va harakati orqali amalga oshiriladi. Isoqova Adiba Shamsiddin qizining Axborot texnologiyalaridan ta‘lim jarayonini shakllantirishda foydalanish nomli maqolasida “ta‘lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, ma'lumotli va nazorat qismlarini birlashtirish yo‘li bilan o‘quvchilarga ijobiy va samarali ta’sir etuvchi vosita hisoblanadi,” deb ta‘kidlagan.

Muhokama

Butun dunyoda axborot texnologiyalari rivojlangan. Shu jumladan bizning mamlakatimizda ham. Talim sohasida ham axborot texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Afsuski bazi kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Bu muammolardan biri mamlakatimizning chekka hududlarida seziladi. Ulardaaxborot texnologiyalari vositalari yaxshi jihozlanmaganligi, kompyuterning yetishmasligi televizorlarning yo‘qligi, printerlarning yetishmasligi oquvchilarga video rolik materiallarning qo‘llanilila olmasligiga oquvchilarning zamon bilan hamnafas bo‘la olmasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu pedagoglarning eng katta mumlommolaridan biri hisoblanadi. Pedagoglarga berilgan printerlarning katta va qo‘polligi uni olib o‘tishga va harakatlantirishga noquaylik tugdirmoqda. Oqituvchilarning hujjat ishlari ko‘pligi ularning o‘z faoliyati bilan shuğullanishiga darsga tayyorgarligiga to‘sinqilik qilmoqda va vaqtini olmoqda. Agar bu muommo hal etilsa, pedagoglarning yangi axborot texnologiyalari bilan tanishishga va ularni amaliyotda qo‘llishga vaqt koproq boladi

Natija

Mamlakatimizdagi pedagoglar koproq an'anaviy usuldan emas balki noananaviy usuldan va uning metodlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalansa oquvchining dars jarayoniga qiziqlishi oshadi. Hozirgi zamon axborot texnologiyalari

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

rivojlangan zamonda bizning mamlakatimizda talim tizimiga ozgina etibor qaratgan holda tali tizimida zamon texnoogiyalaridan foydalanishimiz kerak. Misol uchun dars vaqtida oquvchilar elektron kitoblardan foydalanishi kerak ya'ni planshetlardan. Ular o'quvchilar uchun anchagin qulay Planshetlar orqali o'quvchilar darsni ham amaliy ham nazariy bilimlarni oladi. Planshetning kitobdan ustun tomonlaridan biri shundaki, ixchamligida hamda malumotlarning tez topilishi osonligida. O'zlashtirilayotgan bilimni planshet orqali ko'rgazmali materiallar natijasida darsni tushunish oson bo'ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta'lim sohasida o'zgarishlar bo'lmoqda. Pedagogika sohasida axborot texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos afzalliklari mavjuddir. Axborot texnologiyalari orqali o'qituvchilar mavzuni körgazmalikarzda tushuntirishi natijasida o'quvchilarning bilim olishi mukammal bo'ladi, yaxshilanadi hamda dunyoqarashi kengayadi va bu ta'lim tizimi sifatining oshishiga sababchi boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Özbekiston Respublikasi “Ta'lim to‘grisidagi” qonuni
- A. Xoliqov “pedagogik mahorat” Toshkent. 2010.
2. U.Begimqulov “Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasи va amaliyoti. Ped.fanlari don't.ilmiy dar uchun diss.
3. M.Pirmuhammedova Pedagogik mahorat asoslari-T.: 2010.

**Research Science and
Innovation House**

Ta’lim sohasida ota-on va o‘qituvchi hamkorligi

**Guliston davlat pedagogika Instituti
pedagogika Yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Omonboyev Ozodbek**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-on, o‘qituvchi va ta’lim muassasasi hamkorligining samaradorligi va afzalliklari muhokama qilib o‘tiladi, shuningdek ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlariga asoslanishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim sohasi, ota-on, hamkorlik, sifat, o‘qituvchi.

Kirish: Mustaqil Ozbekistonning xalqparvar siyosati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, goyaviy-siyosiy, etnik-madaniy hayotida kun sayin jiddiy ozgarishlar bolmoqda. Jamiyatimiz moddiy va ma‘naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy oz-ozini anglashda samarali ta’sir korsatayapti. Mamlakatimiz hayotining barcha tomonlarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma‘naviy jihatdan tiklash, goyaviy jihatdan yangilash va oz-ozini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining uzlusiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratilmoqda. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me‘yoriy hujjatlarda o‘qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish sohasida qator tadbirlar belgilab qo‘yilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga alohida e‘tibor qaratilib, bugun zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish qayd qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagisi IX sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyatga joriy etish, o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta’lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda talabalar o‘qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo‘lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqr qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi. Bunday vazifalarni bajarish mavjud ta‘lim tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan oliy pedagogik ta‘lim paradigmasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishga, oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallahsga qodir pedagoglar tayyorlashga yo‘naltirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xulkar Radjabova Farmonovnaning:”Ota-oona, maktab va o‘qituvchi hamkorligidagi harakat ta’limni qo‘llab quvvatlashning samarali usulidir”nomli maqolasida:”Bolani o‘qitish davrining 5-6 yoshidanoq kitobga,darsda bo‘lgan ishtyoqi so‘nib, bo‘sh vaqtini boshqa keraksiz ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishi bizni hamisha munozara qilishga chorlaydi. Aslini olganda olila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik jarayoni ota-onalarni ta‘lim jarayoniga jalb qilishga, bo‘sh vaqtini o‘tkazishga,bolalar va pedagogik jamoa bilan o‘zaro munosabatlarga qaratilgan bo‘lishi kerak”,-deya ta’kidlaydi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik ,tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalaniladi.Ta‘lim muassasalari va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos falsafiy fikrlari haqida tahlil olib boriladi.

Muhokama

Tajribaning ko‘rsatishicha, ota-onalar ko‘pincha o‘zlarini tarbiyaviy ishga to‘la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallahni zarur deb hisoblamaydilar. Ota onalarning bu xusuiyatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o‘z davrida ta’kidlagan edi. «Tarbiya san’ati, Deb degan edi u, — shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba’zilarga esa juda oson ish bo‘lib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo‘lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo‘lib ko‘rinadi. Deyarli hamma tarbiya

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

sabr-toqatni talab etishini e’tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug’ma qobiliyat va malaka, ya’ni ko‘nikma kerak, deb o‘ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug’ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish. Bunday bilimlarning yo‘qligi oilaviy tarbiyada ko‘plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo‘q. Bu Jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko‘rsatish mumkin: Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o‘zлari, ishlari haqida kam so‘zlab beradilar, o‘quv bilim yurti o‘quvchilar jamoasining hayoti, o‘z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta’sir ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum etadi. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko‘milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo‘ladilar. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o‘quv muassasasining pedagogik kuch-g’ayratini yo‘qqa chiqaradi. Ota-onalar tarbiyaviy ta’sirining izchil emasligi — onda-sonda o‘qishini tekshirish, biror nojo‘ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo‘lishiga yordam bermaydi. Oilaviy tarbiyaning assosi sifatida taqiqlashlar sistemasi — ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug’diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi. Harakatlarning o‘quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o‘quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo‘ladi va o‘sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg’ayib borishi bilan tarbiyaviy faoliytni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o‘quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo‘lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o‘ylash odatda o‘zini oqlamaydi, ko‘pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi. Ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg’ayishi bilan ularni o‘zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo‘qligi, ota-onalarning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

turmushning ma’naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo’shish mumkin. Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o‘z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o‘quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o‘ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe’l-atvor xususiyatlarini, o‘quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an’analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko‘rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. Tarzidagi va yakka tartibdagisi ish shakllarini oqilona birga qo’shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi. Ko‘rsatilgan shakllar ta’rifi va ularni qo’llashning eng yuqori natija berishini ta’mindigani shart-sharoitlarga qisqacha to’xtalib o’tamiz. O‘quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo‘lib ular quydagilardir: —oilada sog’lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o’rnak bo‘lishi, farzandlarning ota- onasiga, Vatanga muhabbat tuyg’usini shakllantirish, o‘zaro g’amxo‘p bo‘lishni ta’minalash; —oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a’zolarining o‘z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta’minalash; —farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma’rifatli va ma’naviyatli kishilar bo‘lib yetishishlarini ta’minalash; —bozor munosabatlariga mos bo‘lgan kasb-hunar o‘rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish; Shaxslarning ma’naviy barkamol va jismongan sog’lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish; Shaxslarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g’oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; Shaxslarning bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo’shimcha ta’lim berish; Farzandlarida mavjud bo‘lgan iste’dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish; O‘z farzandlarining o‘quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo‘lish; Ota-onalar o‘zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi; Shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish; Oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg’un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas’ullikni ta’minalash; Sanitariya-gigiyenik, ekologik ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish; Oila, o‘quv bilim yurti va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

javobgardir; Sog’ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o‘rgatishdan iborat. Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

Natija

O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga qo‘yiladigan pedagogik talablar Berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik Bilan doimo aloqa bog‘lab turadi. Zarur bo‘lgan vaqtida o‘qishda o‘quvchilarga Yordam ko‘rsatishni tashkil etadi. Sinf rahbari qiladigan ishlari hujjatlarini olib boradi Va uni maktab ma‘muriyatiga taqdim etadi. O‘quvchilar sog‘lig‘ini mustahkamlashga Doir ishlarni o‘tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o‘rgatib boriladi. Sinf jamoasini tashkil etishda, sinf majlisini tashkil etishda sinf rahbarining roli Katta hisoblanadi. Sinf majlisi o‘tkazish uchun avvalo jamoani jipslashtiriladi. Sinf Rahbari majlisda ko‘plab masalalar ko‘radilar. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko‘rilib Muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o‘z yechimini topish kerak bo‘ladi. Sinf rahbari majlis o‘tkazishi davomida yaxshi o‘qiydigan bolalarni sinfda ya‘ni Jamoa ichida rag‘batlantirish kerak. Bolalar bir-biriga do‘stona munosabatda Bo‘lishadi. Ularni bir-biriga intilib, yaxshi o‘qiy boshlashga intiladi. Yomon O‘qiydigan bolalar ham yaxshi o‘qiydigan bolalarga intilib, ular ham yaxshi o‘qishga Intiladi. Bundan tashqari sinf rahbari o‘quvchilarni saviyasi rivojlanishi uchun o‘zi Sinfga kutubxona qilishi kerak. Bu kutubxonadagi kitoblarni o‘quvchilar sinfdan Tashqari o‘qish vaqtida yoki darsdan so‘ng bo‘sh qolgan paytlarida o‘qib o‘zlariga Foydali tomonlarini olishi mumkin. Bizning yosh avlod xalqimizning inqilobiy, Mehnat, jangovar an‘analarni o‘zlashtirib, o‘ziga katta avlodning eng yaxshi Fazilatlarini g‘oyaviy e‘tiqod va matonatini, Vatanga muhabbatini, uning iqtisodiysiyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishiga intilishini Singdiribgina o‘z bobolari va otalari ishini davom ettirib va ko‘paytira oladi. Oila ham jamiyatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo‘lga Qo‘yish juda katta ahamiyatga ega. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti Davomida uning barcha tomonlariga dirralariga ta‘sir ko‘rsatishga qodirdir va odatda Ta‘sir ko‘rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va Psixologik ta‘sir ko‘rsatishning chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ketadi. Ota-onalar bilan ish shakllari odatda sinf rahbari o‘z shaxsiy xususiyatlarini Tajribasini o‘quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o‘ziga xos xususiyatlarni, otaonalarni bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan Xatolar va qiyinchiliklarni, fe‘l-atvor xususiyatlarni maktab pedagoglar jamoasidagi Muhitni ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an‘analarni va hokazalarni Hisobdan olib belgilaydi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni amalga oshirishda faqat bilim berib qolmasdan, ularni tarbiya sohasidagi amaliy malaka va ko‘nikmalar bilan Qurollantirish, ularning pedagogik faoliyatini uyg‘otish mustaqil shug‘ullanishga Undash, maqsadga muvofiq oila ichki munosabatlarini yo‘lga qo‘yish g‘oyat Muhimdir. Ota-onalar yig‘ilishlari ota-onalar bilan ish olib borishning an‘anaviy tarkib Topgan shaklidir. Hal qilinayotgan aniq vazifalarga bog‘liq xolda sinf yig‘ilishlarini Tashkiliy, yakuniy chorak yig‘ilishlarini mavzuga doir yig‘ilish bahs, yig‘ilish Praktikum, ota-onalarning umumiy ta‘limi bo‘yicha sinf rejasiga ko‘ra yig‘ilish kabi Yig‘ilishlar bo‘lishi mumkin. Tashkiliy yig‘ilishlarda ota-onalar qo‘mitasi saylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Mikrorayonda pedagogik iqlim o‘rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadi, jamoat Topshiriqlari taqsimланади va turli ish yo‘nalishlariga doir tashabbuskor ota-onalar Guruhlari tuziladi, otan-onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o‘tkazish rejalari Muvofiqlashtiriladi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida ota-ona va o‘qituvchi doima hamkorlikda ishlasa o‘z samarasini ko‘rsatadi va ta’lim-tarbiyaning sifati ham yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Nishonov U, Tursunov I “Pedagogika kursi”Toshkent 1997-yil.
- 2.Babanskiy Y.K “Pedagokika”Toshkent M 1988-yil
- 3.Munnavarov A.K”Pedagogika” Toshkent 1996-yil

Pedagogika sohasida qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari

**Guliston Davlat Pedagogika
Instituti Pedagogika fakulteti
1-kurs talabasi
Fozilova Nasiba Irisbek qizi**

Annotatsiya :

Maqolada pedagogik sohada va ta’lim sohasida axborot texnologiyalarining o‘rni hamda yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish, ularni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o‘qitish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi ularning pedagogik sohada bilimlarni yana ham mukammallashtiradi. Talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalarni o‘rgatish, ularni pedagogik texnikasi va pedagogik usullari, bilim, ko‘nikmalarini mustahkamlashga undaydi.

Kalit so‘zlar : pedagogik soha, axborot texnologiyalari, axborot vositalari, video proektorlar, elektron doskalar, ta’lim sohasi, texnika, texnologiya.

Kirish:

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o‘rin tutib kelmoqda. Yurtimizdagi axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borilgan siyosat hozirgi kunga kelib o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish respublikada jahon axborotlarini tez va oson bilib olish, yurtimiz rivojlanish samaradorligini oshiradi. Pedagoglarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi ya’ni video proektorlar, televizor shuning bilan birga elektron doskalar orqali bilim va faoliyatlaridagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi.

Zamonaviy pedagoging ta’lim jarayonida talabalarga ilmiy - pedagogik talablar asosida dars berishi, darsni qiziqarli va samarali o‘rganish uchun video proektorda har xil slayd ko‘rinishdagi savol - javob o‘yinlari shuning bilan birga ilg‘or pedagogik mahorat va texnikalardan foydalanish talabalarni o‘quv jarayonlarini o‘zlashtirishga turtki bo‘ladi.

"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH"

Issue 2. February 2024

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi.

Gulziyo Berdiyeva o‘zining "Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish" nomli maqolasida, axborot texnologiyalari bugungi kunda ijtimoiy turli ko‘rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo‘lib, uning jamiyatda tutgan o‘rni beqiyosligi.Oxirgi davrda axborotli muhitda katta o‘zgarishlar bo‘lib bormoqda. Ana shu o‘zgarishlar qog`ozsiz texnologiya zaruriyatini keltirib chiqarishi mumkinligini aytib o‘tadi.

Bu borada olib boriladigan ishlar axborot motivni o‘stirishga, uni qo‘ya bilishni o‘rgatishdan iborat. Axborotlashtirish axborot jarayonlarini rivojlantirish vosita va sharoitlarining butun majmui bo‘lib, tegishli texnik, bazani yaratish, tashkiliy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy islohotlar qilishni o‘z ichiga oluvchi jarayon bo‘lib, u ta’limni texnologiyalashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga O‘rinboyeva Lolaxonning "Axborot texnologiyalarida matematikaning o‘rni va ahamiyati" haqidagi maqolasida,

Axborotlashtirish faqatgina fan va texnika yutug‘i bo‘lmasdan, balki ular ta’lim,tarbiya, san’at, tibbiyat, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, sanoat va shu kabi sohalarning rivojlanishida ham doimo omil bo‘la oladi. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari esa o‘z navbatida motivlarni yuzaga keltiruvchi eng muhim omillardan biridir. Chunki, axborotlarning jamlanganligi, ko‘rgazmaliligi, ya’ni turli xil taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, animatsiyalardan foydalanish, ta’lim-tarbiya oluvchilarining yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan qiziqishni va bilim olishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari bu axborot ustida bajarish mumkin bo‘lgan amallardir. Bu – axborotni saqlash, yig`ish, qayta ishlash, saralash, uzatish Axborotli muhitning kelajakda, inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati, bugungi holatidan ancha yuqori bo‘lishi uchun bajarilishi lozim bo‘lgan ko‘lamini kengaytirish talab etiladi.

Ana shu vazifalar majmuini informatizatsiya (axborotlashtirish) deb atashga kelishib olingan.

Muhohkama

Hozirgi innovatsion rivojlanayotgan davlatda raqamlashtirish siyosat jadallik bilan o‘z o‘rnini topmoqda. Hamma joylarda axborot vositalariga bo‘lgan ehtiyoj mavjud shuning bilan birga ta’limda juda ham ommalashgani va axborot texnologiyalarisiz oliy ta’limni his qilish qiyin.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Nega? Chunki hozirgi kunda axborot texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda bularga video proektorlar orqali dars o‘tishlar va zarurat bo‘lganda onlayn zumda darslarning o‘tilishi misol bo‘lishi mumkin. Jadal rivojlanib borayotgan bu texnologiyalar jamiyat va hamda respublikaning ham rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Shunday ekan axborot texnologiyalaring foydalarini juda ko‘p o‘quvchilarning yodida qolishiga ham ko‘p yordam beradi.

Talim sifatini oshirishda amalga oshirilgan ishlar haqida gap ketganida esa talabalarni axborot vositalaridan oqilona foydalanish zarurati turadi.

Darslarning nazariy va amaliy qismlaridan o‘quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun pedagogik texnologiyalarning samarali usullaridan va axborot vositalarini ko‘proq ishlatishi ko‘zda tutiladi.

Natija:

Axborot vositalari yurtimizing barcha jabhalarda bor ekan, demak bizning axborot texnikalarga bo‘lgan ehtiyojimiz oshib boraveradi. Buni hamma sohalarda ko‘rishimiz mumkin.

Hozirda pedagogika sohasida axborot vositalaridan foydalanish bu barcha uchun samaralidir. Axborot vositalaridan ko‘proq foydalanilsa shuncha ko‘p ma'lumotlarni bilish mumkin. Agarki axborot vositalari bo‘lmadi deb xisoblaganimizda ham bo‘ladi, hammasi juda qiyin kechadi talabalarning bilim olishlari, domlalarning barcha talablarga o‘rgatmoqchi bo‘lganlariga esa vaqt yetmay qoladi.

Shunday ekan axborot zamonida yashayotgan ekanmiz bizdan axborot vositalari va axborot texnologiyalaridan to‘la qonli foydalanishimiz talab qilinadi.

Axborot texnologiyalari Pedagogika sohasida ish yuritayotganlarga ham juda qo‘l keladi , qo‘llanilishi kerak bo‘lgan metodlar usullarni video proektorda va televizor orqali biz to‘g’ri va aniq tushunib olishimiz mumkin. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish barcha sohaning natijalarini yuqorilatadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda pedagog domlalarning yana ham bilim va ko‘nikmalarni oshirish va talabalarga ko‘proq ma'lumotlarni yetkazish axborot texnologiyalariga murojaat qilishga undaydi.

Pedagogning ham talabaning ham axborot vositalari va texnologiyalaridan foydalanishi bu juda yaxshi negaki, jamiyat ham hozirgi kunda axborot

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

texnologiyalarini o‘rganishmoqda ularni samaralarini ham ko‘rishimiz mumkin. Axborot texnologiyalrini qo‘llay olish bu dars samarasini va dars tahlilini tartibli o‘tishiga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

- 1.Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: “Akademiya”, 2007 y.
- 2.Sheraliyev O.Sh. Masofaviy ta’lim tizimida tinglovchilar bilim darajasini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish metodikasi. (magistr)... diss. – Qo‘qon, 2021. – 82 b.
3. I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimova. Texnologiya. Umumiy o‘rta ta’lim 4 - sinf o‘quvchilari uchun.-Toshkent: "O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2017.
- 4.Abdiyev Sh. Ta’lim sifat samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o‘rni. Uslubiy ko‘rsatma. – VVXTXQTMO Samarqand, 2015 y.
5. G‘ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari – T.: «Sharq», 2000 y.

**Research Science and
Innovation House**

HOZIRGI KUNDAGI PEDAGOGIKA SOHASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti pedagogika
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Saidova Sevara Istam qizi**

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kundagi pedagogika sohasidagi muammolar va ularni samarali usullar bilan bartaraf etish yechimi haqida.

Kalit so‘zlar: muammo, pedagogika, yechim, ta’lim, maktab, usullar, munosabat, kasb, pedagog.

KIRISH

Xalq ta’limi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta’limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ta’lim uchun mablag‘larni tejash mumkin emas, degan fikrga qo‘shilmasdan boshqa ilojimiz yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta’kidlangan emas.

Ta’limdagi muammolar davlatning barqaror rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi. Shu munosabat bilan joriy yilning 28-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Davlatimiz rahbari darajasida maktab ta’limi sohasidagi muammolar va dolzarb masalalar qayd etildi, qator takliflar ilgari surildi. Albatta, bunday g‘amxo‘rlik maktab ta’limining ustuvorligidan dalolat beradi. Biroq, maktab ta’limi muammolari tizimli va mustaqil tarzda hal qilinishi kerak. Muammolar chetdan turib hal qilinadi, deb uylash xatodir, shuning uchun xalq ta’limi sohasidagi davlat siyosatida ishtirok etadigan barcha davlat organlaridan tashabbuskorlik talab etiladi.

Hozirgi kundagi yuqori raqobatchilik sharoitida va ta’lim berishga qo‘yilgan vazifalarning qat’iyligi tufayli zamonaviy o‘qituvchi-tadqiqotchi o‘zining ilmiy-ijodiy, innovatsion salohiyatini to‘liq ochib berishga to‘sinqinlik qiladigan muammolarga duch kelishini tushunib yetishi zarur. Bunda muammolarni aniqlash va ularning ijobjiy yechimini topish muhim xisoblanadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim sohasida mavjud yutuqlarga qaramasdan xalq ta’limida bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, hozirgi axborot asrida deyarli muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda maktablardagi ta’lim muammolari haqida xabarlar yoki materiallarni uchratish mumkin.

Ta’limning asosiy muammolari va uning sifati tushib ketishining sabablari haqida yuridik fanlar doktori, professor Shoxjaxon Xo`jayev „Maktab ta’lim tizimi:muammolar va istiqbollar” deb nomlagan maqolasida quyidagilarni sanab o`tgan:

1. O‘qituvchilar va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlardagi muammolar.

Hech kimga sir emaski, yaqin vaqtgacha o‘qituvchilar faoliyatida darslarni yuqori sifatda o‘tkazishga va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga to‘sqinlik qiladigan bir qator ob’ektiv muammolar mavjud bo‘lgan.

2. Maktab o‘qituvchisi kasbining obro’si unchalik yuqori emasligi. Afsuski, maktab o‘qituvchisi talab yuqori bo‘lgan kasblardan biri emas. Birinchidan, bu o‘qituvchilarning ish haqi bilan bog‘liq.

3. Maktablarning moddiy-texnik ta’midot bilan bog‘liq muammolar.

Zamonaviy maktab talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlar uchun qulay platforma sanaladi.

4. Maktabdagi o‘quv dasturlari muammolari. Ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga javob bermaydigan eskirgan o‘quv dasturlari asosida tashkil etish yana bir muammolardan biri sanaladi.

Ta’lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchilarining intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo`naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmaganligi haqida biologiya fanlari nomzodi,dotsent Achilov Ganijon o`zining „Ta’lim sifati:islohotlar, muammolar, yechimlar va istiqbollari” nomli maqolasida ta’kidlab o’tgan.

MUHOKAMA

Fan va texnika jadal sur`atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko`plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi.Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish,o‘qitishning innovatsion

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

texnologiyalari joriy etish, pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kundagi ta`lim muassasalarida dolbarb muammolarga o`quv mashg‘ulotida ta`lim oluvchilarga bahslashish, o`zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishini misol qila olamiz. ta`lim oluvchi o`z fikrini mustaqil bayon eta oladigan jamoa oldida o`z nutqini ravon ifoda eta oladigan yetuk shaxs bo`lib yetishishi maqsadga muvofiq. Yana biri pedagoglar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyatga keng joriy etmasligini alohida ta`kidlab o`tishimiz lozim. Metodlarni qo`llash orqali ta`lim oluvchilarga dars jarayonida kerakli bilimlarni samarali usullar orqali berish mumkin.

NATIJA

Mustaqillikning ilk yillardan boshlab yurtimizda ta`lim tizimini isloh etishga katta e’tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma’lum yutuqlarga erishildi.

An‘anaviy ta`lim tizimida ko`plab muammolar va kamchiliklar mavjud va ularni isloh qilishimiz kerak.

Pedagoglarning pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyatga keng joriy etishi uchun ularga amaliyot darslarini tashkillashtirib berish kerak bo`ladi. Pedagoglar undan olgan bilimlari asosida dars mashg‘ulotlarini tashkillashtirishlari oson bo`ladi. Ta`lim muassasalarida malakali o`qituvchilar yetishmaganligi sababli pedagoglarning malakasini oshirish kunning dolzarb muammoasi. Maktablardagi texnik jihozlarning yetishmasligi zamонавиy dars mashg‘ulotlarini amalga oshirishga to`sinqinlik qilayotgan muammo sanaladi. Texnik bazalarni ko`paytirish uchun davlat budgetidan pul mablag‘lari ajratilishi maqsadga muvofiq. Ta`lim muassasalarida laboratoriya mashg‘ulotlari uchun sinfxonalari yetishmasligi kuzatiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda hozirgi kundagi pedagogika sohasidagi muammolarni bartaraf etish ta`lim sifatini yanada oshishiga olib keladi. „Bizning eng katta ustuvor vazifamiz yoshlarga ulkan maqsadlar qo`yish va ularga erishish uchun imkoniyatlar berishdir. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi” dedilar prezidentimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz
- 2.Nemov R.S., Kirpichnik A.G. Jamoaga yo‘l / talabalar jamoasi psixologiyasi haqida o‘qituvchilar uchun kitob. - M .: Pedagogika, 1988 yil.
3. N.Atayev F.Rasulova S.Hasanov "Umumiy pedagogik". Toshkent: 2011
- 4.To‘raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.
- 5.Abdulla Avloniy" Turkiy Guliston yoxud axloq" O‘zbekiston milliy ensiklapediysi ,Toshkent 2004.
- 6.To’xtaxoyevning Umumiy pedagogika nazariyasi va tarixi

**Research Science and
Innovation House**

Hozirgi kunda pedagoglarda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari

**Guliston davlat pedagogika
instituti pedagogika yo‘nalishi
1-kurs talabasi Xudoyberdiyeva
Tursunoy Tohirjon qizi**

Annotatsiya.

Bu maqola pedagoglarda uchraydigan muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini topish, ularning mohiyatini va shaxsiy rivojlanishga olib keladigan ahamiyatini taqdim etadi. Ushbu maqolada pedagogika bilan bog`liq turli turdag'i yo'nalishlar va ularning jamiyat va inson xulqiga ta'siri kenglik bilan tushuntiriladi.

Maqola ta`lim tizimida pedagoglarning muammolari uslubiyoti, boshqa ilmiy dissiplinlar bilan bog'lanishiga ta'sirini va ta`lim tizmiga qanday ta'sir qilishi haqida tahlil qiladi.

Ushbu maqola ilmiy tadqiqotlarni tahlil etish, inson tushunishini va uning ta'siri hamda uning qadriyati va yangi metodlarni o'rganishda xususiy ahamiyatga ega bo'lgan psixologik jarayonlarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar. Pedagogika , pedagog, predmet, zamonaviy texnalogiyalar, xususiyat, dolzarb muammolar , yo‘nalishlar, jarayonlar, metod, o‘qitishning yangicha prinsiplari, pedagogikaning mehanizmlari,integratsiya,byurokratiya.

Kirish

Hozirgi kunda pedagoglarda bir qancha muammolar paydo bo‘lib ularning turli xil yechimlari o‘rganilmoqda.Maktablarda pedagog xodimlarning hozirgi kundagi asosiy muammosi bu oylik maoshlarining pastligidir.Buning natijasida ko‘pchilik pedagoglar o‘z ishiga sidqidildan yondashmayapti. Oxir oqibatda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ancha pasayib,maktabni bitirgan o‘quvchilarning oliy ta`lim muassalariga kirish ko‘rsatkichi anchayin kamayib bormoqda.Shu bilan birga shu kabi muammolardan biri bu ko‘pchilik pedagoglarning zamonaviy texnalogiyalardan foydalana olmaslidir.Hozirgi axborot texnalogiyalar asrida bu juda katta global muammodir. Qolaversa,ko‘pchilik maktablarda zamonaviy texnalogiyalarning yetishmasligi va internet tarmog`ining yaxshi ishlamaslidir.Oqibatda pedagoglar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

darslarda mavzu bo'yicha turli xil slaydlar, videodarslar va turli xil zamonaviy metodlardan foydalana olmasligiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Qosimov Azimjon Sanoqul o'g'li o'zining "Ta'lim tizimidagi muammolar" nomli maqolasida: — Hozirgi kunda ta'lim tizimida uchraydigan ayrim kamchiliklar talaba yoshlarning sifatli bilim olishi hamda ilm-fanga bo'lgan qiziqishni so'ndirishga sabab bo'layapti. Bu esa kelajagimizga putur yetkazishi mumkin. Talabalarni ilm-fanga qiziqtirishning samarali yo'llarini topishdan oldin ularni ta'lim olayotgan muhitini chirolyi qilishimiz kerak. "— degan fikrlarni keltirib o'tgan. "Pedagogika" kitobida quyidagicha keltirilgan: Ta'limdagi muammolar davlatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan joriy yilning 28 yanvar kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda Davlatimiz rahbari darajasida maktab ta'limi sohasidagi muammolar va dolzarb masalalar qayd etildi, qator takliflar ilgari surildi. Albatta, bunday g'amxo'rlik maktab ta'limining ustuvorligidan dalolat beradi. Biroq, maktab ta'limi muammolari tizimli va mustaqil tarzda hal qilinishi kerak. Muammolar chetdan turib hal qilinadi, deb uylash xatodir, shuning uchun xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatida ishtirok etadigan barcha davlat organlaridan tashabbuskorlik talab etiladi. Ubaydullayev Eldor Ixtiyor o'g'li o'zining "Ta'lim sifati" nomli maqolasida shunday fikrlar keltirgan: Ta'lim sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratning davr talablariga mosligi o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalardan oqilona foydalanish, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llagan holda o'qitilishini ta'minlash talab etiladi o'qishda kompetensiyaviy egallangan bilimlarni hayotda qo'llay olish kasb tanlash mustaqil ta'lim olish o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir yuqorida gaplarning barchasi ta'lim sifatini oshirishga juda katta samarali xizmat qiladi.

Muhokama

Hozirgi kunda pedagoglarda uchraydigan muammolar: o'quvchilar psixologiyasi tushunmaslik, zamonaviy texnalogiyalardan foydalana olmaslik, ota-onalar bilan nizolar, shu bilan birga o'z mutaxasisligini yaxshi bilmaslik kabilarni kuzatish mumkin.

Ushbu muammolarni yechimini quyidagilar bilan izohlash mumkin. Eng avvalo, pedagoglar (o'qituvchilar)ni oylik maoshlarini oshirish, yangicha metodlarni o'rgatish bo'yicha ilmiy-amaliy konfirensiyalar, seminarlar tashkil qilish. Yoshi katta o'qituvchilarga zamonaviy texnalogiyalardan foydalanishni o'rgatish maqsadida qayta

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

tayyorlov kurlarini tashkil qilish va ushbu soh abo'yicha imtixonlar o'takazish.Oylik maoshlarni oshirishni yangicha prinsiplarini ishlab chiqish va toifa olish imtixonlarini onlayn tashkil qilish bo'yicha yangicha platforma ishlab chiqish.O'quvchilar bilan ishlashda eng avvalo ularning psixik xarektistikasini o'rganib chiqish va ularning ota-onalari bilan muloqotni ko'paytirish.Hozirgi axborot texnologiyalar asrida ko'pchilik mакtab yoshidagi o'quvchilar turli xil kibersport o'yinlariga yanikim (pubge,kontir va shunga o'xhash o'yinlarga qiziqishi ancha yuqori). Pedagoglar integratsiyalashgan darslar tashkil qilishi va har bir o'quvchi bilan do'stona suxbat qurib turishi maqsadga muvofiqdir.O'quvchilarning psixologiyasi bir muncha murakkab bo'lib ularning har biri bilan til topishish mushkul ishdir.Bu ham pedagoglarning hozirgi kundagi muammolaridan biridir.Hozirgi mакtab o'quvchilarini oldingi zamon o'quvchilari bilan taqqoslaganimizda hozirgi mакtab o'quvchilarining fikrlash darajasi anchayin ilgarilab ketgan. Shu bilan birga hozirgi ota-onalar ham bundan mustasno emas.Misol uchun o'tgan o'n yilga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'sha paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari ichida o'zlashtirishi qiyin bo'lganlari bilan darsdan so'ng qo'shimcha mashg`ulotlar o'tilar edi.Ota-onalar ham bu holatga ijobiy baho berib keying safarlarda bunday holatlarni oldini olish maqsadida farzandi bilan ko'proq shug`illanishar edi.Hozirgi paytda esa bunday holatlarni kuzatish anchayin mushkul.Ota-onalar ham farzandi nohaq bo'lsalar ham pedagog xodimni tarbiyasizlarcha xaqoratlab ketishadi. Ko'pchilik pedagoglar ham o'quvchilarga tabaqasiga qarab muomala qilishadi.Ota-onasining nasl-nasabiga qarab o'quvchilarga muomala qilishlari bu o'rtaxol va kam ta'minlangan oila farzandlarining kelajakdagi orzulariga erishishiga to'sqinlik qilishi va o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yishi mumkin.

Natija

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish o'qitishning innovatsion texnologiyalarni joriy etish mustaqillik ijodkorlik tashabbuskorlik tadbirkorlik kabi kasbiy sifatilarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega sazovor ishlar amalga oshirilmoqda lekin tahlil va o'rganish natijalari hozirgacha ta'lim tizimida saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko'rsatmoqda masalan:

Ta'lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi ularni tayyorlashda amaliyatga joriy etilgan o'quv reja va dasturlarning yaratilishida sohadagi islohotlar to'liq inobatga olmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g'oyalarini amaliyatga tadbiq etishda tizimli va innovatsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi,

pedagoglar tamonidan ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi pedagoglar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyatga keng joriy etilmasligi ta'lim muassasalarini o'rtaida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi o'quv mashg'uloti ta'lim oluvchilarga bahslashish o'zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi ayrim mashg'ulotlarda pedagoglar eski ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi shular jumlasidandir.

Ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etishning asosiy yechimi bu o'quvchi yoshlarda ularni jalgiitadigan ijtimoiy tarmoqlar va telefonlar va yana shunga o'xshash narsalarni ularga bermaslik ularning aqlu xayoli va fikrini asosan o'qish bilim olish bilan mashg'ul qilish lozim. Hozirgi kunda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi juda ham pasayib ketmoqda ularni asosan kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yuqori qilmoq lozim buning uchun ota-onada va pedagog birgalikda kelishib harakat qilmoqligi kerak o'quvchiga ko'proq kitob o'qishi uchun shart-sharoitlar va ularni qiziqtira oladigan kitoblardan tavsiya bermoq kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda, talaba yoshlarni ilm fanga qiziqtirishni usullar juda ko'p, lekin biz shu usullarni amaliyatga joriy qilsak samarali natija beradi. Bundan tashqari talabalarni jalb qilishda institut va universitetlarni dizayniga ham urg'u berish muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- 2.To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2006
- 3.Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009.
- 4.Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: Fan, 2006.
- 5.To'raeva O., Xoliqberdiev K., Pedagogika (darslik) –T: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008 yil.
- 6.Mavlonova R.A. va boshqalar. Pedagogika (darslik). T: “O‘qituvchi” nashriyoti. 2002.

HOZIRGI KUNDA PEDAGOGIKA SOHASIDA QO‘LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY METODLAR

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi**

Annotatsiya: Maqolada ta`lim samaradorligini oshirish maqsadida pedagogika sohasida qo‘llanilayotgan zamonaviy metodlardan foydalanish haqida.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy metodlar, ta’lim,tarbiya, an'anaviy ta’lim,metodlar,guruh,baholash,pedagog,islohot, dastur, talab, jamiyat.

KIRISH

Ta’lim oluvchilar bilimi, ko‘nikmasi va malakalari zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lishini ta’minalash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas’uliyatlidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga

hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”22 degan

da’vatlari ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga

ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim maktablarida joriy qilish muhimligini ta’kidlandi.

Ana shu maqsadda o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlarini keng qo’llash zarurati mavjuddir. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan

boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta’lim beruvchilar mazmunli va sifatli ta’lim jarayonini tashkil qilishlarida axborot manbalaridan ya’ni Axborot

kommunikatsion texnologiyalar (AKT) imkoniyatlaridan,

Axborot- resurs markazlari (ARM) elektron o‘quv bazalaridan, mahaliy va xorijiy o‘quv, uslubiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalana olishlari muhimdir. Ta’lim tizimi oldiga

qo‘yilgan vazifalarni bajarish, talabalarning mustaqil ravishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi, ularning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirish, ularda ijodiy faollikni tarbiyalash ko‘p jihatdan ta’lim beruvchiga bog‘liq bo‘ladi.

«Metod» — yunoncha «metodos» - «yo‘l» degan so‘zdan paydo bo‘lib, u tadqiq qilish ma‘nosini anglatadi. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta’lim metodlari – o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish yo‘llarini bildiradi. O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta’lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta’lim metodio‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo‘lidir.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta’lim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha birbiriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi. “Davra suhbati” metodi:

“Davra suhbati” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. [Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. 2004]

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqalima’lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

“Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo‘ladi, shu

jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi.

Muhokama Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish maqsadida turli xil zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish ko‘proq natija bermoqda. Zamonaviy ta’lim metodlari

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

bolani darsga qiziqishini oshirib ta’lim olish darajasini yaxshilab beruvchi jarayon hisoblanadi. Ya’ni zamon bilan hamnafas zamonaviy metodlar hozirgi ta’lim jarayonining talabi ham bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim metodlari asosan qiziqarli o‘yinlar, turli topshiriqlar, mantiqiy yondashishlar, teran fikrlarni shakllantirib beradi. Bu metodlardan foydalanish yangi marralarni egallahdek gapdir. Asosan yurtimiz an’anaviy ta’lim metodlaridan hozirgi kungacha foydalanib kelmoqda va bu metodlar dars jarayonini zerikarli o‘tishiga, bola diqqatini chalg‘ishiga, o‘quvchi darsda bemalol o‘z fikrini bildira olishi qiyinlashishiga olib keladi. Bu narsalar esa hammani dars davomida baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Xullas an’anaviy va zamonaviy ta’lim metodlarini dars davomida birdek qo‘llash darsni ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tishiga yordam beradi.

Natija Zamonaviy ta’lim metodi sifatida ko‘p qo‘llaniladigan **O‘yin** metodi dars jarayonini qiziq o‘tishini ta’minlovchi va bolalarga shu yil bilan ta’lim tarbiya beruvchi metod hisoblanadi. Asosan bu metodni boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilarga qo‘llash ularni darsga qiziqishini oshiradi. Natijada bolalar berilgan vazifani o‘z vaqtida bajarib kelishadi. Undan tashqari **Aqliy hujum** metodi, bu metod bolani erkin fikrlashiga va muammoni anniq qilib yechishiga yordam beradi va bola dars davomida o‘zining fikrlarini bemalol bildira oladi. Zamonaviy ta’lim metodlari bolani aqliy qobiliyatlarini oshirib beruvchi metodlar sirasiga kiradi

Xulosa Xulosa qilib aytganda ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metodlar orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zları bergen savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergen javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’yektiv baholashi mumkin.

Bo‘lajak pedagoglar hozirgi zamon talabiga mos tarzda bilim berish uchun zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ta’lim oluvchini ham, ta’lim beruvchini ham doim izlanishda bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1 . Shavkat Mirziyoyev Miromonovich “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent 2017
- 2.Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. Qo‘ll.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: Nizomiy Nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.


3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

4. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va Qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

5. B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti ” Toshkent -2017 92-96-betlar.

6. G ’aybullaev N.R., Yodgorov R, M amatqulova R, Pedagogika. O ’quv qo’llanma. - T .: O ’ZMU, 2005

7. F.U. Haydarov, N.I. Xalilova “Psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi” Toshkent 2007-yil 98- bet.



**Research Science and
Innovation House**

Pedagogikadagi muammolar va ularning yechimlari

**Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakuliteti pedagogika yo‘nalishi
1-kurs talabasi
Pirnayeva Umida Xoldor qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogikadagi muammolar va ularning yechimlari , pedagoglar faoliyatida muammolar yechimlarini amaliy qo‘llash usullari haqida .

Kalit so‘zlar: pedagogika, pedagog, ma’naviyat, ta’lim, metod, texnologiyalar, mafkura.

Kirish

Ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o’rgatish ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki, insonning ma’rifatli bo‘lishi va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi. Ma’lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta’lim-tarbiya sohasidagi sifat o‘zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta’limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o‘rnini qay darajada topayotganligiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik ko‘proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog‘liq bo‘lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo‘ladi. Shunday asoslarda ta’lim-tarbiya berish bo‘lajak mutaxassislarini yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo‘lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta’lim-tarbiya jarayonini ilm-fan va texnika-texnologiyalaming eng so‘nggi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta’kidlaydi.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, u o‘zining nazariy, milliy va amaliy asoslariga ega. Pedagogika fanining nazariy asoslari: pedagogika fanining nazariy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

asoslari inson aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy tajriba, ilmiy-tadqiqotlarga doir nazariy va metodik manbalarga, o‘rta Osiyo va jahon ma’rifatparvar, mutaffakkir olimlarning asarlariga suyangan holda barkamol shaxsni tarbiyalash, o‘qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Pedagogika fanining milliy asoslari: pedagogika fanining milliy asosi ta’lim muassasalarini har bir millatning milliy merosi bilan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni bog‘lagan holda amalga oshiradi. Pedagogika tajribalarni umumlashtirish, uning yutuqlarini amaliyotga qo‘llash, pedagogika fanining va maktabdagi o‘quv tarbiyaviy jarayonlar samaradorligiga ta’sir qiladi. Hozirgi kunda pedagogika fani faqat yosh avlodni shakllantirish uchungina muhim bo‘lib qolmay, balki uning roli jamiyatning hamma sohalarida muhim bo‘lmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda yoki xalq xo‘jaligining biror bir sohasida kompleks tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llamasdan turib biror bir natijaga erishish mumkin emas. Jamiyatda juda ko‘p umumiy, iqtisodiy va tashkiliy muammolar bir vaqtda u yoki bu jihatdan tarbiyaviy muammolar ham bo‘lib qolmoqda. Hozirgi davrda pedagogikaning metodologik muammolari ayniksa o‘tkir tus oladi. O‘zbekiston Respublikasining istiqloli munosabati bilan istiqlol mafkurasi shakllandı. Xalq ta’limi tizimi yaslidan boshlab, oliy o‘quv -tarbiya muasasalari boshqarmalarini rivojlantirish sohasida kompleks tadbirlar ishlab chiqishni, o‘quv tarbiya ishlari darajasi hozirgi davr talabi asosida yaxshilashni, ta’lim metodlarini takomillashtirishni, pedagogik kadrlar malakasini oshirishni va ularni tayyorlashni davr talabi asosida yaxshilashni talab etadi. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishi, ko‘p tomonlama o‘qituvchilarning pedagogika fani arboblari va xalq ta’limi organlarining umummetodologik tayyorgarligiga bog‘liq. Hozirgi taraqqiyot tarbiyaning muhim masalalarini birinchi planga qo‘ymoqda, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, ta’limning mazmunini milliylashtirish, uni takomillashtirish, ta’limning tashkiliy shakl va metodlarini takomillashtirish, nazariy va amaliy masalalarini hal qilishga yangicha yondashish, metologik muammolar ustidako‘proq fikr yuritishni talab qilmoqda. Umumiy ma'lumot muammosi hozirgi davrdagi eng muhim muammolaridan biridir, bu uning hozirgi davr talabiga javob berishi milliyligi, umuminsoniy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilish, o‘quv materiallarini tashkil qilish va tanlash prinsplariga mos bo‘lishi kabilardir. Bular ilmiy bilimlarning ko‘payib borayotgan hajmi bilan mакtabda ularga o‘rganish sharoitlari o‘rtasidagi ziddiyatni yo‘qotishga yordam beradi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

A.M.Novikovning ta’kidlashicha, pedagogiktadqiqot muammosi mantiqan o‘rnatilgan qarama-qarshilikdan sizib chiqadi: faqat fanga oid, ilmiy bilimning yassiligiga olib o ‘tilgan, fan tilida ifodalangan jihatlardangina ajratib oiniadi. Qarama-qarshilik yechimining dastlabki sharti-vositasi ishlab chiqilganda, variant mavjud bo‘ladi. Ilmiy ish bilan amaliy masalani ajratib olish muhim. Amaliy masaladan ilmiy muammoga o‘tish uchun, ikki tartibni amalga oshirish kerak: berilgan amaliy masalani echish uchun qaysi ilmiy bilimlar kerakligini aniqlash; ushbu bilimlar fanda borligini aniqlash; agar bilimlar bor bo‘lib, ularni tanlab olish, tizimlashtirish, foydalanish zarur bo‘lsa, u holda ilmiy muammoning o‘zi mavjud emas; agar kerakli bilimlar yo‘q bo‘lsa yoki to‘liq boim asa, muammo yoki muammolar majmui yuzaga keladi.

Xodjayev o‘zining "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" darsligida shunday deydi: "Ta’lim-tarbiya jarayonining tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyati pedagogik ilmiy tadqiqotlaming metodologik asosi, yo‘riqnomasidir. Faqatgina pedagogik merosni, ta’lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini o‘rganish emas, pedagogik ilmiy tadqiqotning barcha yo‘nalishlari tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyatiga asoslanadi. Har bir masalaning rivojlanish bosqichlari bo‘yicha ilmiy, ommabop adabiyotlami o‘rganmasdan tadqiqotni amalga oshirib bo‘maydi.

Muhokama

Ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvalli va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qoidaga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanadaoshadi. Ammo, har bir bolaning o‘z iqtidori, dunyoqarashi, qiziqishi mavjud. Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tariba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlaming maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgarí surilayotgan tavsiyalarning amaliyot-da o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydal añilad i. Muayyan muammo echimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur

Natija

O‘quvchilarda tarixiy tafakkuming rivojlanganlik holatini aniqlash quyidagi darajalar asosida tahlil etildi: yuqori - o‘quvchi tarixiy voqeа sodir bo‘lgan vaqt, voqelikni sodir bo‘ush vaqt bilan bogiiqlikda uni ketma-ketligi va davomiyligi haqida aniq tushunchaga ega; Vatanimiz jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslary oladi; tarixiy voqeа sodir boigan joyning nomi, voqeani mazkur hududda sodir bo‘lishi sabablarini tushuntirib bera oladi; voqeaning Vatanimiz tarixi bilan aloqadorligini baholay oladi; voqeaning sodir bo‘lish sabablari, voqeada ishtirok etgan shaxslar haqida toiiq ma’lumotga ega; voqeaningmahamiyatini toiiq baholay oladi; o‘rta - o‘quvchi tarixiy voqeа sodir bolgan vaqt, voqelikni sodir boiish vaqt bilan bog‘liqda uning ketma-ketligi va davomiyligi haqida tushunchaga ega; Vatanimiz va jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslary oladi; tarixiy voqeа sodir bolgan joyning nomi, voqeani mazkur hududda sodir bolishi sabablarini izohlaydi; voqeaning sodir boiish sabablari, voqeada ishtirok etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega; voqeaning ahmiyatini baholay oladi; quyi - o‘quvchi tarixiy voqeа sodir bo‘lgan vaqt haqida tushunchaga ega; tarixiy voqeа sodir bo‘lgan joyning nomini biladi; voqeada ishtirok etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega, biroq voqelikning yuzaga kelish sabablari va uning ahmiyatini tushuntirib berishda qiynaladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak hozirgi kunda pedagogikadagi muammolar eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Aynan shu muammolar va ularning yechimlari hozirgi davrda ham tadqiq qilinmoqda. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish. unga asosianib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o‘quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o‘zgarish]ar kiritadi, o‘quvchilarining bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdagи o‘quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo‘ladi. Pedagogik tajriba o‘qituvchining o‘quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalari yig‘indisidir. Pedagogik tajribani to‘plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi. Pedagogik tajribani to‘plash tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

topadi:

1. Maqsadni belgilash.
2. Muammolarni to‘plash.
3. Muammolarni tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.
4. Yutuqlarni aniqlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” //Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq” nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
- 2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (derslik) –T; “Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil.
3. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (derslik).2018
4. Kayumova M., Xakimova M., To‘rabekov F. Ta’lim va o‘rganish nazariyasi //Архив научных исследований. – 2022. – T.
5. Kayumova, Mekhribonu, Muhabbat Xakimova, and Farxod To‘rabekov. "Ta’lim va o‘rganish nazariyasi." Архив научных исследований 2.1 4. Kayumova, M., Xakimova, M., & To‘rabekov, F. (2022).

**Research Science and
Innovation House**

Ta’lim sohasida tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlash usullari

**Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakuliteti pedagogika yo‘nalishi
1-kurs talabasi
O’ktamjonov Davlatjon Zohidjon o‘g‘li**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim sohasidagi tarbiyasi og‘ir bolalar, shu bilan birga tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlash hamda ishlash usullari, yo‘llari va chora-tadbirlar haqida .

Kalit so‘zlar: pedagog, tarbiya, ta’lim, tarbiyasi og‘ir, muloqot, tarbiya, dunyoqarash, tajriba, mulohaza.

Kirish

Tarbiyasi og‘ir bo‘lgan bolalar — ota-onalar va pedagoglarning doimiy bosh og‘rig‘i hisoblanadi. Ko‘pchilik hollarda bolalarning yomon xulqini ota-onalarning bunga bo‘lgan munosabatlarining asl sababini ko‘rib chiqish yo‘li bilan yengishga muvaffaq bo‘linadi. Maktab ijtimoiy pedagogikasining asosiy muammosi tarbiyasi og‘ir bolalar hisoblanadi.Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo‘ladi va oxir oqibat o‘zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo‘linadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to’garagi bo’lishi mumkin.Ota-onsa o‘z farzandiga yosh bolaga bo‘lganday qarashadi, bola esa bu g‘amxo‘rlikdan chiqib ketmoqchi bo‘ladi. SHuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko‘p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o‘zgaradi: bo‘ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o’tmoqchi bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida tengdoshlar bilan ham o‘zaro munosabatlarning xarakteri o‘zgaradi.

Tarbiyasi og‘ir bolalar jismoniy jihatdan sog‘-salomatdirlar, biroq ularning ta’lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o‘z tengdoshlaridan o‘qishda ortda qoladilar, chunki ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan. Ular o‘zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o‘zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug‘ullana olishmaydi. Tarbiyasi og‘ir

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

o'quvchilar ar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-onal bilan nizolashadilar. Shu kabi jarayonlar tufayli ular maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb biliшadi, ular daydilik qilishi, spiritli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilaigan huquqbuzarliklar sodir etadigan xavfli shaxsga aylanishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tarbiyasi og'ir" bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S Vigotskiy fikricha, "og'ir" bola hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarini berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Shuni aytish lozimki, "tarbiyasi og'ir" bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.

Tarbiya jarayoning samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlar tarbiyali bo'lim – bu xulq – atvorini nazorat qilishdan iboratdir: Bunday nazorat inson yomon hatti-harakatlarini bajarmaslik imkoniyatini beradi.

Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi. Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvini o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingen natijalarga asoslanadi: Bola o'zini egosentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z muhitiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishdir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sferasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos.

Konfutsiy "Eskin o'zlashtirgan, yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi." degan edi. Hamma kishilar ham bir xilda bo'lmaydi, shuningdek, oilalar ham turlichadir. Shubhasiz bolalar ham bir biriga o'xshamaydi. Bu tabiiy hol. Lekin ko'pincha kattalar buni unutib qo'yadilar, o'zlaricha qandaydir umumiyl tavsiyalardan yordam ko'rishga moyil bo'ladilar va bunda: "bola... bajarishi kerak", "bolaga mumkin emas" kabi so'zlarni ishlata dilar. Bu esa xato. Bola avval boshidanoq hech narsani bajarishga majbur emas, unga hech narsa joiz ham emas. Aksincha, kattalar bolaning meyorida rivojlanishi uchun sharoit yaratishlari, uni kishilar orasida yashashga o'rgatishlari, ularning his-tuyg'ularini, xohish-istikclarini va ishlarini tushunishlari lozim. Vaqt o'tishi bilan, payti kelganda uning o'zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nima qilishga majburligini, kimning oldida qarzdorligini va

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

bu qarzlarni boshqa kishilarga o‘z ota-onalariga, do’stlariga va nihoyat, o‘z bolalariga nisbatan mexr-muhabbat, mexribonligi bilan uzishni tushunib oladi.

”

Muhokama

Ta’lim sohasida tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar tarbiyasi mavzusi — benihoya keng, ko‘pqirrali, ko‘p qatlamlı va oddiy odamlar tomonidan qabul qilinishi juda qiyin. Tarbiyasi og‘ir bo‘lgan bolalarning ota-onalariga muammolarini hal qilishda yordam beruvchi asosiy qoidalalar zarur bo‘ladi. Bunday qoidalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

—Bola o‘zini yaxshi tutgan paytlari har doim uni ko‘proq maqtang. Bu uning quvonch bilan har doim siz ma’qullaganingizdek o‘zini tutishga harakat qilishiga yordam beradi.

—Agar bola injiqlik qilsa va o‘zini noto‘g‘ri tutsa bolaning shaxsini muhokama qilmang! Uning aynan shu lahzadagi xulqini muhokama qiling. Shunday qilsangiz bola o‘zini hurmat qilishlarini, yaxshi ko‘rishlarini, lekin hozirgi qilgan ishi noto‘g‘ri ekanligini tushunadi.

—Har doim farzandingizning yoshini va rivojlanishini hisobga oling.

—Boladan so‘rayotgan talablaringiz mantiqiy bo‘lishi kerak.

—Nojo‘ya ish uchun beriladigan jazolarning vaqtłari izchil bo‘lishi kerak.

—Bolani jazolashda o‘zingiz xotirjam bo‘lishingiz kerak.

—Bola gapga qulq solmasdan injiqlik qilayotganda gapingiz ohangi va taxlitiga e’tibor bering — o‘zingiz siz bilan shu yo‘sinda gaplashishlarini xohlarmidingiz?

— Har doim bola sizni tushunayotganiga ishonch hosil qiling.

Natija

Tarbiyasi og‘ir” o‘quvchilarning uchta asosiy guruhini va tegishli ravishda ular bilan olib boriladiga tarbiyaviy ishning uch yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishga harakat qilamiz. Birinchi guruh – tarbiyasi og‘irligini “o‘tish davri” ning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan o‘quvchilar. Hayoti va tarbiyasining noqulay sharoitlarida ba’zi bolalarda krizis, ya’ni jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishdagi jiddiy o‘zgarishlar davrida qiyinchiliklar paydo bo‘lishini sezish qiyin emas. Bu davrda bola va o’smirning rivojlanishi ikki xususiyat: intensiv va notekis rivojlanish bilan harakterlanadi. Mana shuning uchun ham bolaning jismoniy, psixik

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

va ijtimoiy rivojlanishida to'xtalish, xatto nomutanosibliklar bo'lishi mumkin. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, jismoniy rivojlanishidagi chetga chiqishlar psixik omil sifatida ham namoyon bo'ladi va jismoniy nosog'lom bolalarning emotsional holatiga ta'sir etadi. Bunday bolalarning psixik rivojlanishida ham chetga chiqish kuzatiladi: psixikaningayrim funksiyalari notejis rivojlanadi yoki rivojlanishda orqaga qoladi, surunkali psixik kasalliklar, yomon irsiyat, nevroz, psixozisteriya xastaligi, nevrasteniya va hakozo. Bularning hammasi bolalarning xulq-atvorida tajovuskorlik, dag'allik, qo'pollik, urishqoqlik, o'y-hayolga botish, loqayd bo'lib qolish, beparvolik paydo bo'lishida ifodalanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda , xilma-xil voqeа hodisalardan turlicha emotsional ta'sirlanish; voqeа va hodisalarni turli xilda idrok qilish; turli xildagi jazava xolati. Shuningdek g'amginlik, xafalik, loqaydlik, kek saqlash, darg'azab bo'lish, yig'loqilik, o'zining emotsional holatini boshqara olmaslik, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining betayinligi, yaqin kishilarga nisbatan beparvolik, mehr-muhabbat va yaqinlik tuyg'usining yo'qligi.Yuqorida ko'rsatib o'tilgan chetga chiqish turlari bolalarning insonning rivojlanishiga, uning boshqa kishilar bilan bo'ladigan aloqalariga, o'smirlik yoshiga xos bo'lgan xilma-xil faoliyat turlariga kirishishning muvaffaqiyatli yoki muvofaqqiyatsiz bo'lishiga ta'sir etadi. Bu chetga chiqishlarning paydo bo'lishiga asos bor. Oilada ota yoki onaning yo'lqligi, bolaning yolg'iz ota yoki yolg'iz onaning tarbiyalashi, tashqi o'quv-tarbiya muassasalari ta'sir yo'qligi bunday sabablardan hisoblanadi. Bularidan tashqari tarbiyaviy ta'sirning omillari: ota-onalarning ichkilikbozligi va axloqsizligi, madaniy muhitning yo'qligi, bolalarni huquq normalariga zid faoliyatga jalb etish, ularni huquqlarini poymol qilish, bolalarga jismoniy va psixik zulm o'tkazish, tengdoshlarining salbiy ta'siri, mакtab va oiladagi "tarbiyaning g'ayri pedagogik" metodlari ham bor.O'quvchilarni pedagogik qarovsizlik sabablarini xali yosh, sharoitlar yomon, axir odam tarbiya ko'rmay o'sadida qabilidagi ochiq-oydin talqin qilishdan ogoh bo'lish qilish lozim. Hamma narsa bolaning muxitining ijobiy va salbiy ta'sirlarini qanday idrok qilishga bog'liq. G.A.Fortunatov shunday deb yozgan edi: "bolaning harakteri faqat muhitning ta'siri ostida rivojlanmaydi, balki bolaning munosabatlari o'z muhitida qanday shakllanganligi, u shu muhitda nimalarga qiziqishiga ham bog'liq bo'ladi... Agar bir bolada ichkilikbozlik, beadablilik va sho'xliklar qiziqish uyg'otsa, boshqasida ular qo'rquv, vahima, jirkanish yoki nafrat va qarshilik xissini uyg'otish mumkin" .

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Pedagogik qarovsiz qarovsiz bolalar va o'smirlarning belgilarini ancha bat afsil ta'riflagach, shuni ta'kidlaymanki, bu tarbiyasi qiyinchilikning ancha murakkab tipi. Bolalar bu nuqsonni yengib o'tish uchun maxsus yondashuvga, aynan qayta tarbiyalashga ehtiyoj sezadilar. Bu jarayon esa bola shaxsining uch sohasiga: ongiga, axloqiga va emotsiyal-irodaviy sohalariga uzoq vaqt davomida pedagogik ta'sir ko'rsatishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
- 2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T: „Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil.
3. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (darslik).2018
4. Kayumova M., Xakimova M., To'rabetkov F. Ta'lim va o'rganish nazariyasi //Архив научных исследований. – 2022. – Т.
5. Kayumova, Mekhribonu, Muhabbat Xakimova, and Farxod To'rabetkov. "Ta'lim va o'rganish nazariyasi." Архив научных исследований 2.1 4. Kayumova, M., Xakimova, M., & To'rabetkov, F. (2022).

**Research Science and
Innovation House**

O‘qituvchi va ota-onalar hamkorligining zamonaviy ko‘rinishlari

**Guliston davlat pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti pedagogika
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Abduvaliyeva Maftuna G‘ulom qizi**

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tarbiya jarayonida o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligining zamonaviy ko‘rinishlari ,hamda ularning natijalarini bilish usuli yotadi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, ta’lim-tarbiya, pedagog, texnalogiya, ota-onalar, hamkorlik, psixologik.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda asosiy e’tibor yoshlarning ta’lim tarbiyasiga qaratilgani barchamizga ma’lum. Talim va tarbiya jarayonini tashkil etish, bolani ongini rivojlantirish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir. Hozirda zamon shiddat bilan o‘sib borayotganligi sabab bolalar o‘qituvchidan ta’lim olishdan ko‘ra ko‘proq yangi texnologiyalarga bog‘lanib borishmoqda. Bu esa, qaysidir tomonidan yaxshi, ammo talim sifat darajasini yaxshilash uchun o‘qituvchining o‘rni muhimdir. Ana shunday vaziyatlarda o‘qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda baravar ish olib borishlari zarur. Muhtaram prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan „Najot-talimda, Najot-tarbiyada, Najot-bilimda.Chunki,barcha ezgu maqsadlarga ta’lim va tarbiya natijasida erishiladi”.Singari g‘oyalar asosida olg‘a intilmog‘imiz kerak.Mana shunday talim olish jarayonida nafaqat o‘qituvchi balki ota-onalar ham birdek yondashishlari kerak.o‘qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishlari maktab pedagogik jamoasi faoliyatining murakkab va muhim qismi sanaladi. O‘qituvchining ota -onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi tarbiyaviy ishlarning alohida yo‘nalishi bo‘lib ,bunda sinf rahbari bola shaxsining shakllanishiga qaratilgan maktab va oilaning hamkorlikda ishlash strategiyalari va taktikalarini ishlab chiqadilar.Buning uchun o‘qituvchi pedagog sifatida ota-onalar bilan individual yig‘ilishlar o‘tkazish orqali faoliyat olib borishi zarur.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya

O‘qituvchi va ota-onalar hamkorligi asosida shakllangan jamoa, o‘quvchining individual o‘sishiga ko‘maklashadi. Misol uchun:o‘qituvchi darsdan tashqari holatlarda ota -onalar bilan yuzma – yuz holatlarda suhbatlar o‘tkazishi; online guruhlar tashkil etib,farzanding o‘zlashtirish holatini aniqlashi, ota-onalar ham o‘qituvchining nazorati ostida bo‘lishi, farzandida kechayotgan o‘zgarishlardan bohabar bo‘lib turgan holatlarda o‘qituvchidan maslahatlar olib turishi lozim.o‘qituvchi sinf rahbari sifatida Ota -onalar bilan olib boradigan ishlari g‘oyat keng,ko‘pqirrali bo‘lib, bu ishlar sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi,aksincha turar joylardagi va o‘quvchining ota -onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo‘lishni taqazo etadi. R.Mavlonovaning „ Pedagogika “ kitobida, hozirgi vaqtida ota-onalar bilan ishslashning zamonaviy shakllari keltirib o‘tilgan .

- Ota -onalar yig‘ilishi.
- Suhbatlar.
- Ochiq eshiklar kuni
- Savol -javob
- Ota -onalar uchun konsertlar
- Ko‘rgazmali metodlar bilan ishslash
- Dam olish kunidan keyin ota -onalar bilan ishslash soatini tashkil etish.

Ota -onalar bilan hamkorlikda ishslashda, ota-onalarga psixologik, pedagogik, metodik bilimlar berish ,sinf rahbarining o‘quvchilar bilan olib boradigan ishlariga ota -onalarni jalb etish, bazi bir o‘quvchilarning oilasiga korrektirivkalar kiritib borish, pedagogik taktikalarga amal qilgan holda maktab tomonidan tashkil etiladigan o‘quv tarbiyaviy ishlarning mazmuni bilan ota-onalarni tanishtirish kabi funksiyalarni bajarishi ko‘zda tutiladi.

Muhokama

Globallashuv zamonida yashayotgan ligimiz ,talim va tarbiya sifatining ham shiddat bilan o‘sib borayotganligi sir emas, albatta. Bugungi kunda bolalarning talim darajasini yaxshilash, o‘sib kelayotgan kelgusi avlodni ham zamonga moslashtirgan holda tarbiya topishi ham bizning qo‘limizda. Aniq qilib aytganda o‘qituvchi pedagogning mas’uliyatli vazifasidir.o‘qituvchi bilan ota-onalar hamkorligi ham muhim sanaladi.Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan jamiyatda yashayotganligimiz sababli o‘qituvchilar maxsus individual yig‘ilishlarni qisman

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

kamaytirishmoqda desam adashmagan bo‘laman. Negaki, ota-onalar farzandi uchun vaqtini sarflashmaydi ularning ta’lim olishi bilan deyarli qiziqishmaydi,farzandini ham moddiy va ma’naviy tomondan ta’minlasam shuni o‘zi kifoya deb o‘ylashadi.maktabdagi tadbir uchrashuvlarda deyarli kam ota -onalar ishtirok etishadi. Bularning barchasida kim aybdor degan savol yuzaga keladi, e’tiborsiz ota -onalar va o‘qituvchi,yoki ta’lim sifatining qadrsizligimi? O‘qituvchi bilan ota-onalar uzviy hamkorlikda bo‘lishi kerak.Bu albatta o‘qituvchining mahoratidan kelib chiqqan holda yuzaga keladi.

Natija

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan „yoshlar-kelajagimiz poydevori “shioriga asoslangan holda yoshlarning ta’lim tarbiyasiga e’tiborni qaratsak ko‘zlagan maqsadga erishgan bo‘lamiz.Bunda avvalo o‘qituvchi bilan ota ona hamkorlikda faoliyat yuritishlari kerak.Bolalarning darsdan bosh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun sharoit yaratib berish darkordir. Turli amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish ,shashka ,shaxmat to‘garaklari, til kurslariga jalb etish,rag‘batlantirish asosida o‘qish faoliyatini yaxshilash, individual psixolog o‘qituvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishda ota -onalar ham birdek yordam berishlari zarur. Ayniqsa ota-onalar bilan o‘qituvchi doimo muloqotda bo‘lib turishlari,farzandida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni o‘zida his etishlari darkordir. Ota onalar ham farzandi bilan yuzma yuz holda muloqotda bo‘lib ularni eshitishi kerak. O‘qituvchi bilan hamkorlikda online kurslar tashkil etishlari zarur.ota onalar psixologik treninglarda farzandlari bilan qatnashishlari kerak. Avvalo O‘qituvchi ota-onalar bilan muloqot jarayonida ota-onalarga metodlarni o‘rgatishi kerak.Misol uchun: Haqiqatni aniqlash va bolaning axloqini genetik tahlil qilish metodi .Bu shunday metodki, bunda ota-onalar hamma narsani tushinib olish ,to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun haqiqiy voqealarni, bola yo‘l qo‘ygan nojo‘ya ishning haqiqiy manzarasini aniqlashdan iboratdir. Ota-onalar o‘xhash voqeа, hodisa, ishlarni esga oladilar va bolaning xulq atvorigagi tipik belgilar asosida sodir bo‘ladigan voqeanning va o‘z vaqtida chora ko‘rilmasa ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqeа hodisalarning aniq manzarasini ko‘z oldiga keltiradilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining asosiy faoliyati o‘quvchining sinfda tarbiyalanishini tashkil etishdan hamda ota-onalar bilan ishlash va o‘zidagi ko‘p qirrali tarbiyani namuna sifatida ko‘rsata olishdan iborat. Ota-onalar bilan o‘qituvchi doimiy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

hamkorlikda bo‘lib,bolaning yetuk inson bo‘lib kamolga erishishida yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida harakat qilsalar, ko‘zlagan maqsadimizga albatta erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyeva „ Pedagogika “.Toshkent „O‘qituvchi” 2001.
2. Norposhshaxon Vohidova, Farag‘otxon Mirzayeva „ Ijtimoiy Pedagogika “Toshkent 2021.
3. Z.Nishanova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev, Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.,, Tafakkur bo‘stoni” Toshkent 2011.
4. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G‘.Turg‘unboyeva, M.X.Asranboyeva Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.Toshkent-2017.
5. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich „ Buyuk Kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz “ Toshkent 2017.



Research Science and Innovation House

O‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash usullari

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1- kurs talabasi
Abdurahmonova Munira Asqar qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash usullari o‘quvchilarning faolligini oshirish ularning o‘z tengdoshlari qatoriga yetib olishni ta‘minlash haqida.

Kalit so‘zlar: past o‘zlashtiruvchi, mustaqil ish, dars pedagog, sifatli, zamonaviy texnologiya, vazifa, fan, ta’lim, tarbiya, ziyrak,

Kirish

Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida ta’limga uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg‘otish lozim. Mustaqil ish turlari, avvalo, o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta’lim maqsadiga yo‘naltirilgan va davomiy bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan ta’lim maqsadiga yo‘naltirilgan va davomiy bo‘lishi kerak bunday har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi yosh xususiyati qiziqishlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak o‘quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to‘la eslab qolib bajarishdir bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan tasavvur qilgan holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uning tuzata bilishlariga alohida e’tibor beriladi.

Dars sifatini oshirish maqsadida boshqa tumandagi olis mактабга borib, dars beradigan yosh o‘qituvchilar oyligiga ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, yoshlarning chuqur bilim olishini ta‘minlash maqsadida o‘tgan yillarda 98 ta ixtisoslashgan mактаб tashkil etildi. Har bir hududda Prezident maktablarining tashkil etilishi ham iqtidorli va barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Yangi O‘zbekiston yoshlari tashabbuslari” jamg‘armasi va elektron platformasi tashkil

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

qilinishi belgilandi. Jamg‘armaga 100 million dollar yo‘naltirilib, bu mablag‘lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g‘oya, startap va loyihalariga qulay va yengil shartlarda, zarur bo‘lsa foizsiz ajratiladi. Past o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar uchun shunga o‘xshash ko‘plab imkoniyatlar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Rizayeva Maftunaxon Abdumannop qizi o‘zining " Past o‘zlashtirayotga o‘quvchilar bilan ishslash" nomli maqolasida quyidagilarni keltirgan: — Bosh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishslashga o‘rgatish yaxshi samara beradi mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozir javob qiladi bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarda ta‘limga uyqun holda rivojlanishi kerak buning uchun avvalo o‘quvchilari mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash ular da biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishga ishonch uyg‘otish lozim. Intizor Jumaniyozova o‘zining maqolasida : — O‘quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli bajarishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvuri yorqin, so‘z boyligi yetarli emas. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘qituchi rahbarligida ishlaganda, tezroq mulohaza qiladilar. Bu holga o‘rganib qolmasliklari uchun ko‘proq ularning o‘zini mustaqil fikrlashga da’vat etish lozim. O‘quvchilar e’tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega shunday bo‘ldi? Seningcha qanday bo‘lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma’qullab, “yana o‘ylasang topasan”, “juda yaxshi”, “juda soz!” kabi rag’batlantiruvchi so‘zlarni ishlatish foydalidir.

Orazbayeva Gulparshin o‘zining "Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishslash" nomli maqolasida keltirgan: —O‘quvchilar bilim sifatini oshirishhamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqaritarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni otkazish. Oquvchilarning ota - onalaribilan olib boriladigan ishlar ham sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.Oquvchilar jamoasi - sinf rahbarining tayanchi. Oquvchilarni tarbiyalashda sinfjamoasidagi barcha oquvchilarning bir-birlariga ta’sirlari katta ahamiyatga ega.Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mammun bo‘lsa, uning qiziqishlari ortib,yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin.Bola yozishidan oldin o‘yaydi, fikrini og‘zaki jamlaydi, so‘ng uni yozishgakirishadi. O‘z fikrini bayon qilish, yo‘l qo‘yilgan biror savol yoki masalayuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (og‘zaki) nutq asosida paydobo‘ladi va mustahkamlanadi.

Muhokama

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga qabul qilingan o'quvchiga dars beradigan o'qituvchilarga juda katta ma'suliyat yuklangan bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari bir o'qituvchining qo'lida ta'lim-tarbiya olgan bo'ladi. 5-sinfda esa ularga turli fan o'qituvchilari dars beradi. Shuningdek, o'tilayotgan mavzular ham murakkablasha boradi. Shu sababli ham 5-sinfga qabul qilingan o'quvchilarining ayrimlarida dastavval bilimida biroz bo'shliqlar paydo bo'lishi mumkin. Fan o'qituvchilari bir-ikki dars jarayonining o'zidayoq bo'sh o'zlashtiruvchilarni aniqlab, chora-tadbirlar belgilashlari kerak. Buning uchun esa barcha fan o'qituvchilari doimiy xamkorlikda va uzviy bog'lanishda ishlashlari darkor. Shundagina ta'limda ham, tarbiyada ham sifat o'zgarishlari yuz berishi kutiladi. O'qituvchi, eng avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsdan qandaydir yangilik olishi aynan uning bilimi, saviyasi va mahoratiga bog'liq. Ammo, har bir bolaning o'z iqtidori, dunyoqarashi, qiziqishi mavjud. Har bir sinfda, xoxlaymizmiyo'qmi, o'quvchilar bir xil emas. Kimdir ona tili va adabiyotga qiziqsa, kimdir matematika, kimyo yoki horijiy tillarga ishtiyoqmand bo'lishi tabiiy. Shuningdek, ularning fanlarni o'zlashtirishi ham har xil bo'ladi. Birovi qaysidir fanni yaxshi, birovi o'rta va yaa boshqasi esa sekin o'zlashtiradi. Shu nuqtai nazardan yondashilsa, menimcha, bugungi kun o'quvchilarini uch toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifadagi o'quvchilar tabiatan tirishqoq va ijodkor bo'lib, ular o'quv jarayonidan ma'naviy quvvat oladi. Mustaqil ishlashga intilib, turli tadbirlarda ishtiroy etadi. Maktabning faxri xisoblangan bu o'quvchilar ko'proq oz o'rinlarini fan soxasidan topadilar.

Ikkinci guruh ko'pchilikni (taxminan 45-50 foiz) tashkil qiluvchi iqtidorli o'quvchilar bo'lib, ularning o'qishga bo'lgan ishtiyobi birinchi guruh o'quvchilariga nisbatan pastroq bo'lsada, mustaqil o'rganishga bo'lgan qobiliyati ustun, o'z ustida ishlay oladi, kamtarin, odobli, xulqi va intizomi yaxshi, jamoat ishlarida qatnashadi.

Uchinchi toifadagilar ozchilikni tashkil etadi: Tashkilqiladigan beozor o'quvchilardir.

Natija

O'quvchilarini mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:— beriladigan har bir topshiriq o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqishuyg'ota olsin;— ish osondan qiyingga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchigatushunarli bo'lsin;— ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ularo'zlarida dadillik

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;— topshiriqlarni hamma bir vaqtida boshlab, ma'lum vaqtida tugatishi kerakliginieslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;— ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi(parta ustida ortiqcha narsalarbo'lmasligi) kerak;— topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;— darslik, didaktik materiallar bilan ishslashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiq.Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, ilojiboricha, sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalarberishda me'yorga amal qilish kerak. Bolalar darsdan(og'ir, mashaqqatlimehnatdan) keyin tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatlio'yinlar, sayr bilan vaqt o'tkazib, tunda osuda uxbab, ertangi kungi darslargayaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi.Past õzlashtiruvchi õquvchilarini bilimli, salohiyatlari qilib tarbiyalashda turli xil metodlardan foydalanib bilimlarini oshirish ularni barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi kunda zarur bõlib kelmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishslash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim-tarbiyada texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi shunday ekan yangi metodlar dan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim texnologiyalarni ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog'lab berishimiz kerak.Bundan tashqari o'qituvchining pedagogik mahorati zamonaviy dars o'tish usullardan foydalanishi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borish natijasida uni samarasidagi amalga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq” nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
- 2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil.
- 3.Qiyomiddin Nazirov (tuzuvchi). Falsafa qomusiy lug'at. –T: “Sharq” nashriyoti. 2004-yil
- 4.Kasb-hunar ta'limi” jurnali 2007-yil.
- 5.Yo'ldoshev J. Yo'ldosheva F. Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. –T.: 2008 y.

O’qituvchi va rahbar o’rtasidagi nizolar va ularning yechimlari

Guliston davlat pedagogika

Instituti pedagogika

yo’nalishi 1-kurs talabasi

Bobonazarova Dildora

Jo‘rabek qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘qituvchi va rahbar o’rtasidagi nizolar va ularning sabablari, o‘ziga xos xususiyatlari, yuzaga kelishi sabablari, bartaraf etish yo‘llari haqida atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar:rahbar,nizo, kelishuv,muammo.

Kirish:

Mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni barpo etish, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini yanada erkinlashtirish vazifalari rahbar kadrlarning kasbiy mahorati,ma’naviy qiyofasidagi axloqiy jihatlari masalalarining mavqeini yanada oshiradi.Milliy an'analarimizga ko‘ra, xalqimiz hamisha rahbarga tayanadi.Bu o‘z navbatida rahbar shaxslar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.Davlatimiz rahbari 2017-yil va undan keyingi davrga belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchta eng muhim talabga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi:” birinchi -davlat rahbari-Prezidentdan boshlab barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning yakuniy natijalar uchun shaxsiy javobgarligi,ikkinchi-hamma sohada aniq tartib va qattiq intizomni ta’minlashimiz darkor,uchinchi talab-kadrlarimizning sofligini ta’minlash ishdagi har qanday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlarning ildizini quritish”.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Gulhumorxon Raxmonjonovnaning “Rahbar xa xodimlar o’rtasidagi nizolar va ularni bartaraf etish yo‘llari” maqolasida:”Yetakchi-tobe”aloqasidagi qarama qarshilik xodimning hayotiy faoliyatining ancha keng doirasini rahbarga bog‘liklidigidir.Ikkinchi b’shliqning ko‘rsatmalari va buyruqlarini bajarishga majburdir,yani u itoat qilishdan majburdir.Rollarning talablari ijrochilarining imkoniyatlari va harakat usuliga toliq mos kelishi deyarli hech qachon ta’milanmaydi”,-deydi.B.Alisherovichning fikricha, rahbarning qo‘l ostidagilar bilan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

vertikal o‘zaro munosabati eng katta ziddiyat bilan tavsiflanadi.Rahbat xa xodim o‘rtasidagi munosabatlarning funksional va shaxsiy tomonlar o‘rtasida ob’ektiv ziddiyatlar mavjud.Ko’pgina mualliflar (D.Kandalov,A.Kitov,A.Paplin,A.Rusalinova,A.Svenisitskiy)boshqaruv faoliyatida o‘qituvchi va rahbar o‘rtasida bo‘ysunish munosabatlari mavjudligini ko‘rsatdilar.

Muhokama

Hozirgi kunda o‘qituvchi va rahbar o‘rtasidagi nizolar,ularning bir birini tushunmasligi kabi muammolarni ko‘rishimiz mumkin.Nizolarning ko‘pchiligi rahbarlarning ish jarayonida o‘qituvchilarning ruhiy holatlarini hisobga olmaganligi,kerakli sharoitlarning yaratilmaganligi va boshqa sabablar tufayli vujudga keladi.O‘qituvchi va rahbar o‘rtasidagi nizolar tufayli ijtimoiy ruhiy holat yomonlashadi,bu esa o‘qituvchinining psixikasiga ta’sir ko‘rsatib,dars jarayonlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Agar nizolarni boshqarishning samarali yo’llari topilmasa, u holda maqsadga erishishga xalaqit beruvchi quyidagi ko‘rinishdagi disfunktional oqibatlar yuzaga kelishi mumkin ya’ni:

Qoniqmaganlik, mammun bo’lmaslik, norozilik;

Yomon ruhiy holat;

Qo’nimsizlikning oshishi;

Mehnat unumdarligining pasayishi;

Kelajakda hamkorlikning susayishi;

O’zining guruhiga ko’proq sadoqat va boshqa guruhlar bilan raqobatni sussaytirish;

Qarshi tomonni faqat “dushman” deb gumonsirash, o’zining maqsadini ijobiy, qarshi tomonning maqsadini esa faqat “salbiy” deb o’ylash;

Hamkorlikka chek qo’yish va qarama – qarshi tomonlar bilan nizoga chiqish;

O’zaro munosabat va hamkorlikni sussaytirib, adovatni, xusumatni kuchaytirish; Urg’uni o’zgartirish: diqqat e’tiborni ko’proq real muammoni yechishga emas, balki nizo jarayonida “g’olib” chiqishga qaratish.

Natija

Ushbu muammoni yechimini quyidagicha izohlash mumkin: birinchi navbatda, o’qituvchi va rahbar o’rtasidagi nizolar sababini bilish, ularning psixikasini o’rganish. O’qituvchi va rahbar bir birini fikrini eshitishi, hurmat qilishi, muammolarga birgalikda yechim izlashi, birdamlikda harakat qilishi lozim. Muammono hal qilish uchun ikkala tomon uchun ham nizoni keltirib chiqaruvchi sabablarni chuqur tahlil qilish kerak. Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir qator samarali usullari mavjud. Ularni quyidagi yirik guruhga bo’lish mumkin.

Tarkibiy – tashkiliy usullarga quyidagilarkiradi.

Ishga bo’lgan talabni tushuntirish usuli. Bu usul disfunktional usulga mutlaqozid bo’lib, bunda har bir xodim va bo’limlardan qanday natija kutilishi tushuntiriladi.

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash usuli. Bu usul og’zaki buyruq (amr) zanjiri deb yuritiladi.

Nizoli vaziyatlarni boshqarish
Usullari

Tarkibiy – tashkiliy usullar

Ishga bo’lgan talabni tushuntirish

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash

Umumtashkiliy kompleks maqsadlar

Mukofotlashning tarkibiy tizimini takinillashtirish

Nizoli vaziyatlarni oldini olish yoki ziddiyatini yumshatishning beshta strategik usuli mavjud:

Uzoqlashish. Komil inson janjaldan uzoqlashishga harakat qiladi. Kelishmovchilik avjiga chiqqanda u muhokamaga qatnashmaydi. Bunday usul nizoli vaziyatning yechiklishiga manfaatdor bo’lmasan va o’zaro munosabatlarning zoxiriy yaxshiligicha qolishini istashgan hollarda tomonlar tomonidan qo’llaniladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Silliqlashish. Bu usul kishilarning yaxshilikka undash yo’li bilan nizoni bartaraf qilishga qaratilgan. Ziddiyatlari vaziyatda qarama-qarshi tomonlar bir – biri bilan xushmuomalali bo’lishga, arzimagan narsaga achchiqlanish, umuman, bir vaqtning o’zida birga suzayotgan qayiqni “qaltis tebratish” yaramasligiga chaqirishadi.

Majburlash. – bu tamanlardan birining hohish irodasini, so’zini majburan, zo’rlab qabul qilishdir. Bunday strategiyani qo’llaydigan tomon tajovvuzkorlik bilan o’z hohishini qarshi tomonga majburlab o’tkazadi.

Kelishuv. Nizoli holatdan muvofaqqiyatli chiqishning eng muhim sharti – bu murosaga kela olishdir. Kelishuv bilan nizolarni hal etish, bu yuqori baholanuvchi strategik usul bo’lib, bunda ikkala tomonni qanoatlantiruvchi yechimga kelinadi.

Muammoni hal qilish. Bu usul barcha tomonlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish uchun nizoni chaqiruvchi sabablarni chuqur tahlil qilishva barchani fikrlarini inobatga olishga asoslanadi. Bu usul tarafdorlari o’zlarini maqsadiga boshqalar maqsadi orqali emas, balki nizoning eng oqilona yechimini topish evaziga erishishni xohlaydilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganimizda, o’qituvchi va rahbar o’rtasidagi nizolar va ularning sabablari ko‘p , nizolarni kelib chiqishi sabablarini o’rganib,oldini olsak,samarali natija beradi.O’qituvchi va rahbarlar bir birini hurmat qilib, hamkorlikda ishlasa nizolar kamayadi.Rahbar va xodim o’rtasidagi munosabatlardagi ziddiyatni konstruktiv hal qilish bir birining manfaatlarini,rasmiy maqomdagи farqni, individual psixologik xususiyatlar va hissiy holatni hisobga olish, ziddiyatni turli tomonlardan hal qilishga yondashish orqali yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Antsupov A.Ya,Shipilov A.L.Konfiktologiya-M:YuN|T|,199.C8

2.Grishina N.V Psixologiya konflikta-SPP:Piter.2004-S.3

O‘qituvchi va ota onaning bola tarbiyasidagi roli

**Guliston Davlat Pedagogika
Instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ermatova Muxlisa Asqar qizi**

Annotatsiya: Maqolada o‘qituvchi va ota onaning bola tarbiyasidagi ro‘li va ularning hamkorlikda ish olib borishi natijasida bolaning tarbiyasini yanada shakllantirish , ta’lim tarbiyaning o‘zaro bog’liqligi , bolani tarbiyalash unga ilm berish faqatgina o‘qituvchigagina hos emas ,balki ota-onaga ham bog’liqligi va bugungi kunda bola tarbiyasida yo‘l qo‘yilayotgan ayrim xatoliklar haqida .

Kalit so‘zları :ota-onsa , tarbiya , ustoz , hamkorlik ,bilim , kelajak ,oila ,Vatan .

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e’tibor , ayniqsa

Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 6- noyabrdagi “O‘zbekistonning

yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish “ to‘g’risidagi 6018-sonli

qarorlari yuzasidan tarbiya tizimiga oid ko‘plab yig’Ilishlar bo‘lib o‘tmoqda. Unda bola tarbiyasi

o‘ituvchi va ota-onalarning o‘zaro bog’liq ekanligi takidlاب o‘tilgan .

Darhaqiqat , bola tarbiyasi bu bevosita davlat siyosati muammolaridan biri deb qarashimiz

mumkun chunki o‘sib kelayotgan yosh avlodning bilimli va ularning kelajakda qanday inson

bo‘lishiga qarab yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin .SHuning uchun ham

“Kelajak yoshlarning qo‘lidadir „ -deyishadi . Bolaga tarbiya berish ota-onalarning va o‘qituvchilar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ning o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish komil shaxs barkamol farzand tarbiyalash bugungi kun uchun

qolaversa kelajak uchun juda muhim

“ Kelajagi kafolatlanishini istagan ota-onalar ungga bungga sarflaydigan vaqtini va harakatini

ertaning buyuk insonlari bo‘lgan farzandlarini tarbiyal qilib ulg’aytirish uchun sarflashi lozim .

boshqa yo‘nalish uchun sarflangan mehnatlar bekor ketishi mumkin , ammo farzand kamoli uchun

sarflangan mehnatlar bitmas-tuganmas xazinaga aylanadi ,.

Adabiyotlar tahlili

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi . Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimovning “Yuksak manaviyat yengilmas kuch „asarida o‘qituvchining kasbiy

Insoniyatning jamiyatga ta’siri ortib borishi natijasida ekologik vaziyat ham yomonlashib bormoqda. Bu esa jamiyat salomatligiga ham jiddiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Aholi salomatligini yaxshilash esa hozirgi kun dolzarb masalalaridan biriga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda esa shaxsiy gigiyena alohida o‘rin kasb etadi. Bolalarga esa shaxsiy gigiyenik tarbiyani yoshlidan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish lozim. Bolalarning asosiy vaqt vaqt bog‘cha va maktablarda o‘tishini inobatga olsak, bu vazifani amalga oshirishda pedagoglarga mas’uliyat yuklaydi.

Ekologiya va gigiyenaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rganib borish o‘quv vaqt bilan cheklanmaslik va maktabdan tashqari ishlarda ham to‘ldirib borilishi darkor. Maktabdan tashqari vaqtida bolalar bilan olib boriladigan suhbatlar, sog‘liqni saqlash masalalarini muhokama qilish, ertaliklarda kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigienasi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va boshqalarga bag‘ishlab o‘tkaziladigan sahna ko‘rinishlari va musiqiy chiqishlar, kinofilmlar ko‘rsatish - bularning barchasi atrof muhitga va gigiyenaga oid darslardan olingan bilim va malakalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Kichik muktab yoshidagi o‘quvchilari yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hali muntazam ravishda o‘z vaqtlarini rejalaشتira olmaydilar hamda rejalaشتirilgan tartibga rioya qila olmaydilar. Bu yerda unga ota-onalar vrach-pediatr bilan maslahatlashgan holda yordamga kelishlari lozim.

Muktab yoshidagi o‘quvchilari ertalab soat 7.⁰⁰ da uyqudan turish sog‘liq uchun foydali. O‘quvchi o‘z kunini ertalabki badan tarbiyadan boshlashi kerak. Ertalabki badan tarbiya bosh miyani va butun organizmni qon bilan ta’minlashi yaxshilanadi, asab tizimini mustahkamlaydi, ruhan tetik va yaxshi kayfiyat bilan kunni boshlaydilar. Ertalabki badan tarbiya ko‘p vaqtini olmasligi lozim sababi kun taqsimotiga ta’sir qilishi mumkin. Mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin ochiq va toza havoda 20 daqiqalik piyoda sayohat o‘quvchining aqliy ish qobiliyatini oshirishini ta’minlaydi va o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishiga olib keladi.

O‘quvchilarimiz maktabdan qaytgandan so‘ng tushlik qilishi va dam olishi juda

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

muhim. Tushlikdan keyingi dam olishni ochiq va toza havoda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uy vazifalarini tayyorlashga soat 16.⁰⁰ dan boshlab kirishishlai tavsiya etiladi, sababi xuddi shu vaqtida sutkalik ish qobiliyatining ikkinchi marotaba oshishi kuzatiladi. Ish qobiliyatining birinchi oshishi soat 11-13.⁰⁰ larga to'g'ri keladi, so'ngra esa ish qobiliyati biroz pasayadi (2).

O'quv mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan xona keng, yorug' va toza bo'lishi, bolaning ish joyi uning bo'yiga mos tushishi, mebellar esa belgilangan gigiyenik me'yorlarga to'g'ri kelishi kerak. Darslarni tayyorlash vaqtida barcha ortiqcha narsalar, ayniqsa baland ovoz chiqarish manbaalari olib qo'yishimiz lozim. Chunki bolalarimizning diqqatlari bo'linmasligi kerak.

Bo'sh vaqtlarida bolalar sport bilan shug'ullanishlari, mutolaa qilishlari mumkin. Biroq, juda ko'p holatlarda bugungi kunlarda o'quvchilarimiz televizorni, xar hil telefon va gadjetlarni tanlaydilar. Ota-onalar shuni unutmasliklari lozimki, 1 kun mobaynida kichik sinf o'quvchisi 1 soat, 14-15 yoshli o'quvchi 1,5 soat televizor ko'rishi tavsiya etiladi. Hozirgi zamon shifokorlarimiz esa Telefon va xar-hil gadjetlardan uyda 10-20 minutdam ko'p foydalanmasliklani ta'kidlashmoqda.

Bugungi davrda o'quvchi yoshlarimiz orasida kompyuter o'yinlari va internetdan foydalanish juda ommaviylashib bormoqda. Buning salbiy oqibatlarini ham unutmasligimiz lozim. Bolalarimizning bo'sh vaqtlarida haddan tashqari bu o'yinlar bilan ko'p shug'ullanishi turli kasallikkarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun biz ota-onalar o'z farzandlarimizni kompyuter bilan ishlashlarini muntazam nazorat ostiga olishimiz lozim.

Hozirgi kunlarda shifokorlarimiz gipokineziya, Parkinson borgan sari ko'proq bolalarga xavf solayotganligi haqida qayg'urmoqdalar. Maktab o'quvchilarimizning an'anaviy ravishda milliy harakatli o'ynlarga ajratilgan asosiy vaqtni endi tobora ko'proq televizor, kompyuter, xar hil telefon va gadjetlar o'rin olmoqda.

O'quvchi yoshlarimiz jismoniy mashqlarga qizlar bir haftada 5-12 soat, o'g'il bolalar esa 7-15 soat vaqtlarini bag'ishlashlari lozim. Maktab o'quvchilar bir kunda kamida 2-3 soat ochiq havoda bo'lishlari kerak. Og'ir o'quv kunidan so'ng o'quvchiga to'laqonli uyqu kerak bo'ladi. Uyquning davom etishi o'quvchining yoshiga bog'liq bo'lib, 6-10 yoshli o'quvchilar uchun sutkada kamida 10 soat, 11-14 yoshlilar uchun - 9 soat, katta yoshdag'i o'quvchilar uchun esa kamida 8 soat bo'lishi lozim. Har bitta insonga kechki uyqudan oldin ochiq havoda 30-40 daqiqa sayr qilish sog'liq uchun juda zarur. (2)

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Shuningdek, maktabdagи tabiatshunoslik fanida har bir darsda atrof muhit, shaxsiy va jamoat gigienasi qoidalarini sinf o‘quvchilari qanday bajarayotganligi to‘g‘risida o‘quvchilarining axborotlariga bir necha daqiqa ajratish lozim. Ana shunda ijtimoiy-foydali ish bolalarda ma’suliyat hissini tarbiyalab boradi. O‘ziga qaramay yuradigan bolalar doim o‘z oilasining va maktabda o‘qituvchisi nazorati ostida bo‘lganidan gigiyena qoidalarga amal qilishni va atrof muhitga ziyon yetkazmaslikni asta-sekin o‘rganib, intizomli bo‘lib boradi.

Foydalaniлган адабиётлар

1. «O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasining Qarori. T, 2002 y.
2. Rixsieva A. Sport meditsinasi asoslari. T, Meditsina-1985.
3. Yangiboyeva Z., Turakulova V., Alibekova Z. Yosh o‘zgarishiga qarab organizimning fizologik xususiyatlari //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 998-1000.
4. Туракулова В., Шукuroв Д. Шарқ мутафаккурларининг табиат билан алокодорлиги ҳақидаги қарашлари //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 55-58.
5. Bekmirzaev, M. X., Turakulova, V. X., Pardaboev, S. B., Khorozov, S. J., & Kholbo‘tayev, S. M. Classification of modern studies on the problem of training biology teachers.
6. Turakulova V. O‘zbekiston respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan murakkabguldoshlar oilasini o‘rganishda innovatsion texnologiyalar //Мир исследований. – 2021. – Т. 3. – №. 3.

**Research Science and
Innovation House**

SUYUQ KRISTALLARNING QO‘LLANILISH SOHALARI VA ISTIQBOLLARI

**Ibrohimova Muhlisa Erkinjon qizi, Xoshimova Mo‘mina Shuhratjon qizi
Andijon davlat universiteti Fizika fakulteti Fizika yo‘nalishi talabalari.**

ANNOTATSIYA

Maqola suyuq kristallar va ularning xususiyatlari, qo‘llanilish sohalari bilan tanishtiradi. O‘quvchining ushbu sohaga qiziqishini oshiradi hamda yangiliklar yaratishga undaydi. Ushbu maqolada fizikaning biz bilgan va bilmagan yangilik va qonuniyatlarini o‘rganish va yangicha talqin qilish to‘g‘risidagi fikr va xulosalar bayon etilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: suyuq kristallar, uglerod, kislород, vodorod, azot, mezofazalar, bosim, konsentratsiya, struktura, sintez, reaksiya, dialektik, hujayra, kogerent, lazer nurlanishi, ob’ekt, pylonka, indikator, otkritka o‘lchamli LCD displayli televizorlar, termografiya.

ANNOTATION

The article introduces liquid crystals and their properties and fields of application. It increases the student's interest in this field and encourages the creation of innovations. In this article, opinions and conclusions about the study and new interpretation of the new and unknown laws of physics are presented.

Key words and phrases: liquid crystals, carbon, oxygen, hydrogen, nitrogen, mesophases, pressure, concentration, structure, synthesis, reaction, dialectic, cell, coherent, laser radiation, object, film, indicator, postcard LCD televisions, thermography.

Keling avval suyuq kristallning o‘zi nima ekanligi haqida ma’lumot berib o‘taylik. Suyuq kristallar- kimyoviy tarkibiga ko‘ra C,H,O va N (uglerod, vodorod, kislород va azot)dan tashkil topgan organik moddalar hisoblanib, fizik xossalari jihatidan qattik va suyuq moddalar orasidagi fazalarga to‘g‘ri keladi. Demak, suyuq kristallarni qattiq jism ham suyuq jism ham deya olmaymiz. Ularni “mezofazalar” deb yuritiladi. Aslini olganda, suyuq kristallar oddiy suyuqliklar kabi oquvchanlik xossasiga, ya’ni izotrop xususiyatga hamda qattik jismlar kabi anizotroplik xususiyatiga ham egadirlar. Ba’zi moddalar ma’lum sharoitlar ta’sirida suyuq kristallarga aylanadi. Bu bosim, harorat,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

konsentratsiya ta'sirida bo'lishi mumkin. Tuzilish jihatidan suyuq kristallar bu suyuqlikning butun hajmi bo'ylab ma'lum tartibda tartiblangan cho'zilgan yoki disk shaklidagi molekulalardan tashkil topgan yopishqoq suyuqliklardir. Qizig'i shundaki, suyuq kristallarning molekulalari elektr maydon ta'sirida holatini va joylashuvini o'zgartiradi. Bu hali hammasi emas, suyuq kristallar harorat ta'sirida o'z rangini, ko'rinishini o'zgartira boradi. Qadimdan san'atshunoslar suyuq kristallardan ilhom olib turli tasvirlar yaratganlar. Agar qo'lingizga suyuq kristall tushib qolsa uni tomosha qilib soatlab qolib ketishingiz aniq.

Tirik organizmning ko'pgina strukturaviy shakllanishi suyuq kristall holat bilan tavsiflanadi. Suyuq kristallarning tuzilishi biologik jarayonlar uchun qulay bo'lib chiqdi. U tashqi ta'sirlarga qarshilikni moslashuvchanlik va plastika bilan birlashtiradi. Ipga o'xshash molekulalar elektromagnit va elektr maydonlariga temir qoliplari bilan bir xil tarzda reaksiyaga kirishib, maydon chiziqlari bo'ylab eng tartibli joylashgan. Dunyo bo'ylab laboratoriyalarda sintez qilingan har mingta yangi organik birikmalardan kamida beshtasi suyuq kristallar hosil qilishi mumkin.

Suyuq kristallar va yuqorida sanab o'tilgan sohalarning to'g'ri qo'llanilishidan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, suyuq kristallar ko'p jihatdan ba'zi uyali tuzilmalarga o'xshaydi va ba'zan ularda mavjud. Suyuq kristallar o'zlarining dialektik xususiyatlariga ko'ra hujayra ichidagi, to'qimalar o'rtasidagi, shuningdek hujayra va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Shunday qilib, suyuq kristallarning tabiatи va xatti-harakatlarini o'rganish molekulyar biologiyaga hissa qo'shishi mumkin. Endi suyuq kristallanening qo'llanish sohalarini ko'zib chiqsak:

- a) kompyuterlarda va mobil telefonlarda, audio va video uskunalar, axborotni qayta ishlash, uzatish va saqlash uchun ko'plab murakkab zamonaviy qurilmalar kristallarsiz ishlay olmaydi;
- b) suyuq kristallar bir turdag'i energiyani boshqasiga aylantirish uchun ishlatiladi;
- c) suyuq kristallar kogerent yorug'lik manbalarini yaratish va lazer nurlanishini boshqarish uchun kerak;
- d) qadim zamonlardan beri suyuq kristallarning ulug'verligi odamlarni chiroyliz zargarlik buyumlari va bezak buyumlarini yaratishga ilhomlantirgan;
- e) suyuq kristallar sirtni qayta ishlash uchun zarurdir.

Suyuq kristallar rangining haroratga bog'liqligi haroratni o'lhash uchun ishlatiladi. Harorat ko'rsatkichlari -20 dan +250 ° C gacha bo'lgan harorat oralig'ida suyuq kristalli moddalar aralashmalaridan tayyorlanadi. Ko'rsatkich suyuq kristallning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

nozik egiluvchan plyonkasidir. Ob'ekt yuzasiga plyonkani qo'llashda indikatorning rangi ob'ektning harorati va uning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini aniqlash uchun ishlatalishi mumkin.

Suyuq kristallarning rangni o'zgartirish xususiyati shaffof bo'lмаган об'ектлардаги структуравиј нуқсонларнианиqlash үчун ishlataladi: teng bo'lмаган issiqlik o'tkazuvchanligi tufayli nuqsonlar suyuq kristalli plyonkada turli xil rang effektlarini keltirib chiqaradi. Suyuq kristalli moddalarni qo'llashning eng istiqbolli sohasi axborot texnologiyalari hisoblanadi. Elektron soatlardan tortib hammaga tanish bo'lgan birinchi ko'rsatkichlardan o'lchami otkritkadek bo'lgan LCD displeyli televizorlar bir necha yildan beri mavjud. Bunday televizorlar kam energiya sarflagan holda juda yuqori sifatli tasvirlarni taqdim etadi. Suyuq kristallardan foydalanishning biz yuqorida keltirmagan muhim yo'nalişlaridan biri bu termografiya. Suyuq kristall moddalarning tarkibini tanlab, turli xil juda issiq yoki sovuq harorat diapazonlari va turli dizaynlar үчун ko'rsatkichlar yaratiladi. Noto'g'ri elementlar ishlamaydi - yorqin rangli dog'lar bilan darhol seziladi. Bu borada shifokorlar yangi imkoniyatlarga ega bo'lishdi: bemorning terisida suyuq kristalli indikator tezda yashirin yallig'lanishni va hatto o'simtani aniqlaydi.

BUGUN VA ERTAGA SUYUQ KRISTALLAR

Xulosa qilib aytganda, yuqorida muhokama qilingan suyuq kristallardagi ko'plab optik effektlar allaqachon texnologiya tomonidan o'zlashtirilgan va ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlarda qo'llaniladi. Misol uchun, hamma suyuq kristalli indikatorli soatlarni biladi, lekin hamma ham bir xil suyuq kristallar o'rnatilgan kalkulyatorga ega qo'l soatlarini ishlab chiqarish үчун ishlatalishini bilmaydi. Bunday qurilmani soat yoki kompyuterni nima deb atashni aytish qiyin. Ammo bu sanoat tomonidan allaqachon o'zlashtirilgan mahsulotlar, garchi bundan bir necha o'n yillar oldin bu haqiqatga to'g'ri kelmaydigan tuyulardi. Suyuq kristallarning kelajakda keng tarqalgan va samarali qo'llanilishi istiqbollari yanada hayratlanarli. Shu sababli, hali amalga oshirilmagan suyuq kristallardan foydalanish bo'yicha bir nechta texnik g'oyalar haqida gapirishga arziydi, ammo kelgusi bir necha yil ichida bizga tanish bo'lgan qurilmalarni yaratish үчун asos bo'lib xizmat qiladi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR

1. <https://megabook.ru>
2. “Жидкие кристаллы” Л.М.Блинов. URSS.2018
3. <https://dik.akademik.ru>
4. <https://worldofmaterials.ru>



**Research Science and
Innovation House**

KOREA INFORMATION -CULTURE AND THE ARTS

Karimova Ruxshona

Normatova Marjona

Abstract: Since the earliest settlements during prehistoric times, the people of Korea have developed a unique culture based on their outstanding artistic sensibility. The geographical conditions of the peninsula provided Koreans with opportunities to receive both continental and maritime cultures and ample resources, thereby forming original cultures of interest to and value for the rest of humanity, both then and now. Korea's vibrant cultural legacy, comprising music, art, literature, dance, architecture, clothing, and cuisine, offers a delightful combination of tradition and modernity.

Keywords: dance, art, comprising music, literature, legacy, culture, tradition, Silla, Korean.

INTRODUCTION

UNESCO HERITAGE IN KOREA

Korea's vibrant cultural legacy, comprising music, art, literature, dance, architecture, clothing, and cuisine, offers a delightful combination of tradition and modernity. South Korea preserves a wealth of priceless cultural heritage, the majority of which have been inscribed on UNESCO's World Heritage List to be protected for future generations.

Since the earliest settlements during prehistoric times, the people of Korea have developed a unique culture based on their outstanding artistic sensibility. The geographical conditions of the peninsula provided Koreans with opportunities to receive both continental and maritime cultures and ample resources, thereby forming original cultures of interest to and value for the rest of humanity, both then and now. Korea's vibrant cultural legacy, comprising music, art, literature, dance, architecture, clothing, and cuisine, offers a delightful combination of tradition and modernity.

THE MAIN PART

Gyeongju Historic Areas

Gyeongju was the capital of Silla for about one millennium. The city still contains a wealth of archaeological remains from the kingdom, and hence is often dubbed as “a museum without walls or roof.” The photo shows a scene of the Silla mound tombs located in the city

At the present time, Korean arts and culture are attracting many enthusiasts around the world. Korea’s cultural and artistic achievements through the ages are now leading many of its young talents to the world’s most prestigious music and dance competitions, while its literary works are being translated into many different languages for global readers. Recently, Korean Dansaekhwa (monochrome paintings) have become the talk of the global art world.

The world’s craze for K-pop reached its zenith in August 2020, when the South Korean boy band BTS achieved its first No. 1 on the Billboard Hot 100 songs chart with its first all-English-language single entitled “Dynamite.” BTS has become the first all-South Korean act to top the Billboard Hot 100, as well as the first one in Asia since 1963. This outcome reflects the popularity of K-pop throughout the world, including the United States, South America, and Europe, as well as Japan, China, and Southeast Asia, rather than just a feat of a specific group. It is in the same context that music videos of K-pop stars such as BLACKPINK, a South Korean girl group, have recorded explosive views on YouTube and become more popularized.

As such, the artistic excellence of globally recognized Korean culture was not built overnight. The original artistic sensibility reflected in the diverse artifacts and tomb murals of the Three Kingdoms Period became richer and more profound as Korea progressed through the periods of Unified Silla (676–935), Goryeo (918– 1392), and Joseon (1392–1910). In addition, the DNA of this artistic sensibility has been handed down through the generations to today’s Korean people.

As such, the artistic excellence of globally recognized Korean culture was not built overnight. The original artistic sensibility reflected in the diverse artifacts and tomb murals of the Three Kingdoms Period became richer and more profound as Korea progressed through the periods of Unified Silla (676–935), Goryeo (918– 1392), and

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Joseon (1392–1910). In addition, the DNA of this artistic sensibility has been handed down through the generations to today's Korean people.

South Korea preserves a wealth of priceless cultural heritage, the majority of which have been inscribed on UNESCO's World Heritage List to be protected for future generations. As of 2020, a total of 50 South Korean heritage items are listed either as World Heritage Sites or Intangible Cultural Heritage of Humanity, or included in the UNESCO's Memory of the World Register.

Seokguram Grotto and Bulguksa Temple

Seokguram, located on the middle slope of Tohamsan Mountain in Gyeongju, Gyeongsangbuk-do, is the representative stone temple which was completed in 774 to serve as a dharma hall. This grotto is the product of outstanding architectural techniques. It is placed in such a way that the first rays of the sun rising over the East Sea would strike the forehead of the seated Buddha statue in the rotunda.

Completed the same year as Seokguram Grotto, Bulguksa Temple consists of exquisite prayer halls and various monuments, including two stone pagodas, Dabotap Pagoda and Seokgatap Pagoda, standing in the front courtyard of the temple's main prayer hall called Daeungjeon. The two pagodas are widely regarded as the finest extant Silla pagodas: the former is admired for its elaborately carved details, the latter for its delightfully simple structure.

CONCLUSION.

The Printing Woodblocks of the Tripitaka Koreana, which was made during the Goryeo period (918–1392), are housed in the Janggyeong Panjeon complex specially made for that purpose in 1488 at Haeinsa Temple. As the oldest remaining buildings at the temple, the Tripitaka depositories are marked by the uniquely scientific and highly effective method of controlling ventilation and moisture to ensure the safe storage of the age-old woodblocks. The buildings were built side by side at the highest point (about 700 m above sea level) in the precincts of Haeinsa Temple, which is located on the mid-slope of Gayasan Mountain.

REFERENCES

1. <https://www.koreanculture.org/korea-information-culture-and-the-arts>
2. Connor, Mary E. (2002). *The Koreas: A Global Studies Handbook* – Mary E. Connor. Bloomsbury Academic. ISBN 9781576072776. Retrieved 2012-07-15.
3. "An Introduction to Korean Culture for Rehabilitation Service Providers" (PDF). Center for International Rehabilitation Research Information & Exchange. Archived from the original (PDF) on 2020-07-02. Retrieved 2020-07-01.
4. "Religious Music : Shamanism" (PDF). gugak.go.kr. Archived from the original (PDF) on 2014-10-15.
5. "Shamanism". Korea Tourism Organization. Archived from the original on 2014-08-19. Retrieved 2014-08-17.
6. 박, 성수. "백의민족 (白衣民族)" [The White Clothed People]. Encyclopedia of Korean Culture (in Korean). Retrieved 2023-09-29.
7. Lee, Yeseung (November 2022). "The white-clad people: The white hanbok and Korean nationalism". *Cultural Dynamics*. 34 (4): 271–296. doi:10.1177/09213740221117811. ISSN 0921-3740. S2CID 251363822.
8. "Hanbok Renaissance Goes from Strength to Strength".
9. Ell, Kellie (2019-03-19). "Seoul Fashion Designer Adds Modern Twist to Traditional Korean Dresses". WWD. Retrieved 2022-12-08.
10. Ell, Kellie (2019-03-19). "Seoul Fashion Designer Adds Modern Twist to Traditional Korean Dresses". WWD. Retrieved 2022-12-08.
11. Me, The Korean in. "Hanbok: Celebrities Have Fallen In Love with This Korean Traditional Clothing - Here's Why". www.prnewswire.com (Press release). Retrieved 2022-12-08.
12. Kim, Hee-Sun (2022). "Appropriating Gugak and Negotiating K-Heritage. K-Pop's Reconstruction of Korean Aesthetics in the Age of Digital Globalization". Espes. *The Slovak Journal of Aesthetics*. 11 (1): 27–39. doi:10.5281/zenodo.6639744.
13. [1] Archived February 24, 2007, at the Wayback Machine

Maktabgacha yoshdagi bolalar ma‘naviyatini rivojlantirishda Muhammad Yusufning she’rlarini ahamiyati

**Urganch davlat Pedagogika instituti talabasi: Avezova Mastura
Urganch davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi Ahmedova Gulnoza**

Annotasiya: Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviyatini, ijodiy qobilyatini shakllantirishda Muhammad Yusufning she’rlarini ahamiyati aytib o‘tilgan. Shuningdek bolalarni vatanparvarlik tuyg‘usini oshirishda shoirni go‘zal namunalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llash usullarini ko‘rib chiqamiz. Bolalar hayotida ahamiyatini va kelajakda qanday kasb egasi bo‘lishini rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviyatini ijodiy qobilyatini shakllantirishda asosan shoir va shoiralarni ijodiy namunalar katta ahamiyatga ega. Albatta bizning faxrli shoirlarimiz kelajagi buyuk bolalarga o‘zlarini hayot tajribalarini o‘rgatish va kerakli xulosalar chiqarish maqsadida ko‘plab she’rlar va dostonlar yozib qoldirganlar. She’rlarda vatanni sevish, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiruvchi va yanada oshiruvchi chiroyli jumllalar, go‘zal so‘zlar berib o‘tilgan. Hozirda bizning faxrli va qalami o‘tkir adibimiz Muhammad Yusuf ham o‘zining go‘zal satrlari orqali bolalar uchun kerakli foydali maslahatlar berib o‘tganlar.

Bilamizki, Muhammad Yusuf 1954-yil 14-fevralda tug‘ilgan. Ko‘plab she’rlar, dostonlar bilan insonlar ko‘ngidan joy olgan shoir hisoblanadi. Eng mashhur she’rlaridan biri Vatanim she’ri hisoblanib unda vatanimiz tarixi va ota-bobolarimiz haqida ular hayotidan parchalar asosida hozirgi kelajak avlod uchun foydali bo‘ladigan ushbu she’rni yozib o‘tganlar.

Shodon kunim gul otgan sen

Chechak otgan izimga

Nolon kunim yupatgan sen

Yuzing bosib yuzimga

Singlim deymi onam deymi

Hamdardu ham xonam deymi

Oftobdan ham o‘zing mehri Ulug‘imsan vatanim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Ushbu satrlarda bola uchun onaning qadrli ekanligi, Vatanni onaga qiyoslash, onadek qadrlash, yaxshi yomon kuningda seni qo'llab quvvatlashi haqda aytib o'tilgan. Albatta onalarimiz bolalari uchun hamma narsaga tayyor bo'lgan yagona inson. Seni yaxshi kuningda ham yomon kuningda ham sen bilan bo'ladigan insonlardan biri ota bo'lsa biri onadir. Shuningdek vatanni bizga berib turgan imkoniyati va shart-sharoitlari ham onamizni bizga qilib turgan yordami hisoblanadi. Vatanni bizga berib turgan mehri ona mehriga qiyosdir. Uning mehri hatto oftobdan yani quyoshdan ham issiqligi ta'kidlab o'tilgan. Bu satrlar orqali o'sib kelayotgan bolalarga vatanni sevishni va qadrlash o'rgatish mumkin. Zero “Vatan- ota merosdir”

Kim Qashqarni qildi makon,

Kim Enasoy tomonda,

Jaloliddin — Kurdistonda,

Boburing — Hindistonda,

Bu qanday yuz qarolik deb,

Yotarlar zimistonda.

Tarqab ketgan to'qson olti

Urug'imsan, Vatanim...

Yana shuni aytib o'tish mumkinki, bu she'rda bizning tariximiz ota-bobolarimiz haqida ma'lumotlar qahramonliklari ham aytib o'tiladi. Algomish va uning qahramonliklari esga olinadi. Buyuk jang sahnalari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ozgina bo'lsa ham jang shiddatini his qilamiz. Bu orqali bolalarni hozirgi tinch yashayotganimizga shukr qilishlari keng imkoniyatlardan samarali foydalanib yurt rivojlanishiga katta hissa qo'shishlari uchun motivatsiya bo'ladi. Albatta bu she'rda Jaloliddin Manguberdining mardligi va uni raqibi Chingizzon ustidan g'alabasi ham kuylanadi.

Sen — shoxlari osmonlarga

Tegib turgan chinorim,

Ota desam, O'g'lim deb,

Bosh egib turgan chinorim,

Qo'ynimdag'i iftixorim,

Bo'ynimdag'i tumorim,

O'zing mening ulug'lardan

Ulug'imsan, Vatanim!

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, biz yosh avlodni qanday bo‘lishiga hissa qo‘shuvchi bo‘lajak pedagoglarmiz. Bizni oldimizda bolalarni to‘g‘ri tarbiyasi kelajakda qanday inson bo‘lib o‘sishiga va qanday kasb egasi bo‘lishiga biz o‘z hissamizni qo‘shamiz. Shunday ekan biz bolalarni tarbiyalashda hech qachon xato qilmaslikimiz va ularni qo‘llab-quvvatlashimiz kerak. Kelajakda vatan uchun hissa qo‘shuvchi vatanparvar insonlarni tarbiyalashimiz kerak



**Research Science and
Innovation House**

Hozirgi kunda pedagogikada zamonaviy metodlar

Guliston davlat pedagogika

Instituti pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Lapasova Shahrizoda Farhod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogikadagi metodlar, ularning ahamiyati va tasnifi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, medot, tadqiqot, usul, vosita, ta’lim, tamoyil, o‘quv maqsadi. Kirish

Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o‘quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo‘sinlarini belgilab beradi.

Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, adolatga doyr qarash va ko‘nikmalarning shaxs sifa-tiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi.

Insonlar ora-sida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indi-sini o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat

o‘qitish tushunchasini ifoda etadi. O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxe tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzlusiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo‘ladi. Prezidentimiz tomonidan ham pedagogikani

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

rivojlantirishga oid juda ko‘plap qaror ,farmonlar qabul qilingan va so‘nggi yillarda bu soha rivojlanishiga juda katta ahamiyat berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Musurmonob Raxmatillaning “Zamonaviy ta’lim metodlari -ta’lim samaradorligi kafolati”maqolasida hozirgi kundagi metodlar, usullar haqida batafsil ma’lumot beradi.O‘qituvchi qanchalik ko‘p va samarali metodlardan foydalana olsa, o‘quvchiga o‘z ta’sirini o‘tkazishini, shunday usullar bilan uni rivojlantirib bo‘lishini ta’kidlaydi.

Muhokama va Natija

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagи ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:ta’lim samarasi yuqoriqbo‘lgan o‘qish-o‘rganish;ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;amalda bajarish orqali o‘rganilishi; Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri echimini topishlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi.Quyida ushbu masala yuzasidan umumiyl mulohazalarni keltiramiz.Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

yo‘q. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q. Interfaol ta’lim metodlarini ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtida qo‘llanmokda. Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo‘yicha hozirgi ayrim interfaol ta’lim metodlarining turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan qo‘llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi. Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta’lim metodlarining turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan qo‘llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko‘p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo‘lida qo‘llash mumkin ekanligini alohida ta’kidlash zarur. Keys stadi metodi. Bu metodning nomi inglizcha “case-study” so‘zlaridan olingan. Bunda “case” – yashik, quti, gilof, jild, “study” – o‘rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug‘ullanish, o‘quv fani, saboq olish, o‘qish ma’nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytildigan “case – true life”, ya’ni “keys – haqiqiy hayot” iborasiga ko‘ra keys – real hayotning «bir parchasidir». Shunga ko‘ra bu metodni “amaliy holatlarni o‘qitish metodi” deb ham ataladi. Keys-stadi metodi bo‘yicha o‘rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasи, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig‘indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta’lim sohasidagi dolzarb bo‘lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatdan foydalanishning dolzarbliji: Keys-stadi ta’lim metodini turli holatlarni o‘rganishda qo‘llash – hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o‘rganishni tashkil etish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta’lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta’lim jarayonidan iborat. Bu metod ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo‘sishmcha axborotlarni yig‘ish, farazlarga aniqlik

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo‘yicha amaliy faoliyatlarini

modellashtirish imkonini beradi.Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag‘ishlangan keyslardan foydalanish ta’lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog‘laydi. Keysni ko‘rib chiqishda ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o‘zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi.Keys ta’lim oluvchilarga tahlil qilish,

qiyoslash yo‘llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi.Keys-stadi ta’lim metodiga doir ayrim asosiy tushunchalar ta’rifi:“Keys” va “keys-stadi” tushunchalarining ma’no-mazmuni ko‘p qirrali bo‘lib, shunga ko‘ra quyida ularning asosiy xususiyatlarini to‘liqroq aks ettirish maqsadida ko‘p variantli ta’riflari berildi. Keys

–1) ta’lim oluvchilarning ma’lum maqsadlardagi hayotiy vazifalarni bajarishlari bo‘yicha vaziyatning bayoni, uni tushunish va baholashga imkon beradigan hamda muammoni ifodalash uchun, uning maqsadga muvofiq yechimini izlashlari uchun kerak materiallar to‘plami;2) belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo‘sishimcha axborotlar, audio, video, elektron tashuvchilar, o‘quv-uslubiy materiallar yig‘indisi;3) muammoni hal qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari na xulosalar.Keys-stadi –1) ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim metodidir.2) ta’lim, axborot-kommunikatsiya, boshqaruv na boshqa sohalarni o‘rgatishda qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida oldindan belgilangan (bashorat qilinadigan) o‘quv natijalariga kafolatli erishishni vositali tarzda ta’minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir. Keys- stading mohiyati shundan iboratki, ko‘rib chiqilayotgai muammoli vaziyat bo‘yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo‘lgan tinglovchilarga quyidagilar taklif qilinadi:keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o‘zlashtirilishi va qo‘llanilishi lozim bo‘ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

o‘tkazish;muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;taklif etilgan

muqobil jihat(alternativ)larni baholash va ular orasidan qo‘yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;tanlangan muqobil usul (alternativ)ni amalga oshirish bo‘yicha aniq; yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda zamonaviy metodlar ko‘payib bormoqda.Bularni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llansa, albatta, o‘z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gushchin Yu.V.Oliy ta’limda interfaol o‘qitish usuli //”Dubna”Xalqaro tabiat, jamiyat va inson,2012 -No.2-B.1-18.
2. G.Zaxarov-M:”Akademiya”,2008.

Research Science and Innovation House

Tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati

Guliston davlat pedagogika Instituti pedagogika

Yo‘nalishi 1-kurs talabasi Qo‘lyiyeva Shahlo

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya,uning jamiyat,davlatdagi ahamiyati, qanchalik kerakligini haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tarbiya,jamiyat, ahamiyat,axloq,odob.

Kirish

Har bir yurt taraqqiyoti jamiyatda yoshlarning ilmiy salohiyati, axloqi va tarbiyasiga bog‘liq. Dunyo yaralganidan to bugungi kunimizga qadar ilm va tarbiyaning ahamiyati hech qachon yo‘qolgan emas. Zero, bashariyat hayoti faqatgina moddiy ehtiyojlar bilan cheklanmagan. Odamzot moddiy ehti

yojlar bilan bir qatorda ruhoniy unsurlarga ham muhtoj qilib yaratilgan. Balki ehtiyojlar, ya’ni aql va qalb uchun zarur bo‘lgan ilm, odob-axloq kabilalar insonning baxt-saodati uchun muhim rol o‘ynaydi.

Nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog‘ati ham shak-shubhasiz ta’lim va tarbiya tufaylidir.

Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta’sirli narsa yo‘qdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy ta’lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera

oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti harakatini sekin – asta ko‘nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta – sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e’tiborga olishi zarur.

Xitoy donishmandi Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma erda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan edi. Olmon faylasufi Immanuil Kant o‘z asarida “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.

Tarbiya borasida Sa’diy Sherzoziy shunday misralarni bitgan:

Minbarning poyida tursa ham eshak, Tarbiya yuqmaydi, bo‘lmaydi odam. Tarbiya ko‘rmayin ulg‘aysa kishi.

Eshak bo‘lib qolur yuzga kirsa ham.

Muhokama

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirilar yigindisi.

Tarbiya insonning insonligini ta’minalaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minalaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda globallashuv turli tuman qarashlar asosida, deyarli barcha ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq ravishda talqin etilayotgan muammolardan biriga aylandi.

Hozirgi kunda globallashuv jarayoni yangi-yangi hudud va mintaqalarni, inson faoliyatining barcha sohalarini o‘z domiga tortayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Ayniqsa, ba’zi nosog‘lom kuchlar, mafkuraviy va ma’naviy sohada o‘z g‘oya hamda mafkuralarini singdirish, ta’sir doiralarini kengaytirish maqsadida, o‘z manfaatlarini ko‘zlab, globallashuv jarayonidan kengroq foydalanishga intilmoqdalar.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Biz esa bundan yoshlarizni himoya qilishimiz uchun ularning ma’naviyatlarini yuksak qilishimiz va kamolotga erishishlari yo‘lida barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur hisoblanadi.

Natija

Odam bolasiga beriladigan tarbiya, birinchi navbatda, ilmgaga, fanga asoslanmog‘i, ta’limiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilmog‘i lozim. Agar tarbiya pala-partish holda savodsizlarcha tashkil etilsa, tizimli va muntazam ravishda olib borilmasa, bunday

«tarbiya» inson kelajagiga, shaxsning shakllanishiga faqat zarar keltiradi. Mana shu qoidalarga amal qilingandagina ta’lim-tarbiya o‘zining pirovard maqsadiga erishishi – komil insonni voyaga yetkazishi mumkin.

Payg‘ambarimiz Muhammad (a.s.) komil inson sifatlariga shunday ta’rif bergenlar: “Komil musulmon shunday kishiki, boshqa musulmonlar uning tili va qo‘lidan salomat bo‘ladilar”.

Islom dinida mukammal komil inson deya biz Muhammad (a.s.) olishimiz mumkin. U zot Alloh taolo tomonidan insoniyatga rahmat qilib yuborilgandirlar. Ular barcha insoniy

fazilatlar ziyodasi bilan jamlangan yuksak axloq sohibi bo‘lganlar. Ularning yuksak axloq sohibi ekanliklarini Alloh taolo ta’kidlab:

“Va albatta, sen ulkan xulqdasan ”(Qalam,4)

Deya marhamat qiladi. .Rasululloh (a.s.)ning o‘zlari ham:

“Men kishilarning axloqlarini mukammal qilish uchun yuborildim” deya marhamat

qilganlar. Va juda ko‘p bor farzand tarbiyasi va uning ilm olishiga e’tibor qaratib, bizga o‘zlarining muborak hadisi shariflarini qoldirganlar.

Xulosa


Xulosa qilib aytganda, tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati juda katta.Tarbiya tufayli kishilar bir birini hurmat,izzat qiladi.Biz ham yoshlarga tarbiyaning ahamiyatini tushuntirishimiz, odob-axloqqaga riosa qilishlarini ta’kidlashimiz kerak.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz”, Toshkent.O‘zbekiston 2017.
2. M.Toxtaxojayeva,S.Nishonova,J.Hasanboyev “Pedagogika” Toshkent 2010-yil



**Research Science and
Innovation House**

Pedagogikada jazolash metodlari

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
A’zamova Marjona Ibrohimovna**

Annotasiya: Ushbu maqolada pedagogikada jazolash metodlarini qo‘llash orqali ushbu metodning qanchalik samarali yoki samarasizligi haqida.

Kalit so‘zlar: jazolash, metod, ta’lim, tarbiya, pedagog, o‘quvchi, usul, jarayon, bola, vosita, Arastu.

Kirish

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg‘u, xulqatvor tarkib toptiriladi. O‘quvchining turli ko‘rinishdagi faoliyati uyushtiriladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e’tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy kamol topishiga olib keladi. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o‘zi tarbiya ko‘rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo‘lishi darkor. “Shuni bilingki, - deydi Arastu, ta’lim –tarbiya bilan shug‘ullanuvchi odam o‘zi tarbiya ko‘rmagan bo‘lsa ,boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar , sen o‘quvchingni tarbiya qilmoqchi bo‘lsang, avval o‘z ruhingni yaxshilashdan boshla . Mabodo, o‘zgalar aybini ixtiyor etmoq istasang, bundan oldin o‘z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko‘zi ojiz kishi qanday qilib ko‘rga yo‘l ko‘rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro va qadr-qimmat ato qila oladimi?” Jazo berish metodlari- bu o‘quvchilarning xatti-harakatiga salbiy baho berishdir.Jazo berish noma’qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloq tuzatishi, jamoa oldida uyalishi o‘zini gunohkor deb bilish hissini uyg‘otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo‘llab-quvvatlashi asosida jazo metodlari ham xilma-xil bo‘lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish , uyaltirish , qizartirish, xatti- harakatlarni jamoa oldida o‘rtasida muhokama etish, muayyan faoliyatdan chetlatish va boshqalar kiradi.Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his- tuyg‘u, xulqatvor tarkib toptiriladi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Ullibibi Jumanazar qizi Ozodova o‘zining tarbiya metodlari nomli maqolasida shunday fikrlar keltirgan: Tanbeh berish - eng muhim jazo chorasi. O‘qituvchi o‘quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.Uyaltirish - o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun mas’ul bo‘lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari vaboshqalar) oldida baho berish. Odanming eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharmhayodir. Insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalami tarbiyalashda shu his-tuyg‘ulami ehtiyyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘mida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish va tanbeh berishga bo‘linadi. Mazkur holatda metodning umumiylarini mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning xulqatvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Mariyenkonning tasnifida tarbiya metodlari guruhlari quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sinqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash. Tarbiyalanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1. Axloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi.

Kamola Sodiqjon qizi Isanova ham o‘z maqolasida quyidagilarni keltirib o‘tgan: Tarbiya metodlari – pedagog-o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan masadga muvofiq tashkil etish yo’llaridir.Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarbiyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta’lim muasssalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari belgilanadi.

Muhokama

Jazolash-bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqiush, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi. Maktablarda qo'llashi mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi: Tanbeh berish eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin. Ogohlantirish-noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi. Hayfsan berish agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib, unga hayfsan e'lon qilish mumkin. Uyaltirish-qizartirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyojkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin. Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka harakterli, ya'ni bitta bo'lsin, o'quvchilarning aybiga mos, muvofiq bo'lsin, tez-tez qo'llanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni haqqoniy ekanligi aniq bo'lsin va ular o'z ayblarini sezsinlar. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yana oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha'nini bukmasligi kerak.

Natija

Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtini, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi. O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalilanildi. Chunonchi, ko‘rgazmali, o‘quv qurollari badiiy-ilmiy adabiyotlar, san’at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slaydo, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg‘u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O‘quvchining turli ko‘rinishdagi faoliyati uyushtiriladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e’tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy kamol topishiga olib keladi. Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, jazolash metodini ham o‘z o‘rnida, o‘z vaziyatida qo‘llash joiz. Tarbiya ta‘lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlargacha ega. Ta‘lim-tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Lekin ular bir- biriga aynan o‘xshash emas. Tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo‘lib, u uzoq davom etadi hamda uning natijasini ko‘rish qiyinroq kechadi. Bolalarni tarbiyalash ular tug‘ilgan vaqtidan boshlanadi va muntazam ravishda ta‘lim berish bilan birga olib boriladi. Bolaning o‘sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Qurbanov.Ijtimoiy pedagogika.-Toshkent, 2003,41-b
2. J.Hasanboyev.Pedagogika , -“Noshir” Toshkent,2011,130-b
3. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazaryasi va amalyoti. Toshkent,2017
4. I.Inoyatov, A.Musulmonov ,I.Ro‘ziyeva , X. Usmonboyeva.Toshkent, 2016
- 5.B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent – 2017, “Sano-standart” nashriyoti.
6. Mirziyoyev Sh. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
- 7.Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” . Toshkent: Sharq, 1997

O‘qituvchining ta’lim berish jarayonida uchraydigan muammolar

**Guliston davlat pedagogika
instituti pedagogika yo‘nalishi
1-Kurs talabasi
Ismatova Munisa Shuxrat qizi**

Annotatsiya: Maqolada o‘qituvchining ta’lim berish jarayonida uchraydigan muammolar ,kamchiliklar va ularning yechimlari.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi,muammolar,o‘quvchi,nizo.

Kirish

Mamlakatimiz hukumati xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayotgan vazifalarini bajarish ko‘p jihatdan ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchiga bog‘liq.Hozirgi sharoitda ta’lim tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish,o‘quvchilarning xilma- xil faoliyatlarini uyushtirish,ularni bilimli,e’tiqodli,mehnatsevar,barkamol inson qilib o‘sirish o‘quvchi zimmasiga yuklatilgan xalqimizning kelajagi,mustaqil O‘zbekistonning istiqlolni ko‘p jihatdan o‘qituvchiga,uning saviyasiga,tayyorgarligi,fidoyiligiga,yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.Islom Karimov „Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli nutqida,,Bugungi kunda oldimizga qo‘yan buyuk maqsadlarimizga ,ezgu niyatlarimizga erishishimiz jamiyatning yangilanishi,hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz,rejalarimiz samarasi,taqdiri- bularning barchasi zamon talabiga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash” – degan edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mashhur faylasuf va mutafakkir,qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nasr Farobiy o‘qituvchiga shunday talab qo‘yadi:,,O‘qituvchi shogirdlariga qattiq zulm ham,haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim,Chunki ortiqcha zulm shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi,bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa,shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi “ deya ta’kidlab o‘tgan. O‘qituvchining salbiy munosabatlari o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilimini baholashda qo‘yilgan xatolar faqat baholashda qo‘yilgan xatolar faqat baholash komponentlarining o‘zgarishiga emas, balki butun o‘quv bilish faoliyatining

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

o‘zgarishiga olib keladi. Ular bu tizimga xos bo‘lgan kamchiliklarni kuchaytirib, uni kamsuqum yoki yoqimsiz qilib qo‘yadi.

Muhokama:

O‘qituvchining ta’lim berish jarayonida uchraydigan muammolar quyidagilardan iborat.

1.O‘qituvchining ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan muomala madaniyatiga rioya qilmasligi.

2. O‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini dars jarayonida hisobga olmaslik.

3. O‘quvchilarning pedagogik xususiyatlarini ta’lim jarayonida hisobga olmaslik.Pedagogik jarayonda rag‘batlantiruvchi va jazolovchi usullardan oqilona foydalana olmaslik.

4. O‘quvchilar bilan individual ishlamaslik.

5. O‘quvchilarning o‘smyrlik davridagi o‘yish holatlarini pedagoglar hisobga olmasliklari.

6. O‘qituvchilarning pedagogik jarayonda o‘quvchilarning oilaviy imkoniyatlarini hisobga olmasliklari.

O‘qituvchilarda pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlar yetishmasligi.

7. O‘quvchilarning qobiliyati,xotirasining rivojlanishini hisobga olmasliklari.

8. Pedagoglar hayotiy tajribalarga ega emasligi kabi muammolarga duch kelamiz.

O‘qituvchilar yaxshi o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarni doim maqtaydi,boshqa o‘zlashtirmayotganlarni hamisha koyiydi.O‘quvchilar bilimini bir biri bilan taqqoslaydi.Bolalarni bir biri bilan taqqoslash,birini ikkinchisiga ibrat qilib ko‘rsatish pedagogik tomondan ham,axloq- odob tomondan ham to‘g‘ri kelmaydi.Masalan:Doska yonida past o‘zlashtiradigan o‘quvchi javob bermoqda bunday holatda o‘qituvchi o‘quvchi gapini shartta bo‘lib unga ikki qo‘yadi va joyiga o‘tqizadi:,,Senga o‘rgatsa ham o‘rgatmasa ham befoyda”, „Sen hech qachon odam bo‘lmaysan” deb uni izza qiladi.Bu ham o‘qituvchilarning muammolaridan biri.Bu jarayon o‘quvchi psixikasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining baholashdagi kamchiliklari:kayfiyatga qarab baho qo‘yish,bolaning xulq- atvorini inobatga olib baho qo‘yish,bahoni ko‘tarish yoki pasaytirib qo‘yish,baholashda bag‘rikenglik qilish kabilar.Bunday holatlar o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Natija:

Bunday muammolarni yuzaga keltirmaslik uchun muammolarning oldini olishda pedagogik qobiliyat,pedagogik mahoratni egallashlari lozim.O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchining yosh va individual xususiyatlariga ham e’tibor berishlari lozim. O‘qituvchi bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish,tashkilotchilik qobiliyati,haqqoniylilik,talabchanlik,o‘zini tuta bilish, layoqatlilik fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak. O‘qituvchi biror tasodifiy xatti- harakati tufayli o‘quvchilarda u haqda bo‘lgan fikr ham ta’lim tarbiya jarayoniga salbiy ta’sir etishi mumkin.O‘qituvchi obro‘sini saqlayman deb kattalar ba’zida o‘quvchilar qadr- qimmatini yerga uradi,o‘quvchidan kechirim so‘rashni talab etadi,vaholanki bu muammoga o‘qituvchining noto‘g‘ri xatti harakati sabab bo‘lgan.

Xulosa:

Bunday muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik uchun o‘qituvchi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lmog‘i kerak. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini,qobiliyatlarni,pedagogik va psixologik xususiyatlarini hisobga olmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Voronin G.L. Konfliktbi v shkole. Sosiologicheskiye issledovaniya №3, 1994 g.
- 2.Liseskiy K.S. Preduprejdeniye mejlichnostntix konfliktov v sisteme otnosheniy starsheklassnikov A/R dissertasi M., 1994.
- 3.Riibakova M.M. Konflikt i vzaimodeystviye v pedagogicheskem prosesse. - M.: Prosve^nyeniye, 1991.

**Research Science and
Innovation House**

Ta’lim tizimidagi nizolar

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Erqulova Durdona Dilshod qizi**

Annotasiya: Ushbu maqolamning mazmuni ta’lim tizimidagi muammolar va ushbu muammolarni hal qilish haqida.

Kalit so‘zlar: Muammo, ta’lim, maktab, pedagog, o‘quvchi, nizo, yechim, texnologiya, zamonaviy, bilim.

Kirish

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovation pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020 yil 23 sentyabrь kuni qabul qilingan bo‘lib, uning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta’lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta’lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi, unda belgilangan masofaviy ta’lim haqidagi qoidalar o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Mavliyanov Adminjon o‘zining “ Islohotlar, yechimlar, muammolar ” nomli maqolasida keltirgan: Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, tahlil va o‘rganish natijalari hozirgacha ta’lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko‘rsatmoqda. Jumladan:

- ta’lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyatga joriy etilgan o‘quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to‘liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;
- ta’lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g‘oyalarni amaliyatga tatbiq etilishida tizimli va innovasioln faoliyat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan innovasion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyatga keng joriy etimasligi;
- o‘quv mashg‘ulotida ta’lim oluvchilarga bahslashish, o‘zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi; ayrim mashg‘ulotlard pedagoglar eski ma’lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida tayyorgarlik ko‘rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, kompetentliklari esa yetarli darajada emasligi sezilmoqda.

Baxtiyor Kadirov o‘zining “ Zamonaviy ta’limdagi muammolar ” nomli maqolasida keltirgan: Biz hammamiz zamonaviy bolaning xususiyatlari haqida gapirganda, o‘qituvchilarningham xususiyatlari haqida gapirib o‘tish joiz. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? Nazarimda ideal va haqiqiy ustoz haqida talabalarning fikrini bilish qiziq tuyuladi. Bitiruvchilar ideal o‘qituvchining fazilatlari orasida birinchi o‘rinda adolatni, haqiqiy talab sifatida esa talabchanlikni qo‘yadilar. Maktab hayotining ko‘plab muammolari kerakli va dolzarblik o‘rtasidagi farqda aks etadi. Bevosita oqibat - bu talabalarning o‘qituvchilardan, o‘z navbatida, o‘qituvchilarni talabalardan chetlashtirishi. Maktabdagi bolalar nafaqat bilimlarni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

o‘rganadilar, balki hayot qonunlaridan chuqur ko‘nikma hosil qiladilar, tuyulishi mumkinki, o‘qituvchilar ularni maxsus o‘rgatishmaydi. Shunday qilib, o‘g‘il va qiz bolalar juda yaxshi “o‘rganadilar”, ularning baholashi bilimga qaraganda ko‘proq o‘qituvchining munosabatiga bog‘liq. Shunday qilib, so‘rovda qatnashgan bitiruvchilarning 32,4 foizi baho o‘qituvchining o‘quvchiga bo‘lgan munosabatini sezilarli darajada belgilaydi deb hisoblaydi. Bolalar konformizm fanini mukammal egallaydilar – “agar siz muammolarga duch kelishni istamasangiz, “xo‘jayin-o‘qituvchilar ” ga itoat eting.

Muhokama

Hozirgi kunda ta’lim tizimida turli xil muammolar mavjud: birinchidan, fan dasturining kirish qismida o‘qitiladigan fanning dolzarbliji va ahamiyati, uning maqsad va vazifalari, uning keljakda nima kerakligini ochib berishga alohida e’tiborni qaratish lozim. Buni fanga tegishli hayotiy misollar, fan va texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarida erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu albatta ta’lim oluvchilarda fanga bo‘lgan boshlang‘ich motivatsiyani uyg‘otishga, keljakka bo‘lgan ishonch kurtaklarining yuzaga kelishiga yordam beradi;

- ikkinchidan, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Respublikamizga xorijdan ko‘plab yangi texnika va texnologiyalar, investisiyalar kirib kelmoqda, qolaversa o‘zimizda ham ishlab chiqarilmoqda, yangiyangi korxona hamda ishlab chiqarish tashkilotlari barpo etilmoqda. Albatta ertaga ularda mustaqil ishlay oladigan, ularni boshqara oladigan mutaxassis zarur. Shuning uchun bugungi kunda biz keljak uchun tayyorlayapgan mutaxassislarimizga ular tomonidan qo‘yilayotgan zamonaviy malaka talablarini aniq, to‘g‘ri, pala-partish qilmasdan, “bizdan ketdi - egasiga yetdi” tarzida ish qilmasdan o‘rganib, kerak bo‘lsa ushbu korxona va tashkilotlarga borib, ko‘z bilan ko‘rib, ularning yetakchi, tajribali mutaxassislari bilan hamkorlikda shakllantirish lozim. So‘ngra ushbu tayyor malaka talablari o‘quv dasturida o‘z aksini topishi lozim;
- uchinchidan, amaldagi o‘quv dasturlarida soatlari taqsimotini jadval shaklida berish. O‘quv rejadagi fan mavzusi soatlari taqsimoti o‘quv dasturida o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq. Chunki, pedagog dasturni ochganda soatlarni izlab yurmaydi, o‘quv rejasiga murojaat qilmaydi. Bu ishni osonlashtiradi va vaqtni tejaydi;
- to‘rtinchidan, o‘quv dasturida fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish deb: aqliy hujum, bumerang, sinkveyn, konseptual jadval kabi interfaol usullar yozilganini kuzatamiz. Axir ular pedagogik texnologiyalar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

emas-ku, ular pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol usullardir. Axborot texnologiyalari bo'yicha esa biron bir texnologiya nomi yozilmagan. Demak, bu noto'g'ri yondashuv va talqin etilgan.

Natija

Ta'lif tizimidagi muammolarni hal etish uchun asosan pedagogning o'zi yuksak bilim salohiyatga ega bo'lishi kerak. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganida: " Zamonaviy yetuk kadrga ega bo'lish uchun avvalo zamonaviy yetuk pedagog chiqarishimiz lozim" — degan fikrlari bejiz emas. Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga to'liq javob bermasligi, ta'lif tizimida o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta'lif va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi. Pedagog dars o'tishi jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi kerak. Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rnnini topa olmayapti. Sir emas, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining taxminan 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga birinchi yili o'qishga kirmoqda, xolos.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda ta'lif tizimida juda ko'plab muammolar mavjud, bularga alohida e'tibor berish lozim. Chunki " Kelajak yoshlar qo'lida" deyilganidek: yoshlarni hozirdan boshlab tayyorlash yukasak bilim salohiyatga ega qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-soni Farmoni..
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldag'i "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-soni Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami, 2017 y.)


**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

3.Qulieva Sh.H. Talim tizimi va tizimli yondashuv tushunchalari // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2006.

4.Muslimov N.A. Qulieva Sh.H. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007.

5..Q.Tolipov., M.Usmonboeva . Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.



**Research Science and
Innovation House**

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**
Issue 2. February 2024

TARBIYASI OG‘IR BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH USULLARI

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Burxonova Malika Fazliddin qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish hamda kamchiliklarini tuzatish va ota-onalar bolalarning salbiy xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlamaganda bola o‘z xatti-harakatlarining oqibatlari haqida.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, oila muhiti, o‘qituvchi, ma’sul shaxslar, qiziqtirish.

Kirish: Ozbekiston Respublikasida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. 2020 yil 23-sentabrda „Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Yoshlar tarbiyasida ayrim bo‘shliqlar vujudga kelayotganini fikrlash doirasi past, bilimi zaif, yosh bo‘lib jinoyatga qo‘l urushi, o‘qishga qiziqmaydigan, tarbiyasi og‘ir bolalar borligi tashvishlidir. Bolaning maktab vaqtida ta’lim olishida o‘qituvchi, pedagog xodimlar ya’ni sinf rahbarlar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xizmati kattadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek „Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlарimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim- yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligasodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz. Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”. Prezidentimiz ham yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi va kamol toptiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Kuzatishlardan bilamizki, oilaning to‘liq yoki noto‘liqligi ham bolalar va o‘smlar nazoratsizligining kelib chiqishiga katta ta’sir qiladi. Odatda 6 oylik bola unga g‘amxo‘rlik qiladigan ota-onasiga bog‘lanib qoladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Ota-onaning oldida bo‘lish, ular bilan muloqot qilish bolaga juda yoqadi, g‘amxo‘rligini bildiradigan so‘zlar, harakatlar bola uchun katta ahamiyatga ega. Bolalarning xulq-atvori va tarbiyasiga ta’sir etuvchi bu ota-ona, oila a’zolar va maktab jamoasidir. Bolalarni qiziqishiga qarab to‘garakalarga jalb qilish va davra suhbatlari tashkil etish kerak.

Maktablarda ham tarbiyasi og‘ir bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun alohida ishlар olib borish tartibi:

Tarbiyasi og‘ir bolalarning yashab turgan joyini ro‘yxatga kiritish;

Tarbiyasi og‘ir bolalar va noqobil farzandlar uchun alohida kuzatuv ishlarni olib borish;

Mahallaning ta’sirni yanada oshirish;

Bolalarning oilaviy muhitini o‘rganish va ota-onalari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash;

Maktab psixologi alohida tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlashi va psixik kuzatishlar olib borishi;

Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

O‘ziga va tengdoshlariga bildirmagan holda profilaktik tadbirlar tashkil etish va nazoratchi pedagoglarni jalb qilish.

Psixologik adabiyotlarda ham bolalarni jazolash o‘sha bola onggiga keskin ta’sir qilishi aytib o‘tilgan. Hozirgi kunda tarbiyasi og‘ir bolalar psixologlar, shifokorlar, huquqni himoya qilish organlari, pedagoglar, sotsiologlar va faylasuflarni ham qiziqtirib kelmoqda. Ota-onalarning farzandga e’tibor bermasligi, bolalarda bo‘sish vaqtlar ko‘pligi, balog‘at yoshidan o‘ta olmaslik, ota-onaning tomonidan bola tarbiyasiga bo‘shliqqa yo‘l qo‘yish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanib boryapti va tarbiyasi og‘ir bolalar vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Muhokama: Tarbiyasi og‘ir bolalarda birinchi navbatda oilaviy muhitni, sog‘lom oilaviy munosabatni o‘rnatish va oila-maktab hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, salbiy ko‘plab omillarning kelib chiqishining oldini olish kerak bo‘ladi. Oiladagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, e’tibor va qo‘llab-quvvatlash shu bilan birga hissiy bir-biriga intilib yashash bolaning ruhiy o‘sishiga katta turtki bo‘ladi. O‘qituvchining tarbiyachilar, sinf rahbarlari va maktab direktorlarining o‘rinbosarlari seminarida: „Kimni, qanday belgilariga qarab tarbiyasi og‘ir bola deb hisoblaysiz” degan savolga 500 ga yaqin tarbiya qilish qiyin bo‘lgan bolalar belgilab ko‘rsatib o‘tilgan.

Natija: Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an’ana va urf-odatlarning roli katta. Vaqt o‘tishi bilan payti kelganda uning o‘zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nima qilishga majburligini, kimning oldida qarzdorligini va bu qarzlarni boshqa kishilarga o‘z ota-onasiga, do‘stlariga va nihoyat o‘z bolalariga nisbatan mehr-muhabbat, mehribonligi bilan uzishni tushuni yetadi. Ruhiy tadqiqotlarga ko‘ra inson fe'l-atvorining 80 foizi 5 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanib bo‘lar ekan.

Xulosa: Hurmatli ustozerlar ota-onalar farzandlaringizga muammolarni bartaraf etishda ularga kerakli bo‘lgan maslahat, taklif va yordamni bering. Tarbiya qobiliyatlarni rivojlantiradi, lekin ularni yaratmaydi. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo‘ladi. Tarbiyali, bilimli, salohiyatli bolalar jamiyatimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy adabiyotlarimiz azaldan odobga odobga asoslanganligini yodda tutishimiz lozim. Barcha kashfiyotlar ichida eng chiroylisi yaxshi tarbiya olgan bolalardir.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning 2020 yildagi „Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
2. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.T.:O‘qituvchi.1992y.
3. I.Karimovning „Yengilmas kuch” asari.
4. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T., „Ma’naviyat”, 2000. -112 bet.
5. Sa’diy Sheraziyni „Guliston” asari tarbiyaga oid.
6. Ibn Sino „Tib qonunlari” asarida „Tarbiyaga haqida” nomli bo‘limidan.

**Research Science and
Innovation House**

Zamonaviy ta’lim afzalliklari va imkoniyatlari

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 1- kurs talabasi
Axmedova Munisa Shukrullayevna**

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim afzalliklari, zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llashning samarali usullari haqida.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, texnologiya, usul, metod, vosita pedagog, tarbiya, jarayon, o‘quvchi, maktab, talaba.

Kirish

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqr islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqidir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni echish imkonini tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”. Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog‘chalar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya’ni to‘rt yil ichida respublikamizda bog‘chalar soni 3 barobar oshib, bog‘cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Davlatva Adibi Raxmatovna o‘zining “Zamonaviy ta’lim” deb nomlangan maqolasida quyidagilarni keltirib o‘tgan: zamonaviy ta’lim-anaviy o‘qitish usullaridan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

sezilarli darajada farq qiladi va bugungi kunda maktablarda fan va texnologiyalarga ko‘proq e’tibor qaratilgan holda keng qo‘llaniladi progressiv zamonaviy ta’lim barcha o‘quvchilar bir xil tushunish darajasida deb o‘ylashishdan ko‘ra ko‘proq talaba ehtiyojlariga ko‘proq qaratadi u so‘roq qilish tushuntirish ko‘rsatish va hamkorlik qilish usullarini o‘z ichiga olgan faoliyatga asoslanadi zamonaviy ta’lim asosan onlayn ta’lim mustaqil ta’lim usullari demakdir. Online ta’limda o‘quvchilar o‘zlarining akademik maqsadlarga erishish yo‘lida yo‘naltirishadi va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish kerakligini bilib olishadi. Niyozqulov Sayhun "Zamonaviy ta’lim imkoniyatlari" nomli maqolasida quyidagilarni keltirgan: Adabiyotlar va tadqiqotchi olimlar ilmiy ishlari shuni ko‘rsatdiki an’naviy ta’lim tizimini va zamonaviy ta’lim tizimi ta’lim sifatini ta’minalash. kadrlar tayyorlashda turli modelining o‘rganish va tahlili shuni ko‘rsatdiki, tizimining asosiy kamchiliklari uning tizimdagagi demokratik va bozor o‘zgarishlari talablariga javob bermasligidir. Ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro yaqin aloqasi va o‘zaro integratsiyasi ta’minlanmaganligini korsatdi. Foydalanuvchilar, ya’ni ta’lim oluvchilar yaxshi natijalarga erishishi maqsad qilgan xolda zamonaviy ta’lim yoki onlayn ta’limni afzal ko‘rishiadi. Elektron ta’lim sanoati jadal rivojlanmoqda. Ko‘pgina kompaniyalar ta’lim oluvchilar uchun eng mos bo‘lgan eng yaxshi moslashtirilgan ta’lim jarayoni uchun maxsus eLearning portalini ishlab chiqmoqda. Meliboyeva Zaxro Rasulova Ta’lim tizimidagi texnologiyalar nomli maqolasida keltirgan : Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy me’roslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o‘ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalarini vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma’lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ta’lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta’lim darslarida foydalanishi mumkin bo‘lgan internetga joylashtirilgan ko‘plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin.

Muhokama

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashhg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

orqali ta’lim-tarbiya berish yo’llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarni turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim. Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallah va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Natija

Hozirgi kunda ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish juda ham katta samarali usul hisoblanadi. Demak, oliy ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari deganda ta’limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular o‘quvchilarni rivojlantirish orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ijodkorlik va mustaqillik. Ular interaktiv ta’lim olish imkonini beradi; talabalarning o‘rganilayotgan fanga qiziqishini oshirish; o‘rganishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirish (samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, tez o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashish, psixologik stressga chidamlilikni oshirish, nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish va boshqalar); yangi sotsiologik bilimlarni olish

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

usullarini o‘rgatish.Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim –tarbiya sohasidagi ulkan odimlarni boshlab berish bilan birga tahsil beruvchi har bir pedagog zimmasiga ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi qator vazifalarni yukladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim – tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday ta’limning maqsadi – bilimni hamda uni amalda qo‘llay bilish ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko‘rsatmalarini ishlab chiqish. Ta’lim faoliyati harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli usullarni umumlashtirgan holda amalda qo‘llay olish talab etilmoqda. Ta’limning globallashuvi sharoitida ta’lim sohasi bilan jamiyatning rivojlanib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlari o‘rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelganligi kuzatilmoxda. Ta’lim tizimi oldiga barkamol shaxsni shakllantirish, ta’lim sohasibbilan mehnat bozori o‘rtasida nomutanosiblikni qisqartirish hamda axbarot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirishkabi yangi dolzarb vazifalar qo‘ymoqda.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytganda zamonaviy ta’lim jarayonida yangi texnika texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda yoshlarga ta’lim tarbiya berishda ularning ongini rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi. Chunki 21-asr texnologiya asri sanaladi. Hozirgi kunda yoshlarga zamonaviy bilim berish orqali yuksak kelajakka erishish osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizzo‘jayeva N. N. “Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat”-Toshkent.: 2003-17b.
2. Yo‘ldoshev J, Usmonov S. Pedagogic texnologiya asoslari. –Toshkent,: O‘qituvchi, 2004, 46 b
- 3.Bespalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. –Moskva: Pedagogika, 1989.
- 4.Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: Tarbiyachi, 1997.
- 5.Yo‘ldoshev J./. “Ta’lim yangilanish yo‘lida”. – T.: Tarbiyachi. 2000.
- 6.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000.

O‘qituvchilar jamoasida sog‘lom psixologik muhit yaratish

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Xamidova Marjona G‘ayrat qizi**

Annotasiya: Ushbu maqola o‘qituvchilar jamoasida sog‘lom psixologik muhit yaratish, Jamoadagi psixologik zo‘riqishlarni bartaraf etish, ta’lim muassasasi rahbari va bo‘ysunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish haqida.

Kalit so‘zlar: jamoa, psixologiya, muhit, sog‘lom, rahbar, kasbiy mahorat, muassasa, ta’lim, mehnat, faoliyat, xodim, bo‘sh vaqt, psixokorreksion, ijtimoiy, ta’lim, metod.

Kirish

Pedagogik jamoalarda psixologik muhit masalasi bir tomondan muayyan mehnat jamoasidagi psixologik muhit sifatida talqin qilinishi mumkin, ikkinchi tomondan pedagogik jamoaning o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib, murakkab ijtimoiy psixologik va pedagogik jarayonlar zamirida yuzaga keladigan, pedagog shaxsidagi individual xususiyatlar turli psixologik fenomenlarga boy serqirra ilmiy-amaliy tadqiqodlar uchun ob’ektdir. Jamoani ijtimoiy-psixologik muhiti - guruhning eng ajralmas psixologik xarakteristikasidir, bu guruhning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan alohida ob’ektlarni (hodisalarini, jarayonlarni) aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ijtimoiy jarayondir. Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo‘lmaydigan faktdir. Jamoada ijobiyligi muhit mavjud bo‘lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki har qanday mehnat jamoasi oldiga qo‘yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin hozirlanadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu ham bo‘lsa, mehnat jamoasi a’zolarining o‘z kasbidan qoniqqanligidir. Chunki, jamoada ijobiyligi muhit bo‘lishi uchun, jamoa azolari o‘zidan, ayniqsa, o‘z kasbidan qoniqqan bo‘lishlari zarur. O‘qituvchilar jamoasining psixologik xususiyatlarini o‘rganish,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

pedagogik faoliyat va o‘qituvchi muloqotining o‘zaro munosabati masalasi psixologiya fanida bir qadar tadqiq qilingan muammolardan biridir. Biroq mamlakatimizda, hozirgi zamon bolalariga pedagogik ta’sir o‘tkazishda o‘qituvchi ishlayotgan mikromuhitning ta’siri, bu sohada o‘qituvchilarda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik jamoani boshqarish orqali u yerda ijodiy muhit va hamkorlikni, kasbga fidoyilik va qiziqishni shakllantirish va bu muammoning psixologik imkoniyatlarini aniqlash o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Rustamova Nilufar Asliddinovna o‘zining maqolasida quyidagilarni keltirib o‘tgan: Pedagogik jamoada boshqaruv etikasi va rahbar fazilatlari o‘qituvchi va o‘quvchilarda sog’lom ruhiyat, o‘qishga qiziqish, kasbga muhabbat va kelajakka ishonch hosil qilishda yetakchi ahamiyatga ega. Fazilat – bu ijobjiy xislat yaxshi sifat yoki xususiyatdir. Kishilarda fazilatlarining turlicha bo‘lishi hamda xulq – atvorlar insonning badanini aylanib yuradigan suyuq moddalariga ko‘p jihatdan bog’liq ekanligi tajribada ko‘zatilgan. Qadimgi tibbiyotning yirik namoyondasi Gippokratning inson badanida qon asosiy o‘rinni ishg’ol etsa bunday odam harakatchan yengil bo‘ladi, taassurotlarning almashinishiga tez ko‘nikib keta qoladi, o‘z atrofida sodir bo‘ladigan voqyealarga darhol va ishtivoq bilan aralashadi degan fikri bejiz emas. Mana shu kishilarni Gippokrot sangviniklar deb atagan. Bu lotincha “sangvinik” ya’ni “qon” degan so‘zdan kelib chiqqan. Sangviniklar tuyg’u xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: Yangi kishilar bilan tez til topishadigan; Bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko‘nikadigan; Bir turda bajaradigan ishlarni yoqtirmaydigan; Yangi sharoitga osonlik bilan o‘rganadigan; Xushchaqchaq; Harakatlari shiddatli; Nutqi tez; Kelajakka ishonch bilan qaraydigan; So‘zini aniq va ma’noli qilib imoishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Karimova Zebo ham o‘z maqolasida psixologik muhitni yaratishga oid ko‘plab yechimlar keltirgan:

- jamoada ishbilarmonlik, ish kuni davomida ijodiy kayfiyat, xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarda quvnoq ohanglari, kayfiyatdagi optimizm hukmronlik qiladi;

- munosabatlar hamkorlik, o‘zaro yordam, xayrixohlik tamoyillari asosida quriladi; guruh a’zolari hamkorlikda ishlarda qatnashishni, bo‘sh vaqtlarini birga o‘tkazishni yaxshi ko‘radilar; munosabatlarda ma’qullah va o‘zaro qo’llabquvvatlash ustunlik qiladi, yaxshi konstruktiv tanqid bildiriladi;
- tashkilot xodimlari faol, kuch-qudratga to‘la, o‘zaro yordamda tezda javob berishadi,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

xodimlarning o‘zaro yordami kerak bo‘lsa, hamkasbini «to‘laqonli qamrab olishga» tayyorligi;

- ayrim xodimlarning yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari tashkilotning barcha a’zolarining hamdardligi va samimiyligi ishtirokini keltirib chiqaradi, agar muvaffaqiyatga erishilsa, xodimlar o‘z hamkasblari va o‘z tashkilotlari bilan faxrlanishni his qilishadi;
- tashkilot tarkibidagi tarkibiy bo‘linmalar yoki jamoadagi mikro guruuhlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro kelishuv, tushunish va hamkorlik vujudga keladi;
- kadrlar qo‘nimsizligining pastligi. Xodimlar boshqa tashkilotlarga teng, ba’zan esa yuqori lavozimlarga o‘tkazilishidan ham bosh tortishadi;
- tashkilot uchun qiyin paytlarda jamoaning jipsligi va hissiy birligi mavjud ("bitta - hamma uchun, va hamma – bir kishik uchun").

Muhokama

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga belgilanayotgan zamonaviy talablar ta’lim va yoshlar to‘g‘risidagi hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ‘ibot qiladigan; o‘z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning sub’yektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o‘quvchilar va pedagoglar ham korligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda m otivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.O‘qituvchi-tarbiyachi shaxsini rivojlantirishning kasbiy va universal xususiyatlarini o‘qituvchi shaxsining kasbiy mahoratining mohiyatini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular hodisani tahlil qilishning quyidagi asosiy yondashuvlari va darajalari nuqtai nazaridan hisobga oladigan murakkab yaxlit tizimni taklif qiladilar: normativ-ro‘l shaxsiyat farqlanadi. (differensial-tipologik va differensial darajada bo‘linish, subyektiv). Bundan tashqari bir qator atamalar va tushunchalarda aks ettirilgan individual integrativ hodisalar orqali shaxsni o‘rganishda mavjud tendensiyalarni hisobga olish zarur deb hisoblaymiz. Garchi ularning aniq va mantiqiy uyg‘un tasnifi hali taklif qilinmagan bo‘lsa-da, ammo bu hodisalarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning shartlari va shakllanishining natijalari hisoblanadi.

Natija

Hamma gap psixolog o‘zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o‘qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozisiyasi juda muhim rol o‘ynaydi. Psixolog pozisiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- pedagog bilan bo‘lgan munosabatga ustanovka;
 - pedagoglarni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka
- subyekt – subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka. Ta’lim jarayonida shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo‘lgan konstruktiv hamkorlikni ta’minlay oladi. Bundan tashqari, pedagogik professionallikning shaxsiy dunyoqarashini rivojlantirish, ayniqsa istiqbolli o‘qituvchining o‘zini-o‘zi qadrlashi va ijodiy o‘zini-o‘zi anglashi, pedagogik ishning individual o‘ziga xosligi muhum ahamiyatga ega. Bu o‘qituvchining mavjud kasbiy tajribani yangi yondashuvlar, ma’nolar, mazmun va texnologiyalar bilan boyitishga tayyorligining potensial shartidir. Pedagogik professionallikning asosiy tarkibiy qismi – o‘qituvchi shaxsining professionalligi-psixologik va pedagogik fanda ko‘rib chiqilgan rivojlanish parametrlari nuqtai nazaridan o‘qituvchining shaxsi to‘g‘risidagi bir qator fikrlar asosida amalga oshirildi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning pedagogik ishdagi ro‘lini belgilaydigan g‘oya yangilik emas. Bu tarixan kamolotga yetdi va o‘tmishdagi ko‘plab mutaffakkir va pedagog shaxslarning asarlarida ko‘rib chiqilib, asosan o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari va fazilatlariga talablarni ochib beradi, bu o‘qituvchilik kasbining standartlariga mos keladi va o‘qitishda muvaffaqiyat va samaradorlikni ta’minlaydi. Mustaqil tadqiqot muammosi sifatida ularni o‘rgatish, tuzish, tasniflash va iyerarxizatsiya qilish P.F. Koptereva, M.D. Levitovaning yozuvlarida, didaktologiya va pedagogika g‘oyalarining bevosita ta’siri ostida pedagogik ishning birinchi professional modellarida boshlanadi. Muayyan turg‘unlik davridan keyin yangilangan gumanistik paradigmalar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy muammosi o‘rganilmoqda. O‘qituvchilarda sog‘lom psixologik muhit yaratish uchun avvalo o‘qituvchining psixologiyasini o‘rganish talab etiladi. Muhitni sog‘lomlashtirishda psixokorreksion yordamning samaraliligidagi baho berish borgan sari aktuallashmoqda. Bu mutaxassisning ta’sir eta olishi va psixokorreksion ishning sifatliligidandir.
- Ishning samaradorligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma’lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida

psixologlar turli metodlardan foydalanadilar.

- Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi.
 - Ishning bahosini bu metoddan xabari bo‘lmagan ekspert berishi zarur.
- Psixologning tarbiyaviy-ta’limiy sifatini hisobga olish kerak. - Psixologning kasbiga bo‘lgan qiziqishini hisobga olish zarur.
- Guruhiy korreksion ishda psixologning professional bo‘lishi katta ahamiyatga ega.
- Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta’siridan so‘ng quyidagilarga qarab baholanadi:
 - Ichki kechinmalarning sub’ektiv mohiyatining o‘zgarganligi.
 - Ta’sir etgandan so‘ng respondentning ijobiy tomonga o‘zgarishi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida o‘qituvchi alohida e’tibor talab qiladigan obyektdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, odatda o‘qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo‘ladilar. O‘qituvchilar orasida sog‘lom psixologik muhit yaratish kerak. Rahbarlarning kasbiy mahoratini oshirish, mehnat jamoasini boshqarish va psixologik muhitni holatini normallashtirish bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish, tashkiliy va tarbiyaviy ishlar usullari va uslublarini o‘rganishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Djurayev R. Ta’lim menejmenti. T.: Voris-nashriyot. 2006 yil.
- 2.Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.
- 3.Turg‘unov S. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.
- 4.Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.
5. G‘oziyev, E. (2010). Umumiyl psixologiya. Yangi asr avlod.
- 6.Davletshin, M. (2002). Umumiyl psixologiya. TDPU.

Ta’lim jarayonida Pedagoglarning kasbiy faoliyati

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika

Yo‘nalishi 1-kurs talabi

Xushbaxtova Diyora Abdusamad qizi

Annotasiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini takomillashtirish,talim sohasida yangicha yondashuvlar,talim jarayonini yangilash g‘oyalari shakl va vositalari haqida umumiy tushuncha beriladi.

Kalit so‘zlar: Kasbiy faoliyat, kompitensiya,pedagogik mahorat, texnalogiya, o‘quvchi, ta’lim, fan.

Kirish: Talim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash g‘oyat murakkab jarayondir.

O‘quvchilarni tarbiyalashda faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan pedagoglar bilangina amalga oshirish mumkin.

Pedagog Pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun avvalo o‘zi tarbiyalangan kasbiy bilimga ega,o‘quvchilarni ergashtira oluvchi, bilim, ko‘nikma, malakasi shakllangan bo‘lishi lozim. Shundagina jamiyatning ijtimoy vazifalarini ijobiy hal eta oladi va u quyidagi shartlar asosida faoliyat yuritishi lozim.

- kasbiy faoliyatni tashkil etishda yangicha yondashuv
- ilg‘or va ijodiy izlanuvchanlik
- demokratik boshqaruvni egallashi
- ta’lim oluvchining erkin fikrlashiga sharoit yaratish
- bola shaxsiga xurmat bildirish
- pedagogning nutq madaniyati.

Bo‘lajak pedagog asosan nutq madaniyatiga etibor qaratishi lozim. Uning nutq texnikasi mukammal, fikrlari teran va nutqi ravon, aniq va tushunarli bo‘lishi muhum. Chunki nutq va unda ifodalangan so‘z kishiga ta’sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Bolaga nutq orqali tasir o‘tkaza olish kabi faoliyat jarayonida yaxshi natija beradi. Har bir ta’lim oluvchining, shaxsiy qobiliyatlariga tayangan holda, intellektual salohiyatini hisobga olgan holda yondashiladigan bo‘sagina ta’limiy faoliyat o‘z maqsadiga erishadi. Ta’limiy faoliyat, kasbiy faoliyat muvaffaqiyati kaliti bu nutq madaniyati desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi:

Abdulla Avloniyning tarbiyaga oid so‘zлari hali ham o‘z kuchiga ega."Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot,yo-najot-halokat,yo-saodat,yo-falokat masalasidir". Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning ta’lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta’sir ko‘rsatadi. "Shaxsiy kompetentsiya - o‘quv jarayonida o‘quvchilarning o‘zini o‘zi anglash asosidir"

Shaxsiy fazilatlarga ya’ni shaxsiy kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

- talabchanlik
- adolatlilik
- bag’rikenglik
- halollik
- insonparvarlik
- kirishimlilik
- mehribonlik.

Muhokama: Hozirgi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham e’tiborini ta’lim tarbiyaga alohida etibor qaratayapti.Boshlang‘ich talimga alohida to‘xtalib o‘tdilar. Har bir oilada hamma bolalar Maktabgacha talim (Bog‘chalar)ga borish majburiy qilib qo‘ydi.Bundan asosiy maqsad bolalarni yoshlik chog‘idan boshlab bilimli qilib, uni fikrlash qobiliyatini o‘stirish,tillarni o‘rganish,ularni salohiyatini oshirishga etibor qaratgan.Buning uchun ham oliy pedagog o‘z mahoratini ko‘rsatib bo‘lajak pedagoglarni tarbiyalash,bilimlarini oshirishi kerak.

O‘quvchilarni o‘quv jarayonida texnalogiyalardan,o‘quv metodlardan foydalana olishi bu uning aqliy qobiliyati shakillanishini rivojlantiradi.Pedagogning kasbiy faoliyati uning ish jarayonida aniq ravshan bo‘ldi.O‘qituvchi bolalarni dunyoqarashini shakllantiradi,uni ongini rivojlantiradi.

Natija: 2020-yil 23-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 637-son bilan "Talim to‘g‘risida" Qonunning yangi tahriri imzolandi.Ushbu qonun 11-bob 75 ta moddadan iborat.Ushbu qonunda ham Pedagoglar uchun ham

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

alohida huquqiy maqomlar berildi.Masalan:44,45,46 - moddalar Talim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi haqida edi.Uning maqsadi pedagog o‘qituvchilar o‘z haq-huquqiga ega bo‘lishi,erkin fikrlay olishi,shaffoflik bilan ish yuritishini taminlab beradi.Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi.Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab quvvatlandi.O‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishularning ijtimoiy maqomi va obro‘sni hisoblanadi. Shuningdek o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Xulosa: xulosa qilib aytganda talim tarbiya berishda o‘qituvchi va o‘quvchi pedagogik faoliyatga psixalogik tayyor bo‘lishi kerak.O‘sib borayotgan yosh avlodni aniq bir maqsad yo‘lida kamol toptirish uning ongini dunyoqarashini,etiqodini o‘stirish bugungi kun pedagoglarning oldidagi vazifa hisoblanadi.Tarbiya o‘zi oiladan boshlanadi.Oila jamiyat tayanchi hisoblanadi.Bolalarga tarbiya orqali har tomonlama yetuk va komil inson qilib tarbiyalash kelajagimizga katta foyda olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A. Xoliquov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
2. T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.- T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. - 240 bet
3. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq"O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Toshkent 2004

**Research Science and
Innovation House**

Ta’lim sohasida olib boriladigan hozirgi islohotlar

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Shukurillayeva Komila A’zamjon qizi**

Annotatsiya:

Ushbu maqolamning mazmuni talim tizmida olib boriladigan islohotlar va yangiliklar haqida.

Kalit so‘zlar: talim, islohot, yuksalish , yangi texnologiyalar, yangi o‘zbekiston, oliv ta’lim, ta’lim to‘g’risidagi davlat qonunlari.

Kirish: Mamlakatimizda mustaqilika erishgandan keyin keng ko‘lamli ishlar olib borildi . Istiqlolning dastlabki yillarda talim-tarbiya tizmini rivojlantirish, zamonaviy bilim va kasb- hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’nnaviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minalash, yoshlarni qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyillik kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqa .Keyingi yillarda yurtimizda maktab, o‘rta – maxsus va oliv talim tizmida raqobat muhitini shakillantirish, aholining oliv talim bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar qatoriga yetkazishga alohida e’tibor berilmoqda.

Prezidentimiz takidlagandek : “ Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalar asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkonи tug’iladi. Shunday ekan , Yangi O‘zbekistanostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikirni qo‘llab-quvvatlaydi”.

Prezident tomonidan 2023-yilni Insonga e’tibor va sifatli talim yili deb e’lon qilinganiga javoban , Yo‘l xaritasining bugungi taqdimoti rejlashtirish jarayonining tugashi emas , balki talim soxasida yanada yuqori natijalarga erishishdagi yo‘lining boshlanishidi.

Adabiyotlar tahlili va Metadalogiyasi

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliv ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliv

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ta'lismi tizimli isloq qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lismi modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lism texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi** sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ta'lism sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lism tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lismi tizimli isloq qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lismi modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lism texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan **O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi** sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

“Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asarida shunay deyilgan Talimni tarbiyadan, tarbiyani esa talimdan ajiratib bolmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.. Bu haqida fikr yuritganda men Abdulla Avloniyining “Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot ,yo najot – yo halokat , yo saodat –yo falokat” masalasidir degan chuqur manoli so'zlarini eslayman .Buyuk marifatparvar bobomizning bu so'zlar o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtida ham biz uchun shunchalik , balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

Talim to'g'risidagi so'ngi malumotlar keltirilishicha O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23- sentyabr kuni “ Talim to'g'risida”gi qonuning yangi tahririni imzoladi qonunga muovfiq talim turlari quydagilardan iborat . Maktabgacha talim va tarbiya : Umumiyl o'rta maxsus ta'lism : Professional ta'lism : Oliy ta'lism : Oliy talimdan keying ta'lism : Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish : Maktabdan tashqari ta'lism :

O'rta professional ta'lism kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov shartnomaga asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lism shakillari bo'yicha amalga oshiriladi . Qonunga ko'ra davlat oliy ta'lism, o'rta maxsus ,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

professional ta’lim tashkilotlari va uning fillalar Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi .Nodavlat ta’lim tashkilotlariga letsenziya ta’lim sifatini nazorat qilish davlat enspeksiyasi tomonidan beriladi.

Natija

O’rganish ,o‘qish, bilim olish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda . Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu tashabbuslarga javoban har qaachongida ko‘proq o‘qib o‘rganib o‘z ustimizda yanada ko‘roq ishlab , Xalqimiz, vatanimizga tayanch bo‘ladigan nafaqat tayanch balki ertangi kuniga ishonch b’ladigan va kalajagini belgilab beradigan farzand, kadr mutaxasisi inson bo‘lib yetishishimiz har qachongidan zarur ekanligini mana bugungi kun taqazosi .

Vatanimiz mustaqilligidan keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlar, aniqrog’I abuterentlar uchun oliy o‘quv yurtlariga kirish imkoniyati bo‘lgan bo‘lsa 2019 yildan 3ta 2020 yildan esa bu imkoniyat 5 taga yetganligi abuterentlar uchun katta yangilik bo‘ldi.

Xulosa

Prezidentimiz xalqga qilgan murojatida shunday deydilar . Maktab tizmida o‘qtuvchi degan nomni qadrini ko‘tarish uchun uning ma’naviy moddiy ta’mintoni oshirish buning uchun uning ularga to‘lanadigan oylik ish haqini oshirish belgilab qo‘yildi. O‘zbekistonni yanada rivojlantirish va rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘sish maqsadida qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda . Xalqimizni ertangi kuni qanday bo‘lishi yoshlarga qanday ta’lim- tarbiya berishimizga bog’liqdir.Yoshlarni keng fikirlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ,komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim tarbiyaning asosiy maqsad va vazifasi bo‘lshi muhimdir.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasining” Ta’lim to‘g’risida”gi qonuni. T: O‘zbekiston 2020-yil
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak yengilmas kuch” asari 2010-yil
- 3.O‘zbekiston Ta’limga oid yangiliklar. 2022 yil
4. B.X. Xodjeyev “Umumiy pedagogika nazariyasi va tarixi” Darslik 2017 yil .

**Talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida axborot
Texnologiyalari**

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Shakarova Ruxshona Iskandarovna**

Annotasiya: Ushbu maqola talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning foydali va zararli tomonlari, ta’limda axborot texnologiyalarini qo’llash haqida

Kalit so‘zlar: talaba, pedagog axborot texnologiyalari, mustaqil ta’lim, kompyuter, innovatsiya, zamonaviy texnika, jarayon kadr, qurilma.

Kirish

Ta’lim jarayoni kundan-kunga taraqqiy etib borayotgan jamiyat ijtimoiy sohalarining biri hisoblanadi. Bu sohaga axborot texnologiyalarining roli va dolzarbligiga e’tibor qaratilishining mohiyati shundaki, ayni paytda “ta’lim” ustuvor milliy loyihasini amalga oshirish doirasida axborot texnologiyalari ta’lim jarayoniga faol joriy etilmoqda. Zamonaviy texnik o‘quv vositalarining konsentratsiyasi o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishga yordam beradi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi, o‘qituvchilar ijodiyotini rivojlantirishga yordam beradi, masofaviy ta’limga imkon beradi, uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantiradi va shu bilan o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Hozirgi kunda ta’limni rivojlantirish unda sifat darajasini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo’llanilishi keng tarqalgan metodik qo’llanmalardan biriga aylandi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarni talimda kiritilishi ta’lim jarayonini osonlashtirdi desak adashmaymiz. Mustaqilligimizdan so‘ng “kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan ta’lim sifatiga e’tibor yanada kuchaydi. Unda o‘qituvchi bilim malakalarini oshirish o‘quvchilar, talabalar bilan ishlashda yetarlicha bilim va malakalarga ega bo‘lish uchun alohida kurslar tashkil qilindi. Ushbu kurslar asosan ta’limda innovatsion qurilmalar ya’ni kompyuter imitatsion modellarni dars jarayonlarida foydalanash hamda zamonaviy texnologik qurilmalardan keng qo’llamda ishlatilish imkoniyatlarini berdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 3-bob 2-qismida ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy qilishga keng e’tibor qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Sh.Rustamov o‘zining “Talabalarda mustaqil ta’limni tashkil etish” nomli maqolasida keltirgan: Axborot texnologiyalari talabalarga kompyuterda juda ko‘p ma’lumot va resurslarga tezkor kirish imkonini beradi. Shu jumladan, talabalar axborot texnologiya ta’limresurslaridan kunning ixtiyoriy vaqtida, o‘zlariga qulay joyda mustaqil ish ustida izlanishlarini notebook yoki mobil qurilmalari yordamida turli mavzularda video darslar ko‘rishi, tadqiqot o‘tkazishi va universitet kutubxonasida mavjud bo‘lmagandarsliklarini internet sahifalaridan izlab topishiga imkon yaratadi . Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning vaqtlarini tejash va mustaqil ishlarigabo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi . Ammo axborot texnologiyalarining rivojlanishi, elektron resurslarning ko‘payib borishi turlishakldagi va ko‘rinishdagi axborotlarga kirish tufayli ayrim talabalar axborot resurslaridan noto‘g’ri foydalanishi kuzatilmoqda yani mualliflik huquqiga rioya qilmagan holda talabalar mustaqil ishlarini yozayotganda ko‘chirmachilik qilayotganlari kuzatilmoqda . Buning oldini olish maqsadida plagiat tekshiruvdasturlari tufayli ochiq manbalardagi matnlarni tahlil qilish va ularni tekshirilayotganmatn bilan taqqoslash o‘qituvchilar uchun oson yechimga aylandi. Shu sababdan she’rlar, adabiyot asarlari, kurs ishi, maqola, tezislar va boshqa shu kabi adabiyotlardan foydalanishda mualiflik huquqini buzmagan holda atribut va belgilardan foydalanib iqtiboslarni kiritish lozim. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quvjarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish joriy etilganidan so‘ng talabalarning mustaqil ishlashi taminlandi, talabalar bilimini reyting asosida baholash kiritildi bu esa talabalarning mustaqil ta’lim olishlarida samarali usul bo‘ldi . Talabalarning ilk ilmiy-tadqiqot ishi mustaqil ish bo‘lganligi sabab dastlab mustaqil ish mavzusi tanlab olinadi, so,,ngra mavzuga taalluqli asar, ilmiy ish va shu kabi adabiyotlar bilan tanishib o’sha mavzuni yoritib berish bilan birga, ilmiy xulosalar tahlil qilinib, shuningdek, munozarali masalalar haqida fikr bildirib, ayrim masalalar tanqid qilinishi mumkin.

Axrорор B. o‘zining “ Zamonaviy ta’lim texnologiya” nomli maqolasida shunday fikrlar keltirgan: Talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga, bizning fikrimizcha, o‘quv jarayonining dastlabki kunlaridanoq e’tibor qaratish lozim. Talabalarga ilmiy axborot hajmining ortib borishi,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ba’zi bilimlarning yangilanib borishi hisobiga boshqalarining tez eskirishi kuzatilayotgan hozirgi sharoitda yangi bilimlarni izlab topishlarida mustaqil ishning ahamiyati alohida tushuntirilishi uni bajarish samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.“Axborot texnologiyalari” fanini talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi ularning auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mashg‘ulotlarga vijdonan munosabati va mustaqil ishni bajarish jarayonida o‘qituvchi ularga mustaqil ishslash mahoratini qay darajada singdira olganligi hamda foydalanimadigan metodik usullarning qanchalik to‘g‘ri ekanligiga bogliq. Shuning uchun talabalarning barcha mustaqil faoliyati o‘qituvchi tomonidan ’kuzatib borilishi va nazorat qilinishi kerak. U maslahat, ko‘rsatmalar berish, metodik usullarni tushuntirib berish, nazorat qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabati (biri boshqaruvchi, ikkinchisi esa ijro etuvchi) to‘g‘ri tashkil etilishi muhim. Bunda ustuvor vazifa sifatida “Axborot texnologiyalari” fanini o‘zlashtirishini ilmiy asoslangan metodik boshqarish e’tirof etiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish sifati hamda samaradorligi butun pedagogik jarayonni baholashning eng muhim mezoniga aylanadi.

Muhokama

Ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonida axborot ta’lim texnologiyalaridan keng foydalinish talabalarga soha obyekti va predmeti haqida ma’lumot berish samaradorlini oshirish bilan bir qatorda ularning ongida jarayonlar yuzasidan dastlabki tushunchalarning shakllaniga ham yordam beradi. Sohaga oid korxona va tashkilotlarda real shroitlarda yuzaga keladigan xilma-xil va murakkab munosabatlar, tashqi va ichki omillar ta’sirida ushbu aloqalarda kuzatiladigan dinamikani anglash va o‘zlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Qolaversa, bunday vositalar talabalarda innovatsion fikrlash, boshqaruvga ijodiy yondashuv hislatlarini shakllantiradi. Natijada ularning faoliyati standart usullar emas, balki hodisa va jarayonlarning sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga asoslangan, mustaqil qabul qilingan qarorlar ijrosidan iborat unikal chora-tadbirlar majmuiga aylanadi. Hususan, oliy ta’limning masofaviy shaklida axborot-ta’lim texnologiyasining o‘rnı beqiyos. Ushbu texnologiya masofaviy ta’lim shaklida quyidagi muhim afzallikkarni ta’minlash imkonini beradi: Moslashuvchanlik - talaba dars vaqtini, joyini va davomiyligini mustaqil ravishda rejallashtirishi mumkin. Modullik – o‘rganish uchun materiallar modullar ko‘rinishida taklif etiladi, bu esa talabaga o‘z talablari va imkoniyatlariga muvofiq o‘zing ta’lim

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

trayektoriyasini yaratishga imkon beradi. Geografik mustaqillik - talaba va ta’lim muassasasining geografik joylashuvi ahamiyatga ega emasligi mamlakat aholisining ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini cheklanishiga yo‘l qo‘ymadi. Rentabellik - iqtisodiy samaradorlik, ya’ni bino-inshootlar uchun xarajatlarning keskin qisqarishi. Shuningdek, vaqt, ma’naviy va moddiy resurslarni (materiallarni chop etish, ko‘paytirish va boshqalar) tejash imkoniyati. Qamrov - bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli talabalarning ta’lim ma’lumotlarining ko‘plab manbalaridan (elektron kutubxonalar, ma’lumotlar ombori va boshqalar) foydalanish. Ishlab chiqarish va ta’lim integratsiyasi – o‘quv va ish jarayonining parallel tshkil etilishi va olib borilishi. Ijtimoiy tenglik - yashash joyi, sog‘lig‘i va moddiy ta’minotidan qat‘i nazar, ta’lim olish uchun teng imkoniyatlar. Xalqarolik – ta’lim xizmatlari bozorida xalqaro tajribalarni eksport va import qilish.

Natija

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda ta’lim oluvchilarning individual shaxs xususiyatlarini, ularning ta’lim olish uslublarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Har bir talaba ma’lumotni turli axborot qabul qilish kanallari orqali idrok etadi. Lekin, mazkur kanallardan qaysidir biri ko‘proq rivojlanganligi sababli ta’lim oluvchining axborotni aynan o’sha kanal orqali yaxshiroq qabul qilishi va osonroq o‘zlashtirishi fanga ma’lum. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta’limni to‘plangan bilimlarni yetkazish, ularni to‘ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog‘lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan – bu ta’lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo‘lmagan, ilg‘or axborot texnologiyasi ta’lim tizimida fanning ahamiyatini o‘zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o‘zi rivojlanishi bilan emas, balki ta’lim va o‘qitish tizimi bilan ham bog‘liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi. Texnologiyalari va telekommunikatsiyalarning hozirgi holatini tahlil qilish bizga hozirgi vaqtda loyihalashtirishda qator muammolarni hisobga olishni taqozo qiladi. Ulardan biri masofaviy ta’lim shaklida ta’lim samaradorligini aniqlash muammolari. Turli mamlakatlarning ta’lim tizimlarida masofaviy ta’limni tashkil etish va joriy etishda an‘anaviy ta’lim bilan taqqoslaganda masofaviy ta’lim samaradorligini baholash muammoysi paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish usullarining samaradorligini baholash odatda an‘anaviy usullar bilan taqqoslanadi va o‘quv natijalarini solishtirish bilan cheklanadi. Ba’zan esa talabalar tomonidan erishilgan natijalarga sarflangan vaqtini hisobga olinadi.

Xulosa

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish va o‘quv jarayonlarida qo‘llash sabablaridan biri bu talabalar faqat tayyor bilimlarni egallabgina qolmasdan o‘zlari axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mavzularni mustahkamlab olishlari mumkin bo‘ladi va o‘qituvchi esa talabalarni yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi .

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avliyoqulov N.H.O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. B.: 2001.
2. Azizzodjaev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003. - 174 b.
3. Ziyomuhamedov B, Abdullaeva Sh. Ilg’or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot «Ma’naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan o‘quv qo‘llanma. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2001.
4. O‘.Q.Tolipov., M.Usmonboeva . Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
5. To‘rabekov F.S. Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi. Avtoref. p.f.n., T.: 2011.

**Research Science and
Innovation House**

Pedagogikada rag‘batlantirish metodi

**Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Shahobiddinova Sevinch Rahimovna**

Annotasiya: Ushbu maqolada pedagogikada rag‘batlantirish metodini qo‘llash, tarbiya metodlaridan samarali foydalanish haqida.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, metod, usul, rag‘batlantirish, pedagog, tarbiyalanuvchi, ta’lim, vosita, o‘quvchi, jazolash, namuna.

Kirish

Rag‘batlantirish (stimullash) deganda, fikrlashga, his etishga va faoliyatga jalg etish, turtki berish, kuch berish tushuniladi. U yoki bu omilning o‘quvchi shaxsiga ta’sirini mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida stimullovchi metodlar qo‘llaniladi va bularning ichida eng ko‘p qo‘llaniladigani musobaqalarni rag‘batlantirishdir. Ushbu guruh metodlari tarbiyachi foydalanadigan juda ham nozik quroqliki, u tez o‘zgaruvchan xarakterga hamda doimiy rivojlanishdagi, bir vaqtning o‘zida ham effekt javob kuchiga, ham effekt ta’sir kuchiga ega bo‘lib, shaxs bilan muloqot davomida qo‘llaniladi. SHuning uchun ham ushu metoddan foydalanuvchining obro‘sni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur guruh metodlaridan foydalanishda ularning harakat mexanizmi har tomonlama o‘rganilgan va tajribada ko‘p sinovdan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak. Qadimdan xalqimizda turli sport o‘yinlari (uloq, kurash, dasta-chikaldak, chovgon singari), askiya payrovleri kabilardan bolalarni tarbiyalashda juda ustalik bilan foydalanib kelingan. Hozirgi kunda yurtimizda yoshlarning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tarbiya berishda asosan rag‘batlantirish usulidan foydalanish samarali hisoblanadi. Rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanilishi lozim. Har qanday rag‘batlantirish o‘quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Rag‘batlantirish vaqtida o‘quvchining alohida xususiyatlari, jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u ketma-ket bo‘lmasligi kerak.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

Ahmedova Dilnoza o‘zining “ Tarbiya berishda intellekt va salohiyatni oshirish” nomli maqolasida keltirgan: O‘quvchilarni rag‘batlantirishning psixologik xususiyatlari haqida bir nechta olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarida juda muhim fikrlarni

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ilgari surgan bo‘lib, yurtimiz olimlaridan J. Xasanboyev va X. To‘raqulovlarning fikrlariga ko‘ra: “Rag’batlantirish o‘quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko‘zda tutadi. Rag’batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g‘ayrat bag’ishlaydi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag’ batlantiradi, o‘z faoliyati va xulqiga mas’uliyatini oshiradi” - deb hisoblaydilar. Rag’batlantirish metodlari turli xil bo‘lib, ular tarkibiga ma’qullash, ko‘ngil ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og’zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi. Rag’batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Har qanday rag’batlantirish o‘qnvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Rag’batlantirish vaqtida o‘quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u bitta o‘quvchi uchun ketma-ket bo‘lmasligi kerak. Doimiy ravishda haddan oshirib maqtash, jamo‘aga nisbatan taqqoslash, talabchanlikni bo‘shashtirib yuborish bular o‘quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag’batni tashkil etishda o‘quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi. Psixologiyada esa rag’batlantirish shaxsga nisbatan motivatsiya berish deb yuritiladi. Motiv va motivasiya muammoji jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda.

E.G. G‘oziyev O‘zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko‘ra, inson tafakkuri o‘zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. “Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘ylgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasiz o‘zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak” M.G. Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rgangan. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma’lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo‘li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsnинг tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo‘li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo‘li bilan borishi kerakki, bu

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o‘zlashtirishni rejalahtirgan faoliyat bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar hosil qilishni ta’minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o‘sishi ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi.G‘.B.Shoumarov mamlakat fuqarolarining aqliy saviyasiga alohida urg‘u berib, har bir davlat, jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli o‘z fuqarolarining saviyasi bilan belgilanishini e’tirof etadi. Jamiyat va fan-texnikaning rivojlanishida aql muhim omil va mezonlardan biridir. SHuningdek, SHoumarov har qanday insonparvarlik jamiyatida aqli zaiflarga e’tibor muhimligini uqtirib, aqli zaiflik omillarini markaziy asab tizimining organik buzilishi, shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg‘un pasayishidir deydi.

Muhokama

Tarbiyaviy ishlar tizimi va tarbiya jarayoni har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.Metodning ijobiyligi va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin. Bundan tashqari asosan rag‘batlantirish metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki, hozirgi har bir shaxs o‘zining qilayotgan ishi uchun, harakati, uchun rag‘bat olishni xohlaydi. Har bir qilayotgan ishi uchun rag‘bat berilsa u yanada harakat qiladi, yanada intiladi. Maktablarda asosan rag‘batlantirish metodidan foydalaniлади. Maktabda o‘quvchilarda raqobat kuchli bo‘ladi shuning uchun ular ko‘proq rag‘batga intilib o‘qishni davom ettiradi. Agar ularga hech qanday rag‘bat berilmasa o‘qishga ham intilmay harakat qilmay qo‘yadi.

Natija

Rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanilishi lozim. Har qanday rag‘batlantirish o‘quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Rag‘batlantirish vaqtida o‘quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o‘rnini hisobga olish va u ketma-ket bo‘lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo‘shashtirib yuborish, bular o‘quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Rag‘batni tashkil etishda o‘quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o‘rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o‘ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.Jazo berish o‘quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o‘quvchini jismoniy va ruhiy azobga

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak. Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtini, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi. O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalilaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slaydo, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya berish jarayonida har bir metodni o'z o'mnida qo'llash kerak. Rag'batlantirish metodidan ham meyorida foydalinish kerak. rag'batlantirish o'rtacha darajada qo'llanilishi kerak, shunda u foydali bo'ladi va o'quvchilarning harakatlari va harakatlari yo'naltirilgan yagona maqsadga aylanmaydi. Rag'batlantirishadolatl bo'lishi va har bir o'quvchiga teng sharoitlarda, ma'lum bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ifodalanishi kerak. Ya'ni, har birining yutuq darajasini o'z imkoniyatlari va qobiliyatları bilan bog'lash kerak. Har qanday o'quvchining xatti-harakatlari yoki yutuqlarini rag'batlantirishga loyiqligini hal qilishda jamoaning fikrini hisobga olish yaxshi shakl hisoblanadi. Bu ushbu usulni qo'llashda eng katta ob'ektivlik vaadolatni ta'minlaydi, shuningdek, bolalarni o'rtoqlarining faoliyatini tahlil qilish va baholashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
- 2.J. Xasanboyev, X. To'raqulov va boshqalar "Pedagogika". Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent: «Noshir», 2011.
3. E.G'oziyev " Umumiyl psixologiya". Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik I - kitob Toshkent – "Universitet" – 2002.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

4. Qojaspirova G.M. Pedagogika: Seminar va o‘quv-uslubiy materiallar. - M. VLADOS - 2003 yil.
- 5.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997.
- 6.Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
- 7.Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. «Ma’rifat gulshani» gazetasi, 6 (11) – 2007 yil.
- 8.To‘raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007,



**Research Science and
Innovation House**

THE IMPORTANCE OF PHYSICS IN MODERN TECNOLOGIES

**Yakubova Diloromxon
Qurbanaliyev Sanjarbek
Husniddinova Ra’no**

**Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad
al-Khwarizmi**

Abstract: Modern physics encompasses the comprehension of matter interaction processes through the application of engineering and scientific tools. A deep understanding of contemporary physics serves as a cornerstone for generating meaningful scientific progress. This article underscores the pivotal role of physics in economic development and advocates for a collaborative Academic-Industry approach to facilitate more effective translational research. The article will illustrate its points through a series of examples, emphasizing the critical aspects of measurement, control, diagnostics, and computing capabilities required to translate physics into innovations and practical solutions. By showcasing the tangible benefits that arise from such interdisciplinary collaborations, the article aims to highlight the transformative potential of bridging the gap between academia and industry.

Keywords: Modern physics, theory, degradation, engineering, science, biomechanics, impact, chemical solutions.

Almost every action we undertake in our daily lives involves the application of physics. From cooking and cleaning to answering phone calls, ironing clothes, and listening to the radio, we constantly engage with the principles of physics without even realizing it. For instance, the sight of a lightbulb may instantly evoke thoughts of Thomas Alva Edison, while the sound of a ringing phone may prompt memories of Alexander Graham Bell. Seeing the blue sky might remind you of Sir C.V. Raman. Physics is involved in running automobiles and trains, moving objects, flying airplanes and kites, operating satellites, and flying jet planes. Physics also plays a crucial role in the construction of bridges, buildings, roads, houses, ships, and boats. Knowledge of physics helps common people to understand and relate better to the environment[1].

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

The laws of physics explain the principles behind thunder and lightning or a rainbow in the sky. Modern services like washing machines, refrigerators, and floor polishers make use of the principles of physics. Physics is also applied in communication systems, modern transportation, and advancements in medicine, industry, and agriculture. Therefore, it is a fact that many of the comforts that make the lives of common people more enjoyable and easy are based on the solid principles of physics and their commercial applications.

There are two groups of physicists: pure physicists and applied physicists. Pure physicists acquire scientific knowledge used in very practical applications, while applied physicists explore problems in technology and industry. When picturing a physicist, names like Isaac Newton, Albert Einstein, Marie Curie, or Stephen Hawking might come to mind. Engineering is almost entirely an applied science. However, the difference between applied physics and engineering lies in engineers being more concerned with the practical applications of scientific theories, devices, or technologies[2]. They are less concerned with the theoretical basis underlying the techniques used to solve problems. Famous engineers include Alexander Graham Bell, Nikola Tesla, and Steve Wozniak.

Physicists specialize in areas as diverse as astronomy, astrophysics, nuclear physics, molecular physics, biomechanics, neuroscience, financial markets, aircraft design, robotics, quantum computing, and numerous other fields. Physicists follow the basic principles surrounding energy and matter and their interactions. Engineers, on the other hand, aim to create things—bridges, computer hardware, chemical solutions—and they use the laws of the universe as a guide. The study of physics develops problem-solving abilities, logical thinking, and intellectual capabilities. Engineering is essentially the practical application of physics to create something useful.

Physics is the study of matter and energy, including the interactions between them. Everything, including the components of computers, is made of atoms. Physics also studies how these components interact with each other.

The IT industry comprises tech companies that create new technologies, and physics is an integral part of their work. Physics is used in many ways in the IT industry to produce computers and other devices used in everyday life. Physics is used to create semiconductors, which are essential for computers. Semiconductors are made by reducing silicon (Si) to a fine powder and subjecting it to extremely high temperatures, causing it to melt and turn into liquid. Then, by subjecting this liquid substance to

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

electrical impulses within a vacuum chamber, a crystal that conducts electricity can be created.

Physics impacts technology and industry in many ways. Three specific concepts encompass most of the possibilities. First, physics serves as the fundamental knowledge on which technology is built. Newton's laws, Maxwell's equations, and even quantum theory, all of which are basic physics principles, have had a significant impact on technology[3]. The second major aspect of physics' impact on technology lies in the application of the scientific method, which involves observation, hypothesis formulation, experimental testing, and formulation of general laws. This method is instinctive to physicists and accounts for much of the clarity and beauty of physics' application in technology.

Physics, the fundamental science that seeks to understand the nature of the universe, plays a pivotal role in shaping modern technologies. From the invention of the light bulb to the development of quantum computing, the principles of physics underpin the technological advancements that define our era.

At its core, physics provides the framework for understanding how the world works at its most fundamental level. By studying the behavior of matter and energy, physicists uncover the laws and principles that govern the universe. These insights serve as the foundation upon which innovative technologies are built.

One of the key areas where physics intersects with modern technology is in the realm of electronics and semiconductor devices. Semiconductors, the building blocks of modern electronics, rely on the principles of quantum mechanics to function. Understanding phenomena such as electron mobility, band theory, and semiconductor doping has paved the way for the development of transistors, integrated circuits, and microprocessors—the backbone of computers, smartphones, and countless other electronic devices that permeate our daily lives.

Furthermore, the study of electromagnetism, another cornerstone of physics, has revolutionized communication and transportation technologies[4]. Maxwell's equations, which describe the behavior of electric and magnetic fields, have enabled the development of wireless communication systems, radar technology, and electromagnetic propulsion systems used in high-speed trains and maglev transportation.

Physics also plays a crucial role in the field of medical imaging and diagnostics. Techniques such as X-ray imaging, magnetic resonance imaging (MRI), and positron

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

emission tomography (PET) rely on the principles of nuclear physics and electromagnetism to visualize internal structures and diagnose medical conditions with unprecedented precision[5].

In addition to its contributions to existing technologies, physics continues to drive innovation in emerging fields such as renewable energy, nanotechnology, and quantum computing. The quest for clean and sustainable energy sources has led to the development of solar cells, wind turbines, and fuel cells—technologies that harness the power of physics to address pressing environmental challenges.

Nanotechnology, which involves manipulating matter at the atomic and molecular scale, holds promise for revolutionizing industries ranging from medicine to electronics. Quantum computing, a frontier field of physics, has the potential to transform computing by leveraging the principles of quantum mechanics to perform complex calculations exponentially faster than classical computers.

Moreover, the interdisciplinary nature of physics fosters collaboration across scientific disciplines and encourages creative problem-solving approaches. Physicists collaborate with engineers, chemists, biologists, and computer scientists to tackle complex challenges and push the boundaries of scientific knowledge.

In conclusion, the importance of physics in modern technologies cannot be overstated. From the exploration of the cosmos to the development of life-saving medical devices, physics permeates every aspect of our technologically driven world. By advancing our understanding of the fundamental laws of nature, physics continues to fuel innovation, inspire discovery, and shape the future of humanity in profound ways. As we stand on the cusp of a new era of technological innovation, the role of physics as a driving force of progress has never been more vital.

The pervasive influence of physics on our daily lives is undeniable. From the simplest tasks like ironing clothes to the marvels of modern technology such as smartphones and computers, physics underpins our understanding and manipulation of the world around us. Through the ingenuity of physicists and engineers, concepts once confined to textbooks are now woven seamlessly into the fabric of our existence, driving progress and innovation in fields as diverse as communication, transportation, medicine, and agriculture.

As we reflect on the contributions of luminaries like Thomas Edison, Alexander Graham Bell, and Isaac Newton, we recognize the profound impact of their discoveries

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

on society. The distinction between pure physics and applied physics fades as both disciplines converge to address the complex challenges of our time.

REFERENCES

1. American Institute of Physics. “Statistical Research Center | American Institute of Physics.” Field of Employment for Physics Bachelors in the Private Sector Classes of 2017 and 2018, 1 Jan. 2023, aip.org/statistics.
2. Ebersole, Leo. “Physics and Engineering: How Are They Related?” Elmhurst University, May 2022, www.elmhurst.edu/blog/physics-engineering.
3. Buchanan, Mark. “The Benefits of Public Transport.” Nature Physics, vol. 15, no. 9, Nature Portfolio, Sept. 2019, p. 876. <https://doi.org/10.1038/s41567-019>
4. Peter F. Drucker, “The Technological Revolution: Notes on the Relationship of Technology, Science and Culture”, Science and Culture, 2 342 (1961).
5. Henry C. Torrey and Charles A. Whitmer, Crystal Rectifiers, McGraw-Hill, New York, N.Y. and London (1948).



Research Science and Innovation House

**Keksa yoshdagi insonlarda xotira susayishi hamda xotira funksiyalari va
xotira haqida umumiy tushunchalar**

Turdiqulov Kamronbek Muzaffar o‘g‘li

Amaliy psixologiya yo‘nalishi 221-guruh 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada gerantopsixologiyasining nozik jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Hamda keksalikda xotira susayishi sabablari va xotira funksiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: keksalik, gerantopsixologiya, xotira, xotira funksiyalari, xotira susayishi

Gerantopsixologiya (yunoncha geron —qari, keksa va psixologiya) — gerontologiya va yosh psixologiyasi sohasi. Umumiyligi vositalari hamda usullaridan foydalanib, keksalar ruhiyati va fe’lining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Garchi olimlar kishilarda keksayish tufayli paydo bo‘ladigan ruhiy xususiyat va o‘zgarishlarga avvaldan qiziqib kelsalarda, Gerantopsixologiya alohida fan sohasi sifatida 20-asrning ll yarmidagina shakllana boshladi. Gerantopsixologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan Stenli Xoll asoslagan bo‘lsada, lekin bu yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida Mark Tullyi Sitseron (“Keksayish haqida” asarida), I.I.Mechnikov (“Optimizm etyudlari” kitobida), O‘rtal Osiyo allomalari donolik, donishmandlik haqidagi durdonalarida falsafiy fikr va mulohazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog Stenli Xoll (1846— 1924) “Keksayish” monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g‘oyalarni ilgari surgan. O‘sha asar keng ilm ahli ichiga tez yoyilishiga qaramay, uning izdoshlari birdaniga ko‘paymadi. XX asrning 30-yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy-biologik tadqiqotlarning ko‘payishi, Shuningdek, inson kamolotiga shaxs sifatida yondashishning paydo bo‘lishi psixogerontologiyaning rivojlanishiga birmuncha ta’sir ko‘rsatdi. Ana shu tariqa keksayishga tibbiy, ijtimoiy jihatdan yondashish bilan bir qatorda psixologik jabha jihatidan yondashish ham vujudga keldi va psixogerontologiyaning tadqiqot sohasi kengayib bordi, shu soha bo‘yicha ingliz tilida maxsus jurnallar chiqa boshladi. Ilmiy izlanishlarning aksariyati keksayish davridagi odamlar shaxsining xususiyatlari, diqqati, xotirasi, tafakkuri, aql-zakovatiga

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

bag‘ishlangan bo‘lib, boshqa psixik holatlar, jarayonlar juda kam taddiq qilingan. Hozir keksayish psixologiyasi ham gerontologiyaga, ham ongogenez psixologiyasi sohasiga taalluqli degan ikki xil ilmiy nazariya mavjud, vaholanki, ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini doimo ilmiy axborot va ma’lumotlar bilan boyitib turadi. Psixogerontologiya [fanida gerontologiya](#), involyusiya, geriatriya, gerogigiena, geteroxronlik kabi ilmiy tushunchalar mavjud. Gerontologiya — grekcha so‘z bo‘lib, keksayishning, keksalikning kelib chiqishi demakdir. Geriatriya so‘zi keksaygan inson shaxsini davolashni bildiradi. Involyusiya tushunchasi evolyusianing teskarisi bo‘lib, o‘sishdan orqaga qaytishni ifodalaydi. Gerogigiena — keksaygan odamning salomatligini saqlash va mustahkamlash sohasidir. Gerogigiena keksa odamlarda asab, ruhiy kasalliklarning oldini olish uchun xizmat qiladi. Geteroxronlik bir xil Yoshdag'i odamlarda ruhiy jarayonlarning turlicha (har xil vaqt va muddatda) namoyon bo‘lishidir. Psixogerontologiya fanida gerontogenezning evolyusion omillari qatoriga I.V.Davidovskiy nasliy, ekologik, biologik, ijtimoiy alomatlarni kiritadi. D.Bromley insonning qidirish sikli uchta bosqichdan iborat bo‘lishini ta’kidlaydi: 1) "ishdan, xizmatdan uzoqlashish" (iste’fo) — 66-70 Yosh; 2) keksalik (70 va undan katta Yosh), 3) munkillagan keksalik (hasta keksalik va o‘lim) — maksimum 110 Yosh. SHu bilan birga (keksayishning qonuniylari [ham kashf qilingan](#), ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin). 1) geteroxronlik (har xil vaqtlik) qonuni; 2) o‘ziga xoslik qonuni; 3) xilma-xillik qonuni.I.V.Davidovskiy "Keksayish nima?" nomli asarida ta’kidlaganidek, inson 50—60 Yoshga to‘lganda yoki undan oshgan chog‘ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. SHu Yoshdag'i odamlarning o‘limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 Yoshgacha uzayishi mumkin. CHunki hozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish Yoshidan 15—20 yil ilgarilab ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug‘ullangan ziyoli odamlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. I.V.Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko‘rvuchilar asosan ozish, faol, harakatchan odamlar bo‘lib, havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organizm faoliyatiga daxldor tinka quritar kasalliklardan holi bo‘ladilar. Tadqiqotchi P.P.Lazerev 1928- yilda umr o‘tishi bilan ko‘rv apparati markaziy etnologiyasining xiralashuvini aytgan edi. Keyinchalik, 1967-yilda amerikalik psixolog Gregori bu fikrni tajribadan o‘tkazdi va inson keksayishi bilan retseptor apparatining optik funksiyasi zaiflashadi, ko‘rv sezgasi va idrokini xiralashtiradi. Ko‘zning rangni sezishi Yoshi ulg‘ayishi bilan o‘zgarib boradi, hatto, rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. SHuni alohida ta’kidlash

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

kerakki, rang ajratish, spektr nurlarining yoyilishi Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida esa bu kashfiyot Gel'mgolsga qiyos beriladi. Ko'rishning pasayishi geteroxron xususiyat kasb etib, spektrning qisqa va to'kis qismida (ko'k va qizil rangda) aniqroq aks etadi. Psixogerontologik nuqtai nazardan sezish vaqtini rad qilgan E.N.Sokolov, E.I.Boyko, A.R.Luriya sezish vaqt YOSH davrining informatsion stimul funksiyasidan boshqa narsa emas, deya xulosa chiqaradilar. Ular sezish vaqqining egri chiziqli ko'rsatkichlarini sxema tarzida ishlab chiqib, keksalik davriga xos ikkita xususiyatni chuqur tahlil qildilar. Xuddi shunga o'xshash ma'lumotlar D.Birron, D.Botvinnik tajribalarida ham olingan. Psixogerontologiyada keksa erkak va ayollarning psixologak xususiyatlarini o'rganishda ko'proq test (sinov) dan foydalaniadi. Testlar o'z maqsadi, mohiyati hamda tizimiga binoan bir nechta ko'rinishga ega: 1) maqsadga yo'naltirilgan, bilim hajmini aniqlovchi standart testlar — imtihon — sinov varaqasi; 2) insonning aql-zakovatini o'lchashga moslashtirilgan aql testlari; 3) inson shaxsining fazilatlarini tekshirishga mo'ljallangan testlar; 4) inson iste'dodi, iqtidori hamda qobiliyatining darajasini aniqlashga qaratilgan testlar. Keksayish davrida odamlar psixologiyasini o'rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo'riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtdan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi. SHu bilan birga testlar kishilarda (rang-barangligi uchun) qiziqish, tabiiy mayl, shug'ullanish his-tuyg'usini uyg'otadi. Testlar bilan ishlashda vaqt cheklanganligi sababli ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yiladi, lekin ularni aynan o'sha sinaluvchilarda muayyan vaqt o'tgandan keyin takror o'tkazilsa, kamchiliklar barham topishi mumkin. Keksalar psixologiyasini tadqiq qilishga oid tajribalarda psixogerontologiyaning ayrim usullaridan keng foydalanilmoqda. Nafaqa Yoshiga to'lgan kishilarning ishni davom ettirish islash va ulardan foydalanish ehtiyoji tibbiyot va ruhiyat ilmi oldiga bir qancha talablar qo'yadi. Bu talablar M.D.Aleksandrova va uning shogirdlari ta'kiddaganidek, 60 Yoshdan oshgan odamlarning somatik jihatliligi ularning ishlab chiqarishda qatnashishiga qanchalik imkon berishini, insonning ruhiy salomatligi ishlashda qay darajada yordamlashishini, sog'lom keksa odamning psixofiziologik funksiyalari, psixik jarayonlari, shaxsiy xususiyat-lari va kasb-korlik uchun zarur talablarga mos kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir. SHularning so'nggi qismini tadqiq qilish bevosita psixoglarning zimmasida bo'lib, Yosh ulg'ayib borishiga qarab fiziologik funksiyalarning o'zgarishi psixometriya ma'lumotlariga tayanib muayyan usulda o'rganishi lozim. Bu usulda bir qancha elat, jamoa hududning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

xuddi shu Yoshdag'i aholisi bilan solishtiriladi. Tadqiqotning bu usuli ayrim ruhiy jarayonlarning Yosh dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi. Asab sistemasining qarishi V.D.Mixaylova-Lukasheva, M.M.Aleksandrovskaia kabi olimlarning fiziologak va gistologak tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi, bosh miya tuzilishi o'zgarishi o'rganilgan bo'lib, bu hol makroskopiya va mikroskopiya ma'lumotlari asosida ifodalangan. Makroskopiya ma'lumotlariga ko'ra: a) keksalik davrida miyaning og'irliga 20-30% egallashadi; b) bir davrning o'zida miya bilan kalla suyagining hajmi o'rtasida disproporsiya kuchayadi; v) keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalar kengayishi kuzatiladi, bular ayniqsa miya qobig'ining peshona qismida yaqqol ko'rindi va etuk Yoshdag'i odamlarga qaraganda 3—4 ta yo'1 qisqaradi; g) miyaning zichligi ortadi. Mikroskopiyaning natijalariga binoan: 1) nerv hujayralining umumiyligi miqsori kamayadi, bu o'zgarish qobig'ining III-V zonalarida aniq bilinadi; 2) Purkine hujayralarining mikdori keskin kamayadi, hujayralarning yo'qolishi etuk kyshilart nisbatan 25 % ko'p bo'ladi; 3) nerv hujayralari ajinlashadi: yadro esa noto'g'ri ko'rinishga ega bo'la boshlaydi; 4) nerv tolalari yo'g'on- lashadi; 5) xabar olib boruvchi yo'lda mielin tolalarining miqdori ozayadi. Keksayish davri 61 yoshdan 74 yoshgacha bo`lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu yoshdag'i kishilar shaxslararo munosabatlarda boshqa yoshdag'i kishilardan ajralib turadi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo`lish mumkin: 1) mutlaqo istefoga chiqqan, ijtimoiy faol bo`lmagan erkak va ayollar; 2) nafaqaga chiqqan erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat ko`rsatayotgan keksalar. Keksalik davri 75 -90 davrlarni o'z ichiga oladi. Keksalar jismoniy va aqliy faollikka moyil hamda passiv turmush tarziga ko`nikkan qariyalar guruhiga ajratish mumkin. Biologik qarish, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar va xatti-harakatlarda keskin o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Sezgi organlari zaiflashadi, asab tizimi kuchsizlanadi. Ma'lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, mohiyatini anglash hamda ongi biror bir obyektda uzoq muddat ushlab turish qiyinlashadi. Grekov so'z metodi assotsiyasi asosida xotira jarayonining xususiyatlarini o'rgangan. Uning ma'lumotlari quyidagicha: 1. 70 dan 80 gacha bo`lgan keksalarda xotira (mexanik xotira) zaiflashadi; 2. 70 dan 80 gacha bo`lgan keksalarda mantiqiy-ma'noli xotirada miqdorning ahamiyati saqlanadi; 3. obrazli xotira zaiflashadi; 4. 70 -89 gacha yoshlarda xotiraning barqarorlik negizida ma`noning ichki aloqadorligi yotadi; 5. uzoq muddatli xotira kuchsizlanadi; 6. 90 yoshda nutqning ichki bog`lanishi buziladi; 7. xotiraning obrazli-hissiy turlari nutqning tuzilishiga bo`ysunmay qoladi.

Xulosa:

Gerontopsixologyaning asosiy vazifasi - kishilarning qariganda ham bardam , tetik yashashiga yordam beradigan vositalarni izlab topishdir. Inson qarigan paytida aqlan zaiflik va organizmning ba’zi a’zolarining ishlash faoliyatida sustlik hamda harakatlanishda sustlik kuzatiladi.

Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar mavjud boladi. Shu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o’sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayyan bir materialni esda olib qolish hayot faoliyati jarayonida individualtajriba orttirishga bog`liqdir. Esda olib qolingga narsani keyinchalik faoliyat daqollanish uchun uni esga tushirish taqozo etiladi. Muayyan bir materialning faoliyat doirasidan chiqib qolishi esa uning unutilishiga olib keladi.materialni esda saqlash uning shaxs faoliyatidagi ishtirokig abog`liq boladi.chunki har bir muayyan paytda kishining xulq – atvori uning butun hayotiy tajribasi bilan belgilanadi. Xotira psixologyaning eng ko`porganilgan bolimlaridan biribolib hisoblanadi. Lekin hozirgi paytda xotiraning qonuniyatları yanada organilishi uni fanning tag`in hammukimroq muammosiga aylantirib qoydi.

Hozirgi kunda xotiraning mexanizmlari vaqonuniyatlarini organish boyicha uchta nazariya mavjuddir. Bo`lar psixologik, neyrofiziologik hamda bioximik nazariyalardir. Psixologik nazariya. Bu nazariya tarixiy jikatdan eng eski nazariya bolib, u fanda ko`p va turli – tuman nazariyalarning olg`a surilganligi bilan mashqurdir. Bu nazariyalarni xotira jarayonlarining shakllanganida insonning faolligi qanday rol` oynashligi va bunda faollikning moqiyatiga qanday yondoshuv zarurligi bilan baqolash mumkin. Nazariyaning birinchi guruhi assotsiativ nazariya deb yuritiladi. Bu nazariyaga kora, muayyan psixik hosilalar ongda bir vaqtning ozida yoki bevosita birin-ketin paydo bolsa, u holdahosilalar ortasida assotsiativ boglanishlar tarkib topadi va bu boglanishlarni biron bir qismi takroran paydo bolishi ongda uning barcha elementlari muqarrar ravishda gavdalanishiga olib keladi. Assotsiatsiyalar uch turli boladi:oxshashlik, yondoshlik vaqarama – qarshilik assotsiatsiyalari.

Xotira haqida tushuncha

Individning o`z hayotiy tajribasini esida olib qolishi, esda saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotira sohasida quyidagi asosiy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

jarayonlar farqlanadi: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish. Bu jarayonlar biri-biridan ajralgan holda yuzaga chiqmaydi. Ular bir umumiy bir jarayonning turli tomonlarini tashqil qiladilar. Xotiraning yuzaga chiqishi, rivojlanishi kishining faoliyati bilan bog`liq. Ma`lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya`ni shaxsiy tajribani to`plash bilan bog`liqdir. To`plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma`lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoki faoliyatidan tushib qolishi uni esdan chiqarib quyishga olib keladi.

Xotira mexanizmlari

Hozirgi kunda xotira mexanizmlari haqida juda ko`plab nazariyalar mavjud. Ularning barchasini bir necha guruhlarga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruh nazariyalar - psixologik nazariyalar, ikkinchisi - neyrofiziologik nazariyalar. Ularga keyingi yillarda yangi nazariyalar, uchinchi yo`nalish - bioximik yo`nalishdagi nazariyalar qo`shilmoqda.

Barcha nazariyalar orasida eng oldin paydo bo`lib rivojlangan nazariyalarga psixologik nazariyalar kiradi. Bu nazariyalar xotira jarayonlarini tarkib toptirishda sub`ektning faolligiga qanday o`rin berilganligiga, sub`ekt faolligining o`ziga qanday qaralganligiga bog`liq ravishda klassifikatsiya qilinadi. Shunday oqimlardan biriga assosiativ nazariya kiradi.

Assosiativ nazariyaning asosiy tushunchasi assosiatsiya tushunchasidir. Assosiatsiya - aloqa bog`lanish degan ma`noni bildiradi va hamma psixik hodisalarni tushuntiruvchi universal mexanizm sifatida qaraladi. Ularning fikricha, agar ma`lum psixik hodisalar inson ongida ayni bir vaqtning o`zida bir-biridan ketma-ket hosil bo`lgan bo`lsa, ular o`rtasida assosiativ aloqa hosil bo`ladi. Agar shu assosiativ aloqaning biron-bir elementi qayta ta`sir qilsa yoki qayta nomoyon bo`lsa, ongimizda assosiativ aloqaning barcha elementlarini qayta tiklashga olib keladi.

Shunday qilib, assotsianizm ikkita ta`sirot o`rtasidagi aloqa bog`lanishning zaruriy va etarli asosi - bu ta`sirlarning inson ongida ayni bir vaqtning o`zida nomoyon bo`lishi deb hisoblaydi.

Assotsianistlar quyidagi assosiatsiya hosil bo`lishning asosiy sharoitlarni ko`rsatadilar. A) tegishli ob`ektlarning zamon va makon izchilligi; b) ob`ektlarning bir-biriga o`xshashligi, ob`ektlarning bir-biridan farqi, qarama-qarshiligi. Shu sharoitlarga

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

mos ravishda uch turli assosiatsiya ajratilgan: izchillik assosiatsiyasi, o`xshashlik assosiatsiyasi, kontrastlik assosiatsiyasi.

Ammo bir xil sharoitda doimo bir xil assosiatsiyalar zanjiri hosil bo`lmaydi. U holda turli kishilar bir xil sharoitda bir xil narsalarni eslab qolgan bo`lar edilar. Haqiqatda esa aloqalar tanlangan suratda hosil bo`ladi.

Geshtal’tizm (nemischa "gestalt" - obraz degan ma`noni anglatadi) - psixologik nazariya. Bu nazariyaning asosiy tushunchasi - geshtal’t tushunchasidir. Geshtal’t tushunchasi yaxlit, bir butun tashkilotni (bir butun organizmni) tarkibiy qismlarga bo`lib bo`lmaydigan tuzilishini anglatadi.

Bu nazariyaga ko`ra aloqalar (bog`lanishlar) hosil qilishning asosi sifatida materiallarning tashkil qilinganligi e`tirof qilinadi. Materialning ma`lum tashkiliy tartibi esda olib qolishda katta rol’ o`ynaydi. Ammo materialning tuzilishini ochish va baholash, oqibatda uni esda olib qolishda faqatgina sub`ekt faoliyati natijasi asosiy rolni o`ynaydi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida barcha psixik jarayonlarni, shu jumladan xotira jarayonlarini ham tarkib toptirishga sababchi bo`lgan asosiy faktor shaxs faoliyatidir, deb qarovchi nazariyalar toboro ko`proq e`tirof etilmoqda. Bu nazariyaga asosan materialni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish jarayonlari sub`ekt faoliyatida ana shu materiallarning qanday o`rinda turishi bilan belgilanadi.

Xotira turlari

Xotira inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning nomoyon bo`lish shakllari ham nihoyat darajada har xildir. Xotiraning har xil turlari uch xil mezon asosida turlarga bulinadi (birlashtiriladi).

1. Ko`proq faoliyatda ko`rinadigan psixik aktivlik xarakteriga ko`ra xotiraning harakat, emosional (hissiy), obrazli va so`z-mantiqiy turlari farqlanadi.

2. Faoliyat maqsadi xarakteriga ko`ra xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bulinadi.

3. Materialni qancha esda olib qolish va esda saqlash muddatiga qarab qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ xotira turlariga bo`linadi.

Harakat, emosional (hissiy), obrazli va so`z-mantiqiy turlari.

Inson faoliyat ining har xil turlarida psixik faollikning turlicha ko`rinishlari ustun turishi mumkin. Shunga ko`ra xotiraning ham ma`lum bir turi xizmat qiladi. Bo`lar harakat, emosional (hissiy), obrazli va so`z-mantiqiy xotiralardir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Harakat xotirasi - turli xil harakatlarni va ularning tizimlarini esga olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat. Ba`zi kishilarda xotiraning bu turi boshqalaridan ustun turadi. Ko`pchilik bu xotira turining mavjudligini payqamaydi. Holbuki xotiraning bu turi har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi. Agar harakat xotirasi bo`limganda edi, biron harakatni amalga oshirish uchun biz shu harakatning o`zini har gal "boshdan boshlab" o`rganar edik. Shu jumladan yurish ham harakat xotirasi mahsulidir.

Emosional (hissiy) xotira - tuyg`u hissiyotga xos xotiradir. Emosional (hissiy) xotira biz boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlab qolgan hissiyotlar yo harakatga undovchi yoki o`tmishda salbiy kechinmalarga ega bo`lgan harakatlardan saqlab qoluvchi signal sifatida nomoyon bo`ladi. O`zga kishiga hamdard bo`lish qobiliyati, kitob qahramoni bilan birga qayg`urish hissiy xotiraga asoslanadi.

Obrazli xotira - tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, hidlar, ta`mlar bilan bog`liq xotiradir. Xotiraning bu turi ko`rish, eshitish, tuyish, hid bilish va ta`m xotiralaridan iborat bo`ladi. Xotiraning bu turlari turli odamlarda turlicha rivojlangan bo`lib, ko`pchilikda ko`rish va eshitish etakchi rol o`ynaydi. Ammo ba`zi kasblarda va ba`zi ko`rish va eshitish qobiliyatini yo`qotgan kishilarda yaxshi rivojlangan bo`ladi.

Ba`zan eydetik deb atalgan ("eydos" - yunoncha so`z bo`lib obraz degan ma`noni anglatadi) xotira turiga ega odamlar ham uchrab turadi. Ularda ko`rgan predmetlar, sharoitlar butunligicha, xuddi rasmga tushirib olingandek butun, barcha tafsilotlari bilan eslab qolinadi. Ular shu vaziyatni xuddi hozir idrok qilayotgandek "ko`ra oladilar".

So`z-mantiqiy xotiraning mazmunini bizning fikrlarimiz tashkil qiladi. So`zlar bo`lmasa fikrlar ham bo`la olmaydi. Shuning uchun ham fikrlarimizga xos xotira shunchaki mantiqiy xotira deb emas, balki so`z-mantiq xotirasi deb ataladi. So`z-mantiq xotirada ikkinchi signallar tizimi asosiy rol o`ynaydi. Bu xotira turi insongagina xos xotira turidir. Xotiraning bu turi ijtimoiy tajribani o`rganishda, uni keyingi avlodga uzatishda - bilimlarni o`zlashtirishda, tarbiya jarayonida hal qiluvchi o`ringa ega.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira

Faoliyat maqsadiga ko`ra xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari farqlanadi. Muayyan maqsadsiz biron bir narsani esda olib qolish va eslash, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz ravishda qayta esga tushirish ixtiyorsiz xotira deyiladi. Biz o`z

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

oldimizga biron maqsad qo`yib esda olib qolganimizda ixtiyoriy xotira haqida gap boradi. Ixtiyoriy ravishda esda olib qolish va esga tushurish jarayonlarida maxsus mnemik ("mneme" lotincha so`z bo`lib xotira degan ma`noni anglatadi) harakatlar tarzida amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira. Operativ xotira.

Ma`lum bir materialni esda olib qolish uchun va uni xotirada mustahkamlash uchun u sub`ekt tomonidan tegishli ravishda ishlab chiqilishi lozim. Bunday ishlab chiqish ma`lum miqdorda vaqt talab qiladi. Bu vaqt izlarni konsolidatsiyalash (lotincha consolidatio so`zidan olingan bo`lib, mustahkamlash degan ma`noni anglatadi) vaqt deb ataladi. Biz ma`lum daqqa davomida hozir bevosita idrok qilmayotgan narsalarni go`yo ko`rishda, eshitishda davom etamiz (xuddi ko`z o`ngimizda turganday yoki qulog`imizda eshitilayotganday bo`laveradi). Bu jarayonlar beqaror va o`zgaruvchan bo`lib, qisqa muddatli xotira deb nom olgan. Juda ko`p takrorlashlar, qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlab qolish xarakterli bo`lgan uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig`ida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so`ng juda qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Qisqa muddatli xotira atamasi o`rnida adabiyotlarda, ko`pincha, uning turli sinonimlari - "bir lahzalik", "dastlabki", "zudlik", "qisqa vaqtli" va shu kabi atamalar qo`llaniladi.

Operativ xotira tushunchasi inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan aktual harakatlar, operatsiyalar uchun xizmat qiluvchi mnemik jarayonlarni bildiradi. Masalan, arifmetik amalni bajarayotganda biz oraliq natijalarni "yodimizda" saqlab turamiz. Ishlatilgan, ishlangan materiallar esa esdan chiqarib yuborilaveradi. Ish tugatilgach ko`pincha barcha informatsiyalar esdan chiqarib yuboriladi. Shu sababli xotiraning bu turini "ishchi" xotira ham deb yuritiladi.

Xotira jarayonlari

Xotira turlaridan tashqari ularning jarayonlari ham farqlanadi. Bo`lar esda olib qolish (mustahkamlash), esga tushirish (aktuallashtirish, qayta tiklash), esda saqlash va unitish jarayonlaridir.

Esda olib qolish natijasida yangi materialni oldin o`zlashtirilganlari bilan bog`lash orqali mustahkamlanadi. Esda olib qolish individ tajribasini yangi bilimlar bilan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

boyitishning zaruriy shartidir. Esda olib qolish tanlovchanlik xarakteriga ega. Eslab qolish quyidagilarga bog`liq:

- inson faoliyatida aktiv qo`llagan, harakat qilgan narsalarni yaxshi eslab qoladi.
- materialni eslab qolish shaxsning motivlari, maqsadlari va faoliyat usullari bilan belgilanadi.

Esda olib qolish ham qisqa muddatli va uzoq muddatli, ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish tarzida bo`ladi. Shulardan ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolishga to`xtalib o`tamiz.

Ixtiyorsiz esda olib qolishda material go`yoki "o`z-o`zidan" esda saqlanib qoladi. Bu nimaga bog`liq? O`tkazilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko`rsatadiki, ixtiyorsiz esda olib qolish quyidagi omillarga bog`liq:

- material faoliyatning asosiy maqsadining mazmuniga kirsa yaxshi esda qoladi. Agar material faoliyatni amalga oshirishning sharoitlariga, usullariga kirsa yaxshi esda saqlab qolinmaydi.
- faol ravishda aqliy ishni yuzaga keltirgan material ixtiyorsiz ravishda yaxshi esda qoladi;
- muhim hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan, bizda qiziqish va hissiyot tug`dirgan material.

Ixtiyoriy esda olib qolish maxsus mnemik harakatlar mahsulidir. Bunda nimani va qanday qilib eslab qolishni aniqlash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari quyidagi omillarni ko`rsatish mumkin:

- esda olib qolishning motivi;
- esda olib qolishning ratsional (oqilona) usullaridan foydalanish;
- **tushunish**, mantiqiy anglab esda olib qolish;
- o`rganilayotgan materialning rejasini tuzish;
- taqqoslash;
- tizimlashtirish va klassifikatsiya qilish;
- obrazli bog`lanishlarga keng suyanish;
- qayta esga tushirish;
- qismlarga bo`lib va yaxlit takrorlash kabilari.

Qayta esga tushirish - ilgari esga olib koligan materialni aktuallashtirish. Qayta esga tushirishning tanish, qayta esga tushirish va xotirlash kabi turlari farqlanadi.

Tanish - qandaydir ob`ektni qayta idrok qilish sharoitida uni qayta esga tushirish.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

Qayta esga tushirish tanishdan shunisi bilan farq qiladiki, u qayta esga tushirilayotgan ob`ektni qayta idrok kilmay turib amalga oshiriladi.

Xotirlash - o`tmishdagi obrazlarimizni zamon va makonda lokallashtirilgan holda qayta esga tushirishdan iborat.

Unitish - esda olib qolning materialni vaqtinchalik yoki butunlay qayta tiklay olmaslik.

Unitish turlari: butunlay unitish, qisman unitish, vaqtinchalik unitish.

Xotiraning ustunlik qiluvchi tiplariga ko`ra individual farqlar mavjud. Ko`rgazmali obrazli, so`z-abstrakt va oraliq tipdagi xotira tiplari farqlanadi.

XULOSA

Kundalik tajribamiz ko`rsatadiki, esda qolgan narsalarning ham esimizga tushavermaydi, ularning bir qismi unutiladi. Unitish ham xotiraga oid hodisadir.

Esda qoladigan narsa xotira materialini, esda saqlanib turadigan va esga tushiriladigan narsa esa xotiraning mazmunini tashkil qiladi.

Ilgari idrok qilingan narsalarning esimizga tushgan obrazlari tasavvur deb ataladi. Bu xotiramizda saqlanib qolgan idrok obrazlari bo`lib, mazmunan obrazli xotiraga talluqlidir. Odam xotirasining asosiy mazmunini nutq-so`z materiali tashkil etadi. Idrok qilingan narsa va hodisalarining nomlari, o`qilgan matnlar, so`zlar, gaplar, boshqalarning nutqi esda olib qolinadi, esda saqlanib qoladi va esga tushiriladi. Lekin nutq esda olib qolinganda u yoki bu oddiy tovushlar birikish tizimlari emas, balki nutqda ifodalangan ma`no, o`z va boshqalarning fikrlari esda qoladi, saqlanadi va esga tushadi. So`zlarning ma`no jihatdan mantiqiy suratda bir-biriga bog'lanib esda qolishi va esga tushishi mazmunan so`z-logik xotirasi bo`lib, obrazli xotiraga nisbatan, ancha murakkab aqliy faoliyatdir. Biz ko`ngildan kechirgan tuyg'ular, har xil muskul va ish harakatlari ham xotira mazmunini tashkil qiladilar.

Shu sababli esda qoladigan materialning xilma-xil mazmuniga qarab, xotirani, odatda, obrazli, so`z-logik, emotsiional(tuyg'u-hissiyot) va harakat xotirasi kabi xillarga ajratiladi.

Shunday qilib, ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish)dan iborat bo`lgan aqliy faoliyatni xotira deyiladi. Qarilikda esa xotira fuksiyalari susayadi va aynan shu sababdan keksa insonlarimizning ko`p narsalarni aytilgan gaplarni unutish holatlari kuzatiladi bunga normal holatda qarashimiz ham mumkin. Buni oldini olish uchun esa yoshlikdan xotira mashqlari bilan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

shug'ullanish kerak va shundagina xotiramiz keksayganimizda ham bizga pand bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1-Bruner d. S. Psixologiya poznaniya. - m., 1977
- 2-Gamezo m. V., domashenko i. A. Atlas po psixologii. - m., 1986
- 3-Gippenreyter yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. - m., 1996
- 4-Granovskaya r. M. Elementi prakticheskoy psixologii. Spb, 1997
- 5-Karimova v. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. - t., 2000
- 6-Karimova v. M. Psixologiya. - t., 2002
- 7-Karimova v. M., akramova f. Psixologiya. Ma’ruzalar matni - t., 2000
- 8-Nemov r. S. Psixologiya m. 1990
- 9-Nemov r. S. Psixologiya. - kn.1. Obshie osnovi psixologii. - m., 1994
- 10-Nemov r. S. Psixologiya. - v 2-x kn. Kn.1. - m., 1998
- 11-Nemov r. S. Psixologiya. V 3-x kn. - kn.1. - m., 1998
- 12-Psixologiya. Uchebnik. - pod red. A. Krilova - m., 1998
- 13-Umumiy psixologiya. A. V. Petrovskiy tahriri ostida. T.1992.
- 14-Www.ziyonet.uz

**Research Science and
Innovation House**

MUNDARIJA

№	Maqola(Tezis) nomi va mualliflar (F.I.SH)	Betlar
1.	SPECIAL FEATURE OF WORD CREATION Hilola Mardieva Nilufar Melixolova	6-8
2.	HEALTH AND MEDICINE Nilufar Eshonqulova Navro‘za O‘rinova Maxanova Muhayyo	9-12
3.	Concept as the most important category of linguistic and cultural studies Jabborova Feruza Maxmudovna	13-17
4.	CURRENT HUMAN IMPACT ON ECOLOGY Ramazonova Rukhshona Islamova Ulug‘oy Makhanova Muhayyo	18-20
5.	MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARIDAN BILIMLARNI NAZORAT QILISHDA TEST TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH Raxmonova Maftuna Abdulla qizi	21-25
6.	MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING HOZIRGI KUNDAGI O‘RNI Yusupova Sevinch San’at qizi	26-28
7.	Взаимосвязь тревожности и коммуникативных умений в подростковом возрасте Атаджанова Л. А.	29-30
8.	PEDAGOGIKA PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA “T-SXEMA” TEXNALOGIYASI Umarova Karima	31-33
9.	Maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarini ma’naviy salohiyatini oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy – adabiy merosidan foydalanishning o‘ziga xosligi Abduraimova Gulzoda Sultanova Nilufar	34-37

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

10.	6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini oshirishda tarbiyachi mahorati Sultanova Nilufar	38-41
11.	Pedagogika sohasida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalari Mustafoqulova Aziza Urazboy qizi	42-44
12.	Ta'lim sohasida ota-onva o'qituvchi hamkorligi Omonboyev Ozodbek	45-50
13.	Pedagogika sohasida qo'llaniladigan axborot texnologiyalari Fozilova Nasiba Irisbek qizi	51-54
14.	HOZIRGI KUNDAGI PEDAGOGIKA SOHASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI Saidova Sevara Istam qizi	55-58
15.	Hozirgi kunda pedagoglarda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari Xudoyberdiyeva Tursunoy Tohirjon qizi	59-62
16.	HOZIRGI KUNDA PEDAGOGIKA SOHASIDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY METODLAR Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi	63-67
17.	Pedagogikadagi muammolar va ularning yechimlari Pirnayeva Umida Xoldor qizi	68-72
18.	Ta'lim sohasida tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash usullari O'ktamjonov Davlatjon Zohidjon o'g'li	73-77
19.	O'qituvchi va ota-onalar hamkorligining zamonaviy ko'rinishlari Abduvaliyeva Maftuna G'ulom qizi	78-81
20.	O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash usullari Abdurahmonova Munira Asqar qizi	82-85
21.	O'qituvchi va rahbar o'rtasidagi nizolar va ularning yechimlari Bobonazarova Dildora Jo'rabek qizi	86-89
22.	O'qituvchi va ota onaning bola tarbiyasidagi roli Ermatova Muxlisa Asqar qizi	90-93

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

23.	O‘quvchilar jamosida sog‘lom pisixalogik muhitni yaratish Bekbolayev Javlonbek Jumanzar o‘g‘li, Turg‘unboyeva Umida Bahriiddin qizi	94-98
24.	O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablari va ularning yechimlari Tolliboyeva Hilola Bahodir qizi	99-101
25.	Pedagoglarning ta’lim jarayonidagi tarbiyaviy Metodlari Sayliyeva Marjona Sodiqovna	102-105
26.	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ Н.Г.ЧЕНРЫШЕВСКОГО Л.А.Файзиханова	106-109
27.	Исследование изменений ландшафтов Хорезмской области Ilhomboyeva Gulchehra Ruslon qizi	110-113
28.	O‘QUVChI YOSHLARDA EKOLOGIK VA GIGIYENIK TARBIYANING O‘RNI Turakulova V.	114-116
29.	SUYUQ KRISTALLARNING QO‘LLANILISH SOHALARI VA ISTIQBOLLARI Ibrohimova Muhlisa Erkinjon qizi, Xoshimova Mo‘mina Shuhratjon qizi	117-120
30.	KOREA INFORMATION -CULTURE AND THE ARTS Karimova Ruxshona Normatova Marjona	121-124
31.	Maktabgacha yoshdagи bolalar ma‘naviyatini rivojlantirishda Muhammad Yusufning she’rlarini ahamiyati Avezova Mastura, Ahmedova Gulnoza	125-127
32.	Hozirgi kunda pedagogikada zamonaviy metodlar Lapasova Shahrizoda Farhod qizi	128-133
33.	Tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati Qo‘yliyeva Shahlo	134-137
34.	Pedagogikada jazolash metodlari A’zamova Marjona Ibrohimovna	138-141

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC

INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

35.	O‘qituvchining ta’lim berish jarayonida uchraydigan muammolar Ismatova Munisa Shuxrat qizi	142-144
36.	Ta’lim tizimidagi nizolar Erqulova Durdona Dilshod qizi	145-149
37.	TARBIYASI OG‘IR BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH USULLARI Burxonova Malika Fazliddin qizi	150-152
38.	Zamonaviy ta’lim afzalliklari va imkoniyatlari Axmedova Munisa Shukrullayevna	153-156
39.	O‘qituvchilar jamoasida sog‘lom psixologik muhit yaratish Xamidova Marjona G‘ayrat qizi	157-161
40.	Ta’lim jarayonida Pedagoglarning kasbiy faoliyati Xushbaxtova Diyora Abdusamad qizi	162-164
41.	Ta’lim sohasida olib boriladigan hozirgi islohotlar Shukurillayeva Komila A’zamjon qizi	165-167
42.	Talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida axborot Texnologiyalari Shakarova Ruxshona Iskandarovna	168-172
43.	Pedagogikada rag‘batlantirish metodi Shahobiddinova Sevinch Rahimovna	173-177
44.	THE IMPORTANCE OF PHYSICS IN MODERN TECNOLOGIES Yakubova Diloromxon Qurbanaliyev Sanjarbek Husnidinova Ra’no	178-182
45.	Keksa yoshdagи insonlarda xotira susayishi hamda xotira funksiyalari va xotira haqida umumiy tushunchalar Turdiqulov Kamronbek Muzaffar o‘g‘li	183-194
46.	MUNDARIJA	195-198